The development of information technologies has accelerated the communication process, changed the approach to systematization, storage and search of documents. There are programs for fast online messaging. It is no longer necessary to study the documents in material form, digital copies are available. These and other innovations have influenced the legal sphere. The use of tools from the information environment has helped lawyers get the data they need to work faster. Narrow-profile training materials have become available. You no longer need to waste time searching for the latest edition of the necessary regulatory legal act, to have it before your eyes in print until the next edition. Thanks to information developments, lawyers were able to devote more time to their main tasks. Technologies have made it possible to automate many processes related to document management. The use of information technology in law, the work of lawyers has been optimized as much as possible by reference and automated systems [1].

Reference legal systems is a computer database created for informational support of the work of lawyers and specialists of related professions. The database includes: regulatory legal acts, judicial practice, article-by-article comments, professional legal journals, legal literature. The elements are linked by cross-

references, version histories, and search. The introduction of this information product made it possible to make available the latest editions of regulatory legal acts around the clock from anywhere.

Earlier systematization of documents took a lot of time to search for sources in an already sorted data array. This often led to loss of information, false conclusions and errors. Automated information systems for lawyers are responsible for storing, ensuring effective search and transmission of information on relevant requests. Access to AIS, unlike help systems, is limited. The system contains classified information about search activities, special examinations and is used exclusively for official purposes. The introduction of AIS allowed employees to reduce the time for interaction with different structural divisions and receive the necessary information on time [2].

The information industry has introduced various electronic devices into human life. Their use is designed for a wide range of consumers and does not depend on their profession. In the legal field, some devices have become indispensable. Actively used: photo and video cameras, DVRs, microphones, voice recorders. With the help of these devices, information that is evidentiary in nature is recorded on electronic media. Videoconferencing allows you not to call the participants of the process to the courtroom at the judicial stages of the consideration of cases, when physical presence is not necessary. Also, a personal meeting of a lawyer with a client is not always mandatory. Messengers help to give advice at a convenient time. There are entire communities on social networks where professionals answer the audience's legal questions [3].

METHODOLOGY

New technologies in legal practice are currently very popular and are of priority importance for the development of law in the country. Thanks to their implementation, the capabilities of both individuals and legal entities (including state and local government bodies) are expanding.

Technologies in law are a system with actualized actions of external manifestation, which are based on forecasts, principles and plans. It includes operations of officials, individuals, bodies that have competence in the publication (implementation, interpretation, systematization, etc.) of legal acts that have regulatory force. In the course of these actions, the necessary resources, rules, means, methods and techniques are used.

Currently, technologies in the legal field are becoming less conservative and are developing in the following areas: 1. standard legal services are automated: thanks to this, citizens can solve issues online without the help of a lawyer; 2. special websites are created where you can register a business, declare income and prepare simple contracts, as well as statements of claim; 3. Internet sites are launched that have a catalog format: thanks to them, the cost of legal services is reduced, since competition is transparent. The work of lawyers is also automated. This is due to the created CRM, as well as document management systems [4].

RESULTS

This phenomenon is widespread all over the world and in different directions, not only in the economy.

The blockchain, which is currently popular and developing, is having an increasing impact on the field of jurisprudence. It operates in conjunction with distributed registry technology. A blockchain is a chain consisting of blocks arranged sequentially and continuously according to certain rules. This chain carries information of various types and nature. Blockchain has an impact on three categories: Lawyers. Law.

Legal services. The following legal services fall heavily under the influence of blockchain: Legal Information Systems. Blockchain simplifies access to them. Legal infrastructure. Computer, as well as computing law. It is common in the automation and computerization of decision-making processes, as well as legal regulation. It is worth noting that the blockchain in the field of law is just beginning its development and experts believe that in the future lawyers will need to improve skills that relate to new technologies. Law firms will not be able to exist without the introduction of blockchain and automation systems in them.

Efficiency and quality of legal technology: among the quality parameters of modern regulatory legal acts, it is customary to distinguish the following: regulating reality in its real manifestation, existing conditions of life of society of various kinds (economic, spiritual, political, national, social, religious and others). In addition, they should assess the prospects for development. They must be scientifically substantiated, reasoned and reliable. Their presentation should also be impeccable, that is, concise and understandable. All law-making decisions must be prepared quickly and reflect the needs that have matured in the regulated sphere at various levels. Regulatory legal acts should be stable, not contain errors, gaps, collisions, etc.

CONCLUSION

The scientific direction has not spared legal technologies, which are constantly developing. According to the theory, legal activity is impossible without new technologies aimed at the formation of the stability of the legal system, necessary for the promulgation of regulatory legal acts of various types (both federal and at the level of the subjects of the country). They are accepted using certain technologies, tools, techniques, principles and rules. However, this concept contradicts itself in some points, since sustainability is conservatism. This theory assumes that development should be stable. To ensure this principle, it is necessary to observe the consistency of planning documents on goals, activities, priorities, as well as other resources. However, the mechanisms needed to support the results, as well as the evaluation of the system of legislative actions. This reduces the effectiveness of strategic planning, and does not properly contribute to development [4].

Information technologies, legal aspects have become available to a wide mass of the population – students of specialized specialties, ordinary citizens, employees of related professions. Employees of the legal profile optimized the performance of everyday tasks and were able to concentrate not on the routine search for the necessary documents, but on important and urgent matters.

REFERENCE:

1. Bulgakova E. V., Bulgakov V.G. Storage of video archives of data on dynamic signs of a person intended for solving criminalistic tasks // Legal Informatics. – 2013. – No. 4. – PP. 28–31.

2. Drapezo R.G., Sergeev O.D., Zharikov E.V., Lyashchenko I.V., Bydantsev N.A.A brief overview of IT technologies used in legal activity // Bulletin of KemGU. – 2013. – № 3 (55). – PP. 306–312.

3. Latyshev D.S. A brief overview of information technologies used in legal activity // Innovative Science. – 2017. – No. 10. – PP. 14–17. Masyuk M.A. Analysis and visualization of interrelations of normative legal documents in reference legal systems // Siberian Journal of Science and Technology. – 2011. – № 2 (35). – PP. 40–45.

4. Rak I.P. Information technologies in the activities of law enforcement agencies // Innovative science. – 2016. – № 2-3 (14). – PP. 132–135.

Аманиязова Света Байниязовна
Қорақалпоқ давлат университети таянч докторанти

"ЭЛЕКТРОН ДАВЛАТ ХИЗМАТЛАРИ" ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ

Amaniyazova Sveta Bayniyazovna
Karakalpak state university, doctorol student

CONCEPT AND ESSENCE OF "ELECTRONIC GOVERNMENT"

Аманиязова Света Байниязовна
Каракалпакский государственный университет, докторант

ПОНЯТИЕ И СУТЬ «ЭЛЕКТРОННОГО ПРАВИТЕЛЬСТВА»

Ахборот ва коммуникация технологияларининг ривожланиши жамиятнинг сиёсий ҳаётида, хусусан, ҳокимият ва фуқароларнинг ўзаро ҳамкорлигидан келиб чиқадиган маъмурий-ҳуқуқий муносабатларида ҳам сезиларли ўзгаришларга олиб келмоқда, хусусан, қонун лойиҳалари матнидан, ҳаттоки дастлабки ишлаб чиқиш босқичида ҳам катта ҳажмда ва энг кўп одамларнинг тезкор фойдаланиши, шунингдек, ушбу масала бўйича таҳлилий маълумотлар олиш имкониятининг мавжудлиги; давлат ҳокимияти органлари фаолияти тўғрисидаги маълумотларнинг шаффофлиги ва давлат органлари билан ўзаро ҳамкорлик имкониятларининг таъминланиши каби ҳолатларни айтиш мумкин.

Шунингдек, фуқаролик жамият ҳаётида фуқароларнинг иштироки ижро этувчи ҳокимиятнинг ошкоралик, демократик институтлар билан ўзаро ҳамкорлик, жамоатчиликни қўллаб-қувватлашга йўналтирилганлиги, ижтимоий муносабатларда низоларнинг олдини олиш каби муҳим хусусиятларини таъминлашга имкон беради [1].

Яна бир ўзгариш сифатида давлат хизматларини электрон шаклда олиш имкониятининг юзага келиши бўлиб, бу давлат органлари фаолиятини ташкил этишнинг янги шакли сифатида ахборот-телекоммуникация технологияларидан кенг фойдаланиш натижасида давлат хизматлари ва давлат органлари фаолияти натижалари тўғрисидаги ахборотни олишда самарадорликнинг сифат жиҳатидан янги даражаси ва қулайлигини таъминламоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 9 январь куни давлат хизматлари кўрсатиш самарадорлигини ошириш масалалари бўйича йиғилишда "...ягона дарча" тамойили тўлиқ ишлаши учун барча давлат хизматлари тўлиқ электрон шаклга ўтказилиши ва

маълумотлар рақамлаштирилиши лозимлиги, шунингдек, электрон давлат хизматларидан фойдаланувчилар сонини йил якунигача камида 5 бараварга ошириш, 2025 йилгача тўлиқ электрон хизмат кўрсатишга ўтишни мақсад қилиб қўйиш” [2] лозимлигини таъкидлаб ўтади.

Электрон давлат хизматларини кўрсатиш тартиби ҳақида айтмасдан аввал унинг моҳиятини ҳам таҳлил қиладиган бўлсак, давлат хизматлари тушунчасига бир қатор фикрлар билдирилган бўлиб, унинг асосий моҳиятига турлича таърифлар берилган. А.Е. Шаститко: “Давлат билан мурожаат қилувчи ўртасидаги муносабатда юзага келадиган лицензиялаш, сертификатлаш, давлат рўйхатидан ўтказиш, маълумотнома бериш, мулкни рўйхатдан ўтказиш каби давлатнинг оммавий функцияларини ифодалайдиган давлат хизматлари”, дея таъриф бериб ўтган [3]. Билдирилган фикрлар давлат хизматларига берилган таъриф бирмунча умумий ва ўз табиатига кўра давлат кўрсатадиган барча хизматларни ўзида акс эттирмайди.

Давлат хизматларининг аксарият қисми бир нечта давлат органлари иштирокида амалга оширилиб, бунда давлат хизмати натижаси учун масъул бўлган давлат органининг бошқа унга бўйсунмайдиган давлат органлари билан идоралараро ҳамкорлик қилиши кўзда тутилади. Бу жараён ҳужжатларни бирхиллаштириш (унификация) ва давлат органлари ўртасида маълумотларни тезкор алмашиш, ягона идентификаторлардан фойдаланиш, ахборот тизимларини ўзаро бириктириш (интеграция) ва идоралараро алоқаларни мувофиқлаштириш орқали амалга оширилади.

Э.В. Талапина ва Ю.А. Тихомировалар эса бугунги кунда давлат хизматларининг турлари, уларни тизимли ҳуқуқий тартибга солиш бўйича олимлар ўртасида якдил фикр-мулоҳазалар мавжуд эмас ва ҳаттоки давлат хизматлари тушунчасининг ягона тушунчаси мавжуд эмас [4] деб таъкидлайдилар.

Юридик адабиётларда давлат хизмати тушунчасининг кенг ва тор доирада кўриб чиқилганлигини ҳам кўриш мумкин. Масалан, А.П. Алехин ва Ю.М. Козлов давлат хизмати тушунчасига тўхталиб, кенг маънода давлат хизматининг давлат хизматчилари томонидан давлат органлари, муассасалари ва корхоналарида, тор маънода эса, фақатгина давлат органларида амалга оширилишини кўрсатиб ўтадилар [5].

Давлат хизмати тушунчаси, албатта, қонун доирасида аниқ белгилаб берилган бўлиши лозим. Чунки ҳар бир давлатда унинг хусусиятларидан (давлат ва маъмурий-ҳудудий тузилиши, қонунчилиги, давлат ҳокимияти ва бошқаруви ва ҳ.к.лардан) келиб чиқадиган ўзига хос жиҳатлари мавжуд. Кўпгина давлатларда давлат-хизмат муносабатларини тартибга солишга қаратилган қонунлар қабул қилинган.

Беларусь Республикасининг 2003 йил 14 июнда қабул қилинган “Беларусь Республикасида давлат хизмати тўғрисида”ги Қонуннинг 2-моддаси[6]га биноан, давлат хизмати деганда давлат мансабини эгаллаб

турган ҳолда давлат-ҳокимият ваколатларини бевосита амалга оширишга ва (ёки) давлат органлари функциялари бажарилишини таъминлашга қаратилган профессионал фаолият тушунилади.

Қозоғистон Республикасининг 2015 йил 23 ноябрьда қабул қилинган “Давлат хизмати тўғрисида”ги Қонунининг 1-моддасида давлат хизмати – давлат ҳокимиятининг вазифалари ва функцияларини амалга оширишга қаратилган мансаб ваколатларини бажариш бўйича давлат органларидаги давлат хизматчиларининг фаолиятидир [7].

Қирғизистон Республикасининг 2004 йил 11 августда қабул қилинган “Давлат хизмати тўғрисида”ги Қонунига биноан, давлат хизмати – давлат хизматчиларининг давлат органларида профессионал асосда амалга ошириладиган ҳамда Конституция ва бошқа норматив ҳужжатлар билан белгилаб берилган ҳокимият вазифалари, функциялари ва ваколатларини бажаришга қаратилган фаолиятдир [8].

Юқоридаги хорижий давлатлар қонун ҳужжатлари мазмунидан келиб чиқадиган бўлсак, айрим давлатларнинг қонунчилиги давлат хизматини айнан давлат органида маълум бир мансабни эгаллаб турган шахс томонидан давлат (давлат органлари) вазифа ва функцияларини амалга оширишга қаратилган профессионал фаолият сифатида белгилаб беради.

Шундай қилиб, қонун чиқарувчи таърифига кўра, давлат хизмати ва электрон давлат хизмати ўртасида сезиларли фарқни кўрмаймиз. «Электрон» сўзининг фойдаланилиши давлат хизмати тушунчасининг моҳияти ва мазмунини ўзгартирмайди, фақат уни амалга ошириш тартибининг инновацион хусусиятидан далолат беради.

Миллий қонунчилик доирасида ҳам давлат хизматларини кўрсатишга нисбатан аниқ бир тушунча ёки муаллифлик таърифи келтирилмаган бўлсада ўтган йил давомида бир қатор ишлар амалга оширилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 декабрдаги “Аҳолига давлат хизматлари кўрсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–5278-сон Фармонига [9] кўра 2003 йилдан буён тадбиркорлик субъектларини “ягона дарча” тамойили бўйича рўйхатдан ўтказиш туманлар (шаҳарлар) ҳокимликлари ҳузуридаги тадбиркорлик субъектларини рўйхатдан ўтказиш инспекциялари томонидан амалга ошириб келинганлиги; 2016 йил 1 январдан бошлаб Инспекциялар негизида Тадбиркорлик субъектларига “ягона дарча” тамойили бўйича давлат хизматлари кўрсатиш ягона марказлари ташкил этилганлиги; 2017 йил 1 февралдан Ягона марказларнинг туманлар (шаҳарлар) ҳокимликлари тузилмасидан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги тасарруфига ўтказилиши мазкур соҳани ривожлантириш бўйича кейинги қадам бўлиб, вертикал бошқарувни шакллантириш, уларнинг самарали фаолиятини ташкил этиш имконини берди. Шунингдек ушбу Фармон билан давлат хизматлари кўрсатиш миллий тизимини тубдан ислоҳ

қилишнинг энг муҳим йўналишлари ҳам белгилаб берилиб, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Давлат хизматлари агентлиги (кейинги ўринларда – Агентлик) ташкил этилди.

Шундай қилиб, электрон давлат хизматлари деганда давлат хизматларини кўрсатиш бўйича давлат хизматларини кўрсатиш субъектининг давлат хизматларини кўрсатиш бўйича ариза берувчи билан ўзаро алоқасиз электрон имзо воситаларидан фойдаланган ҳолда ахборот телекоммуникация тармоқлари орқали амалга ошириладиган фаолиятни тушуниш мумкин.

Қонунчилик нормалари нуқтаи назаридан таъриф берадиган бўлсак, Ўзбекистон Республикасининг "Электрон ҳукумат тўғрисида"ги Қонунида "Электрон давлат хизмати – ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилган ҳолда кўрсатиладиган давлат хизмати" дея таъриф берилган.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, электрон давлат хизматларининг анъанавий тарзда кўрсатилаётган давлат хизматларидан ажралиб турадиган хусусиятлари сифатида қўйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

– ариза берувчи ва давлат хизматини кўрсатувчи субъект ўртасида алоқанинг йўқлиги;

– давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий тартиб-қоидаларини электрон шаклга ўтказилиши;

– исталган вақтда ва исталган жойдан давлат хизматларидан фойдаланиш имконияти.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ноздрачев А. Ф. Гражданин и государство: взаимоотношения в XXI веке // Журнал российского права. – 2005. – № 9. – С. 14.

2. Барча хизматлар учун ягона бўлган электрон рақамли имзо ишлаб чиқилади (president.uz).

3. Шаститко А.Е. Организационное рамки предоставления публичных услуг // Вопросам экономики. – 2004. – №7 (Shastitko A.E. Organizational framework for the provision of public services. – 2004. – No. 7)

4. Талапина Э.В, Тихомирова Ю.А., Публичное функции в экономике // Право и экономика. – 2002. – № 6. – С. 4 (Talapina E.V., Tikhomirova Yu.A., Public functions in the economy // Law and Economics. – 2002. – № 6. – P. 4).

5. Алехин А.П., Козлов Ю.М., Кармолицкий А.А. Административное право Российской Федерации. Москва, Зерцало, 1996.

6. Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь (pravo.by).

7. https://online.zakon.kz.

8. Закон Кыргызской Республики «О государственной гражданской службе и муниципальной службе» – Министерство юстиции Кыргызской Республики (minjust.gov.kg).

9. www.lex.uz.

Muqimov Bobur Meliboy o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk huquqi" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

"AQLLI TARTIBGA SOLISH" MODELINI ISHLAB CHIQISH ISTIQBOLLARI

Mukimov Bobur Meliboy ugli
Tashkent State University of Law, Lecturer of Intellectual property law Department, Independent researcher

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE "SMART REGULATION" MODEL

Мукумов Бобур Мелибой угли
Преподаватель кафедры «Право интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета», самостоятельный соискатель

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МОДЕЛИ «УМНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ»

Аннотация: *в данной рассмотрены перспективы развития модели «умного регулирования» в Республике Узбекистан. Изучен опыт зарубежных стран по данной тематике.*

Ключевые слова: *регулирование, государственное регулирование, «Умное регулирование», частный сектор*

Термин «умное регулирование» относится к форме нормативного плюрализма, которая охватывает гибкие, творческие и инновационные формы общественного контроля. При этом данный термин активно используется как государством, так и бизнесом. Например, он включает в себя саморегулирование и совместное регулирование, использование коммерческих интересов и неправительственных организаций в качестве регулирующих субъектов, а также повышение эффективности и результативности более традиционных форм прямого государственного регулирования.

Специфика данной модели заключается в том, что в большинстве случаев использование множества, а не одного инструмента политики и более широкого круга регулирующих субъектов приведет к улучшению регулирования. Как таковой, он предусматривает внедрение взаимодополняющих комбинаций инструментов и участников, адаптированных для удовлетворения потребностей конкретных проблем.

Необходимо отметить, что «умное регулирование» рассматривалось как двусторонний процесс с участием правительства (в качестве регулирующего органа) и бизнеса (в качестве регулируемого субъекта).

Однако, значительный объем эмпирических исследований показывает, что существует множество форм регулирования, при этом многочисленные субъекты влияют на поведение регулируемых групп различными сложными и тонкими способами [1].

Важно отметить, что механизмы неформального социального контроля часто оказываются более важными, чем формальные. Соответственно, перспектива умного регулирования предполагает необходимость сосредоточения внимания на понимании таких более широких регулирующих воздействий и взаимодействий, которые включают в себя: международные организации по стандартизации; торговые партнеры и цепочки поставок; коммерческие учреждения и финансовые рынки; давление со стороны коллег и саморегулирование через отраслевые ассоциации; внутренние системы и культура менеджмента; и гражданское общество во множестве различных форм.

С точки зрения своей истории, «умное регулирование» развивалось в период, когда стало очевидным, что ни традиционное командно-контрольное регулирование, ни свободный рынок не дают удовлетворительных ответов на все более сложные и серьезные проблемы, с которыми сталкивается мир. Это привело к поиску альтернатив мер, способных решать насущные проблемы, используя широкий спектр политических инструментов, таких как экономические инструменты, саморегулирование и стратегии, основанные на информации [2].

«Умное регулирование» также возникло в период сравнительной слабости государства, когда доминирование неолиберализма привело к относительному ослаблению ранее мощных экологических регуляторов и когда третьи стороны, такие как негосударственные организации и бизнес, все больше заполняли «пространство регулирования», ранее занимаемое государством.

Следует, также отметить, что в основе «умного регулирования» лежит ряд принципов разработки нормативных актов, соблюдение которых позволяет уполномоченным органам воспользоваться рядом в значительной степени непризнанных возможностей, стратегий и методов для достижения эффективной и действенной политики, к которым можно отнести следующее:

использование дополнительных инструментов, подходов, избегая при этом опасностей ошибочного предположения о необходимости использования всех дополнительных инструментов, а не минимальное количество, необходимое для достижения желаемого результата;

преимущества возрастающего реагирования по пирамиде инструментов с использованием не только правительства, а также бизнеса и других субъектов, чтобы повысить эффективность реагирования со стороны регулирующих органов, повысить надежность результатов за счет упорядочения инструментов;

предоставление коммерческим, так и некоммерческим организациям возможности выступать в качестве регулирующих органов, тем самым достигая не только лучших результатов при меньших затратах, но и высвобождая скудные регулирующие ресурсы, которые могут быть перераспределены в условиях, когда альтернативы прямому государственному вмешательству отсутствуют;

предоставление возможностей для получения взаимовыгодных результатов путем расширения границ, в которых такие возможности доступны, и поощрения бизнеса к выходу за рамки соблюдения существующих законодательных требований [3].

Помимо традиционных правоприменительных функций государства, модель умного регулирования утверждает, что правоприменение возможно не только государством (как предполагают традиционные теории регулирования), но также вторыми и третьими сторонами, которые выступают в качестве альтернативных регуляторов [4].

Модель умного регулирования также предполагает возможность регулирования с использованием ряда различных инструментов, реализуемых рядом сторон, упомянутых в выше, с переходом на более высокие уровни воздействия не только в рамках одной категории инструментов, но и в рамках нескольких различных инструментов, и на разных гранях регулирования.

В данном случае умное регулирование предупреждает о том, что существуют два общих обстоятельства, при которых нецелесообразно принимать ответные меры по возрастанию уровня правоприменения [5].

Таким образом, предпочтительная роль правительства в условиях модели умного регулирования заключается в создании необходимых предпосылок для того, чтобы вторые или третьи стороны взяли на себя большую долю бремени регулирования, а не участвовали в прямом вмешательстве. Это приведет к уменьшению утечку ограниченных регулятивных ресурсов и обеспечит большую ответственность за вопросы регулирования со стороны тех, кто непосредственно заинтересован в данном процессе. В данном случае государство должно действовать в качестве катализатора или посредника. В частности, это может сыграть решающую роль в недопущении пробелов и облегчить связь между государством и субъектами предпринимательства.

В этой связи хотелось бы отметить, что несмотря на значительный прогресс в разработке модели «умного регулирования» как теоретической конструкции и попытки воплотить её в процесс регулирования была

неоднозначной. Данная тенденция связана с тем, что уполномоченные органы проявляют нежелание отходить от общепринятых и устаревших способов и методов регулирования, что становится искусственным барьером вовлекать частный сектор для участия в данном процессе.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЕ ССЫЛКИ:

1. Aora, Seema and Cason, Timothy N 1995. ‘An Experiment in Voluntary Regulation: Participation in EPA’s 33/50 Program’ Journal of Environmental Economics and Management 28: 271–286.

2. Wood, Stepan and Johannson, Lynn 2008. ‘Six Principles for Integrating Non-Governmental Environmental Standards into Smart Regulation’, Osgoode Hall Law Journal. 46: 345–395.

3. Government of Canada 2005. ‘Implementation Plan for Smart Regulation’ www.tbs-sct.gc.ca/media/ps-dp/2005/0324-eng.asp Accessed 17 December 2008.

4. Bloor, Michael, Datta, Ramesh, Gilinsky, Yakov and Horlick-Jones, Tom 2006. ‘Unicorn among the Cedars: On the Possibility of Effective “Smart Regulation” of the Globalized Shipping Industry’ Social and Legal Studies 15: 537–554.

5. Farber, Daniel A 2008. ‘Five Regulatory Lessons from REACH’ UC Berkeley Public Law Research Paper No. 1301306/2008) https://papers.ssrn.com/ sol3/papers.cfm? abstract_id=1301306 Accessed 22 Nov 2014.

To'xtayev Sardor Sulton o'g'li
Jahon iqtisodiyot va diplomatiya universiteti talabasi

ADLIYA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Tuxtayev Sardor Sulton ugli
Student of University of world economy and diplomacy

MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIGITALIZATION IN THE FIELD OF JUSTICE

Тухтаев Сардор Султон угли
Студент Университета мировой экономики и дипломатии

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СФЕРЕ ЮСТИЦИИ

Annotatsiya. *Adliya vazirligi faoliyatining asosiy yo'nalishlari bu huquqni muhofaza qilish organlari va davlat boshqaruvi organlari ishtirokida respublikada qonunchilik jarayoni qonuniyligini va huquq-tartibot mustahkamlashini ta'minlash, shuningdek, huquqiy umumiy ta'limning kompleks davlat dasturi bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarning uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqadi va uning ijrosini nazorat qiladi. Barcha davlat va boshqa organlardan huquqiy statistika ma'lumotlarni talab qilib oladi, ushbu masalalar bo'yicha statistik hisobotning yuritilishiga va tahlil qilishga uslubiy rahbarlik qilishni ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidentini fuqarolarni huquqiy himoya qilinganligini va ularga yuridik yordam ko'rsatishning ahvoli to'g'risida xabardor qilib turadi. Bu kabi faoliyatni amalga oshirish vaqtida, albatta, turli xildagi muammolar kelib chiqmasligi, olib borilayotgan ishlarning sifatli bo'lishida ham, ishonchli va tezkorlikda Adliya sohasida raqamlashtirish muhim sanaladi. Ushbu maqolada Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari haqida fikr va mulohazalar qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Adliya sohasi, raqamlashtirish jarayoni, zamonaviy tendensiyalar, ishonchlilik, tamoyil, fuqarolar huquqlari, faoliyat.*

Ma'lumki, Adliya vazirligi o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha va o'z tashabbuslariga ko'ra, qonunchilik va normativ huquq aktlarining loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun tegishli organlarga kiritadi, yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarning loyihalari

yuzasidan yuridik xulosalar beradi, respublika qonunchiligini tartibga solish bo‘yicha ishlarni olib boradi, ularga o‘zgarishlar yoki qo‘shimchalar kiritishga oid takliflarni tayyorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni e’lon qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda tub islohotlar davrida adliya idoralariga tobora mas’uliyatli va muhim vazifalar yuklanmoqda. Xususan, yagona davlat huquqiy siyosatini tashkil etish, aholining huquqiy madaniyatini oshirish, fuqarolarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish borasida adliya organlari va muassasalari faoliyati o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Farmonda ularning ushbu yo‘nalishdagi ishlarini yanada rivojlantirish bilan birga, hozirgi karantin sharoitida adliya idoralari faoliyatini masofaviy tarzda tashkil etish maqsadida sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga e’tibor qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, adliya idoralarining raqamli texnologiyalar yordamida faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur qonunchilik bazasi shakllantirilmoqda. “Harakatlar strategiyasi”da ko‘rsatib o‘tilgan islohotlarni to‘laqonli amalga oshirish va belgilangan maqsadlarga erishishda Adliya vazirligining institutsional asoslari va faoliyatini raqamlashtirish bo‘yicha bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu borada Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini misol sifatida keltirish mumkin. Rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalariga nazar solsak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlat organlari faoliyatida katta o‘rin tutishini ko‘rishimiz mumkin.

Adliya idoralari nufuzini yuksaltirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun to‘sqinlik qilayotgan byurokratik holatlarni yo‘qotish, raqamli texnologiyalar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar sonini oshirish, shu jumladan, ma’muriy tartib-taomillar sohasini ilg‘or xorijiy tajriba va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish kabi vazifalarni bajarish zamon talabidir. Farmonda adliya organlari va muassasalari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali “virtual adliya” tizimini ishga tushirish vazifasi qo‘yilgan.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillar davomida deyarli barcha soha va tarmoqlarda allaqachon zamonga moslashish, uning talablaridan chetda qolmaslik uchun ham raqamlashtirish jarayoni davlat masalasiga ko‘tarildi. Ko‘plab hujjatlar elektronlashtirishni boshladi, shu jumladan, bu kabi tashabbuslar Adliya vazirligi faoliyatiga ham tatbiq etila boshlandi. Bu esa, avvalo, Adliya faoliyatidagi muammolarning bartaraf etilishida dasturulamal bo‘ldi, deb bemalol aytish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy nazorat qo‘mitasi bilan Adliya vazirligi doimiy amaliy aloqada bo‘ladi. Bu jarayonda ham raqamlashtirish tufayli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan qonun loyihalariga o‘z takliflarida ham elektron va raqamli tizimning samarasi mavjud.

Bugungi kunda jahonda raqamli transformatsiya hali davom etmoqda. Hatto, ilg'or mamlakatlarda ham bu jarayon tugallanmagan va raqamlashtirish darajasi tarmoqdan tarmoqqa qadar juda kuchli o'zgarib boradi. Ba'zi sohalar allaqachon axborot texnologiyalarining anchagina ta'siriga uchragan (moliyaviy xizmatlar, telekommunikatsiyalar, reteyl (chakana savdo), media sektori), boshqalari esa bu yo'lning boshida turibdi va raqamli texnologiyalarni ayrim jarayonlargagina (neft-gaz va tog'-kon tarmog'i, qishloq xo'jaligi, mudofaa sanoati) joriy etmoqda. Bu bilan birinchilardan bo'lib jadal transformatsiyalash ular uchun raqobatbardoshlikning garovi bo'lgan korxonalar shug'ullana boshladilar. Internetning barcha yerda tarqalishi esa raqamli servislarning paydo bo'lishiga imkon berdi. Bu kabi raqamlashtirish jarayoni ham mamlakatimizda jadallik bilan davom etayotgani amalda o'z isbotini topmoqda. Masalan, ko'plab vazirlik va davlat tashkilotlari qatorida Adliya faoliyatida bu jarayon boshlangan. Adliya vazirligining matbuot xizmati soha faoliyatini onlayn tarzda yoritib borishi va ma'lumotlarning, bo'layotgan jarayonning internet orqali tezkor tarqalishini buning bir yaqqol misoli deb olsak bo'ladi. Ammo raqamlashtirish jarayoni bugun yoki ertaga to'la amalga oshiriladi deb hech kim aytolmaydi, eng muhimi esa, hozirda bu borada amaliy ishlar boshlangani va hujjatlar va ma'lumotlarning, qisman Adliya sohasi faoliyatining elektron tartibda amalga oshirilayotganini bemalol keltirishimiz mumkin. Bundan tashqari, O'zbekistonda, menimcha, banklar, telekommunikatsiya va sug'urta kompaniyalari boshqalarga qaraganda ancha faolroq raqamli transformatsiyaga o'tmoqda, chunki ularda daromadlilikning muhim ko'rsatkichlari texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishga bog'liq. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri vazirlik faoliyatiga rahbarlik qiladi, vazirlikka yuklatilgan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi. O'zining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi. Vazirlik faoliyatining ayrim uchastkalarida va vazirlikka qarashli organlar ishiga rahbarlik qilishi uchun ularning javobgarligining darajalarini belgilaydi.

Adliya vazirligining asosiy vazifalaridan biri bo'lmish, jamoat birlashmalari ustavlarining, Respublika Vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining fuqarolar va respublikaning huquqlari va qonun manfaatlariga daxl qiluvchi normativ huquqiy aktlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosalar beradi, ushbu xulosalar asosida ularni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonini ham soddalashtirish, ham fuqarolarga qulayliklarga yaratish maqsadida sohada raqamlashtirish jarayoni olib borilmoqda. Aslida, biz XXI-asrni nanotexnologiyalar, axborot kommunikatsion texnikalarsiz tasavvur qila olmasligimiz bor haqiqat. Shu sababdan ham raqamlashtirilgan tizimga o'tish bu nafaqat ijtimoiy talab, balki zamon talabi ham deb aytish mumkin.

Adliya sohasi faoliyatida fuqarolarga va yuridik shaxslarga huquqiy yordam berish bilan bog'liq tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya (ruxsatnoma) berishda, xalq xo'jaligida huquqiy ishlarni muvofiqlashtirishni amalga oshirish,

uni yaxshilash yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqish, ishlarning qo'yilishi amaliyotini tekshirish va tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va respublika vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar yuridik xizmatlarining ijobiy ish tajribalari joriy qilishi chora-tadbirlarini ko'rish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyatlarini huquqiy ta'minlashni amalga oshirish kabi faoliyatlarning elektronlashtirishi albatta faqatgina jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Adliya vazirligiga yuklangan majburiyatlarni bajarishda, ya'ni vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy ijroiya hokimiyatlari bo'yicha turdagi korxonalar, tashkilotlardagi huquqiy ishlari holati va yuridik xizmatlar faoliyati, shuningdek, vazirlikda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik birlashmalari, aksiyadorlik jamiyatlari, birjalar, auditorlik firmalarining ustavlariga rioya etilganligini nazorat qilishda, ulardan keyingi hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilish, aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatilgan organlar va korxonalarning rahbarlariga bir oy muddat ichida bajarishi shart bo'lgan talabnomalar yuborish, amaldagi qonunlarni buzganligi yoki o'z rahbarlari bilan yetkazilgan zararni davlatga yoxud korxonaga to'lamagan mansabdor shaxslarni belgilangan javobgarlikka tortish uchun yuqori turuvchi organlar yoki sudga murojaat etishda ham zamonaviy tendensiyalar asosida tashkil etilgan va sohaga tatbiq etilayotgan raqamlashtirilgan tizimdan foydalanish natijasida ish samaradorligi ham yuqori bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Farmonning qabul qilinishi adliya idoralari faoliyatida raqamli texnologiyalar joriy etish ko'rsatkichlarini yanada oshirish, malakali va sifatli davlat xizmati, jumladan, yuridik xizmat olishga bo'lgan fuqaro va tashkilotlarning manfaatlarini ta'minlash darajasini yuksaltirish, adliya va notariat faoliyatiga oid qonunchilikni takomillashtirish, adliya organlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri – davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda samarali zamonaviy mexanizmlarni qo'llashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xojiyev Ye.T. Ma'muriy huquq. Adliya sohasini boshqarish. T. «Ilm-ziyo». 2006-y. 417-bet.

2. Otaxonov F.H. O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat. T., «Ilm-ziyo». 2006-y.

3. Mirenskiy B.A., Raxmonqulov A.X. O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari. T., 2005-y. 77–88 bet.

4. https://zamin.uz/uz/jamiyat/78121-adliya-vazirligi-va-tika-davlat-va-yuridik-xizmatlarni-raqamlashtirish-sohasidagi-qoshma-loyihalarni-amalga-oshirishni-rejalashtirmoqda.html.

5. https://uza.uz/oz/posts/adliya-idoralari-faoliyatida-raqamli-texnologiyalarning-aham-22-05-2020.

Yoqubov Murodjon G'opirjonovich
Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Axborot texnologiyalarini va innovatsiyalarni joriy qilish bo'limi boshlig'i
Kudratov Sanjar Marupovich
Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining Tashkiliy-nazorat va tahliliy bo'limi katta mutaxassisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLI SUD EKSPERTIZA

Yakubov Murodjon Gopirjonovich
The Republican Center of Forensic Expertise named after Khadicha Sulaymonova under the Ministry of Justice. Head of the Department for Implementation of Information Technologies and Innovations
Kudratov Sanjar Marupovich
The Republican Center of Forensic Expertise named after Khadicha Sulaymonova under the Ministry of Justice. Senior Specialist of the Organizational Control and Analytical Department

DIGITAL TECHNOLOGIES AND DIGITAL FORENSIC EXAMINATION

Якубов Муроджон Гопиржонович
Республиканский центр судебной экспертизы при Министерстве юстиции. Начальник Отдела внедрения информационных технологий и инноваций
Кудратов Санжар Марупович
Республиканский центр судебной экспертизы при Министерстве юстиции. Старший специалист Организационно-контрольного и аналитического отдела

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ЦИФРОВАЯ СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

Insoniyat taraqqiyotining eng yuksak cho'qqiga ko'tarilgan davri bu XXI asr-axborot asridir. Ushbu asrda kompyuter vositalari va axborotlashtirish jarayonlari kashf etilib insoniyat hayotining yengil bo'lishi bilan birga tezkorlik bilan axborot olishi, saqlashi, ulardan nusxa ko'chirishi va unga taqiq qilish kabi ko'p masalalar o'z yechimini topdi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda bu sohada jinoyatchilikning o'sib borayotgan va rivojlanayotgan tendensiyasi mavjud.

Jinoyatlarni tergov qilish ancha mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Bu jinoiy va jinoyat-protsessual huquq sohasidagi bilimlardan, shuningdek, fan, texnologiya, san'at yoki hunarmandchilik sohasidagi bilimlarni o'z ichiga olgan maxsus bilimlardan foydalanishni talab qiladi.

Jinoyat protsessida maxsus bilimlardan foydalanishning muhim protsessual shakllaridan biri bu sud ekspertizasi hisoblanadi.

Ekspertizaning mohiyati jinoyat ishini to‘g‘ri hal etish uchun muhim bo‘lgan faktik ma’lumotlarni aniqlash maqsadida moddiy ashyolarni, shuningdek, turli hujjatlarni (shu jumladan, tergov harakatlari bayonnomalarini) tahlil qilishdan iborat. O‘rganish natijalari bo‘yicha ekspert xulosa tuzadi, bu qonun hujjatlarida nazarda tutilgan protsessual harakatlaridan biridir.

Dastlabki tergov va sud tergovi davomida ham amalga oshiriladigan protsessual harakat sifatida ekspertiza ma’lumotlarning belgilangan hajmi va ahamiyati bo‘yicha so‘roqdan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, sud-ekspertizasi amaliyoti soha sifatida turli xil elementlarning murakkab tizimi bo‘lib, ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi, normativ tartibga solish, ekspert faoliyati subyektlarining holati va funksiyalari, texnik vositalar va ilmiy asoslangan ekspert tadqiqotlarini o‘tkazish usullari. Shuning uchun bunday murakkab, rivojlanayotgan tizimda zamonaviy texnik vositalardan foydalanmasdan turib, rivojlanish mumkin emas, albatta, ular kompyuter texnologiyalari va tizimlarini o‘z ichiga olishi kerak.

Hozirgi vaqtda zamonaviy kompyuter texnologiyalari juda yuqori darajaga ko‘tarilganligi va ulardan foydalanishda ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazishda odatiy operatsiyalarni ko‘p jihatdan avtomatlashtirish, murakkab va mashaqqatli hisob-kitoblarning aniqligi va samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Buning oqibatida, bir tomondan, ma’lum ekspertiza tadqiqotlarini kognitiv jarayon sifatida aylantirish bo‘lsa, boshqa tomondan, uning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishga, shuningdek, olingan ma’lumotlarning ilmiy asosliligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda qo‘llaniladigan ko‘p sonli ekspert tadqiqot usullarining har biri, jumladan, kompyuterlardan foydalanish, o‘ziga xos va turli obyektlarni o‘rganishda muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan bo‘lishiga qaramay, ular ham bir qator umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib kelmoqda.

Ayni paytda telekommunikatsiya tizimlari, videoyozuvlarning raqamli fonogrammalari, kompyuter texnikasi va dasturiy mahsulotlar bo‘yicha tadqiqotlar jadal rivojlanmoqda, sud-ekspertizalarining boshqa turlarini o‘tkazish usullarini takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Ekologik, suv transporti, oziq-ovqat mahsulotlari kabi ekspertiza asoslari ishlab chiqilmoqda.

Sud-ekspertizasiga kompyuter texnologiyalarini joriy etilishi bu insoniyat faoliyatining barcha sohalarini, ham kasbiy, shaxsiy, maishiy faoliyatni kompyuterlashtirishning umumiy jarayoni bo‘lib qolmoqda.

Kompyuter texnologiyalari sud-ekspertizasi jarayonini ko‘p jihatdan avtomatlashtirishga imkon berdi. Eksperimental ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash, ma’lum formulalar va algoritmlar yordamida yordamchi hisob-kitoblarni amalga oshirish, tasvirlarni tahlil qilish, individual ekspert muammolarini hal qilishda va yangi usullarni joriy etdi va ekspert tadqiqotlari metodologiyasini o‘zgartirdi.

Sud ekspertizasini rivojlantirish jarayoni bevosita tergov va sud amaliyotining ehtiyojlariga bog‘liq. Aynan u jinoyatlarni tergov qilish uchun muhim bo‘lgan holatlarni aniqlash uchun zarurligini yoki boshqa ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlaydi.

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy davri axborotlashtirish jarayoni bilan ajralib turadi. Bugungi axborot davrida har qanday jamiyatda axborot hamisha mamlakat taraqqiyotining koʻzgusi, kishilarning tafakkuri va siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vosita boʻlib kelmoqda.

Jahonda kechayotgan globallashuv va integratsiya, mamlakatimizda olib borilayotgan siyosiy modernizatsiya jarayonlarida axborotning ahamiyati, xususan, axborot erkinligi va ochiqligi masalasi shaxs, jamiyat va davlat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib, zamonaviy axborot tizimining shakllanganligi har qanday mamlakatning salohiyati va taraqqiyotini belgilovchi omil boʻlib sanalmoqda.

Soʻnggi yillarda olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy hayotga raqamli texnologiyalarni faol joriy etish bilan birga aholining elektron xizmatlardan foydalanish, davlat xizmatlarini bosqichma-bosqich elektron shaklga oʻtkazish hamda aholining raqamli koʻnikmalarini oshirish kabi ustuvor vazifalarni belgilamoqda.

Shunga koʻra, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida ham zamon bilan hamnafas tarzda yangi innovatsion ishlanmalar, axborot tizimlari keng joriy qilinmoqda. Bugungi kunda Markazda axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni joriy etish, raqamli sud ekspertizasini tashkil etishga masʼul boʻlgan alohida boʻlim "Axborot texnologiyalarini va innovatsiyalarni joriy qilish boʻlimi" faoliyat yuritmoqda.

Soʻngi yillarda X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida bir qancha yangi axborot tizimlari joriy etildi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 2019-yil 17-yanvardagi PQ–4125-son Qarori bilan tasdiqlangan "Yoʻl xaritasi"ning 20-bandi ijrosi yuzasidan avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari va kompyuter dasturlari, elektron maʼlumotlar bazalarini joriy qilish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu chora-tadbirlar dasturiga binoan sud ekspertiza muassasalarida quyidagilarni nazarda tutuvchi avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari va kompyuter dasturlari, elektron maʼlumotlar bazalarini joriy etish koʻzda tutilgan:

– sud ekspertlarining avtomatlashtirilgan ish oʻrinlarini tashkil etish;

– ekspert xulosalarini roʻyxatga olish va buyurtmachilarga yuborish, shuningdek, sud ekspertlarining qoʻshimcha materiallar taqdim etilishini soʻrab kiritgan iltimosnomalarini yuborish va ularni taqdim qilish muddatlarini qisqartirish maqsadida idoralararo elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish;

– koʻrilayotgan ish natijasidan manfaatdor boʻlgan tomonlardan birining yoki boshqa shaxslarning foydasiga xulosa olish uchun sud ekspertiga taʼsir koʻrsatish holatlari, shuningdek, sud eksperti tomonidan korrupsiya holatlariga yoʻl qoʻymaslik maqsadida tadqiqot obyektlarini shifrlash (kodlash) tizimini toʻliq joriy etish;

– sud ekspertizalarini oʻtkazish ketma-ketligi, shuningdek, ularning muddatini toʻxtatish va uzaytirishni nazorat qilish imkoniyati.

Ushbu chora-tadbirlar dasturiga ko‘ra, 2019-yil iyul – 2020-yil dekabr oylari oralig‘ida “Sud ekspertizalari hisobi tizimi” axborot tizimini ishlab chiqish va tegishli huquqni muhofaza etuvchi organlar bilan integratsiya qilish belgilangan.

Axborot tizimini ishlab chiqish bo‘yicha “Texnik topshiriq” ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu “Texnik topshiriq”qa O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasining Texnik ko‘maklashish markazi DUK va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi tomonidan ijobiy xulosa olingan.

Bugungi kunda elektron hujjatlar aylanish axborot tizimini ishlab chiqish jarayoni yakunlanib, Markazda to‘liq ishga tushirildi. Tizim quyidagi modullardan iborat:

– administrator moduli;
– kadrlar hisobini yuritish moduli;
– kadrlar hisobi bo‘yicha hisobotlar moduli;
– tadqiqot fayllarini tizimda ro‘yxatdan o‘tkazish moduli;
– tadqiqot fayllari harakati moduli;
– tadqiqot fayliga ijrochi tayinlash moduli;
– ekspertiza fayli tayinlash moduli;
– ekspertiza xulosasini shakllantirish moduli;
– ekspertiza xulosasini rahbariyat bilan kelishish moduli;
– hisobotlar moduli va boshqalar axborot tizimining asosiy vazifasi quyidagilar hisoblanadi:
– RSEMda ekspertizalar hisobini yuritishning samarali va aniq boshqaruv mexanizmini joriy qilish;
– sud ekspertizasi hisobini yuritishni avtomatlashtirish;
– sud ekspertizasini ijro qismida nazoratni kuchaytirish;
– axborot-tahlil faoliyatini samarasini rivojlantirish
– sud ekspertizasini o‘tkazishda tizimli tahlil va rejalashtirishni tashkillashtirish;
– hisobot shakllantirish jarayonini muqobillashtirish;
– xodimlar hisobini yuritish;
– RSEM devonxonasi faoliyatini sud ekspertizasi hisobi qismida avtomatlashtirish;
– sud ekspertizasi harakati hisobini yuritish;
– ekspertlar faoliyatini sud ekspertizasi hisobini yuritish qismida avtomatlashtirish;
– avtomatik tarzda sud ekspertizalari bo‘yicha statistik va tasdiqlangan hisobot shakllarini shakllantirish.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PQ–4125-son Qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ning 19-bandiga ko‘ra Markaz rasmiy veb-sayti (sudex.uz) yangidan ishlab chiqildi.

Mazkur veb-sayt Markaz faoliyatiga daxldor axborot va yangiliklarni maqola, xabar va tahliliy materiallar shaklida yoritib borish, e'lonlar va boshqa ma'lumotlarni ochiqlik tamoyili asosida ommaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to'g'risi"da 206-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda bugungi murakkab pandemiya sharoitidan kelib chiqib "Elektron ta'lim platformasi" axborot tizimi ishlab chiqildi.

Mazkur tizim quyidagi modullardan tashkil topgan:

– tinglovchilarni ro'yxatdan o'tkazish moduli;
– tinglovchilarni aktivatsiya hamda deaktivatsiya qilish moduli;
– tinglovchilarni davomatini nazorat qilish moduli;
– tinglovchilarni kursni o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilish moduli;
– tinglovchilarni tashkilotlari bo'yicha saralash moduli;
– testlar moduli;
– video ma'ruzalar moduli;
– taqdimotlar moduli;
– sertifikatlar moduli.

Axborot makonida ma'lumotlar ko'payib borgani sari kerakli ma'lum bir kichik yo'nalishga mo'ljallangan ma'lumotlarni izlab topish, ulardan foydalanish shunchalik qiyinlashib boraveradi. Ushbu muammoning yechimi sifatida axborot portallaridan keng foydalaniladi.

Axborot portali – bu ma'lum bir mavzu bo'yicha batafsil ma'lumot beradigan katta internet-resurs. Axborot portali oddiy tematik saytdan farqli o'laroq, foydalanuvchilar bilan aloqa qilish, tematik pochta jo'natmalari, qidirish uchun vositalarni o'z ichiga oladi, shuningdek, tashrif buyuruvchilarga bir-biri bilan, masalan, forumda yoki suhbatda muloqot qilish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2021-yil 11-fevraldagi "Adliya vaziri tomonidan Yuridik ta'lim va sud-ekspertiza faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasining 2020-yil yakuni bo'yicha hisoboti natijalari yuzasidan belgilangan topshiriqlarni 2021-yilda amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi"ning 20-bandiga ko'ra "Sud ekspertlik sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy qilish, shu jumladan, aholiga sud-ekspertlik faoliyatiga doir ma'lumotlarni yetkazishga qaratilgan sud-ekspertiza axborot portalini yaratish" belgilab o'tilgan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida "sudexpert.uz" – axborot portali ishlab chiqildi. Ushbu axborot portal quyidagi asosiy modullardan iborat:

– markaz tarixi haqida ma'lumot;
– murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari;
– markaz va uning viloyat bo'limlaridagi laboratoriya va bo'limlari haqida ma'lumot;
– sud-ekspertiza sohasida akkreditatsiya;

– o‘tkaziladigan tadqiqot turlari haqida ma’lumot;
– markazga ishga qabul qilish tartibi;
– sud ekspertlarining malakasini oshirish o‘quv markazi haqida ma’lumot;
– nodavlat sud-ekspertiza tashkilotini tashkil etish tartibi;
– nodavlat sud eksperti bo‘lish uchun qo‘yiladigan talablar;
– nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladigan tadqiqot turlari ro‘yxati;
– ekspertiza tadqiqotini o‘tkazish uchun to‘lov narxlari haqida ma’lumot va “sudexpert.uz” – axborot portali yaratilishi natijasida quyidagi natijalarga erishiladi:
– aholiga sud-ekspertlik faoliyatiga doir ma’lumotlar qulay shaklda yetkaziladi;
– ma’lumotlar guruhlangan holda sodda foydalanuvchi interfeysida joylashtiriladi;
– markaz tarixi, Markazda o‘tkaziladigan sud ekspertizasi va tadqiqot turlari to‘g‘risida ma’lumotlar, davlat va nodavlat sud eksperti bo‘lish uchun qo‘yiladigan talablar, tadqiqot o‘tkazish muddatlari va boshqa ko‘plab foydali axborotlardan tashkil topadi.

Bugungi kunda axborot tizimlari bilan bir qatorda tezkor xabar almashish vositasi messenjerlar ommalashib bormoqda. Yurtimizda ushbu messenjerlarning eng mashhuri telegram bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi ham o‘zining telegram tarmog‘idagi rasmiy boti “@sudexuz_bot” va kanaliga (t.me/sudexuz) ega.

Bundan tashqari, Markaz pulli xizmat uchun to‘lovlarni naqdsiz ko‘rinishda qabul qilish uchun “payme” elektron pul o‘tkazmalari tizimiga ulangan.

Sud-ekspertiza sohasidagi eng muhim va oxirgi qadamlaridan biri bu “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF–6256-son, 05.07.2021-y.) qabul qilinganligi bo‘ldi.

Farmon bilan O‘zbekistonda sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi hamda konsepsiya bo‘yicha 2021–2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Farmonga ko‘ra, 2022-yil 1-martdan aholiga va vakolatli organlarga sud-ekspertlik faoliyatiga doir ma’lumotlarni yetkazish va axborot hamkorligining barcha turlarini ta’minlash uchun mo‘ljallangan “E-ekspertiza” yagona elektron axborot tizimi ishga tushiriladi.

Shu bilan birga, sud ekspertizasi sohasiga rivojlangan axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish sohasida:

– sud ekspertizasi sohasiga rivojlangan axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi hamda sohada zamonaviy axborot texnologiyalarining keng qo‘llanilishi bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiriladi;

– sud-ekspertiza muassasalarida avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari va kompyuter dasturlari, elektron ma'lumotlar bazalarini joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi;

– davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida axborot xavfsizligi, tizim va manbalarni himoyalash bo'yicha "Axborot xavfsizligi siyosati" tizimini ishlab chiqish hamda sud-ekspertiza faoliyatiga tatbiq etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi hamda uning bajarilganligini tizimli ravishda o'rganib boriladi;

– sud-ekspertiza muassasalari va tashkilotlarini jihozlashga doir minimal talablarni tizimli ravishda o'rganib boriladi va uni yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi;

– davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida axborotlashtirish sohasida davlat siyosatini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, rivojlantirish, ma'lumotlarni saqlash va ularga ishlov berish, avtomatlashtirish masalasida maxsus dasturlar majmuini ishlab chiqish va ularni sud-ekspertiza faoliyatlariga tatbiq etish bo'yicha taklif va ko'rsatmalar beriladi;

– sud ekspertlari va ekspertiza to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish, aholiga va vakolatli organlarga sud-ekspertlik faoliyatiga doir ma'lumotlarni yetkazish, ekspertiza harakatlarini amalga oshirishga aloqador tashkilotlar bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan "E-ekspertiza" yagona elektron axborot tizimi ishlashi va undagi ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilanib boriladi;

– "E-ekspertiza" yagona elektron axborot tizimi samarali, tizimli va uzluksiz ishlashi uchun tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlik o'rnatiladi;

– davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga axborot-kommunikasiya texnologiyalari va innovatsion ishlanmalarni tatbiq etish borasida tegishli vazirlik va idoralar bilan o'zaro hamkorlik amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati ekspert hal qilinadigan muammolari sonining kengayishi va murakkabligi bilan bog'liq. Hozirda ekspertiza amaliyotida qo'llanilayotgan texnologiyalarni kengaytirish va mukammallashtirish va, shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni sud-ekspertizasi ehtiyojlariga moslashtirish kerak. Bu sohani yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ekspert muassasalarining umumiy ixtisoslashtirilgan axborot-kommunikatsiya tarmog'ini yaratish yo'li bilan foydalanilayotgan axborot tizimlarini integratsiyalash, internet tarmog'idagi jinoiy ko'rinishlarga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan yangi ekspertiza usullarini ishlab chiqish, eng so'nggi texnologiyalardan foydalanishdan iborat bo'lib, raqamli texnologiyalar, shu jumladan, sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish kerak.

Каримова Дилрабо Эргашевна
ИИВ Академияси, юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент

РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА СУДГА ҚАДАР ИШ ЮРИТИШ ОРГАНЛАРИНИНГ ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ

Karimova Dilrabo Ergashevna
The Academy of the Ministry of Internal Affairs, PhD in law, associate professor

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF INTERACTION OF THE BODIES OF PRE-JUDICIAL PROCEEDINGS IN THE FIGHT AGAINST CRIME IN CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION

Каримова Дилрабо Эргашевна
Академия МВД, доктор философии (PhD) по юридическим наукам, доцент

СОЦИАЛЬНАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНОВ ДОСУДЕБНОГО ПРОИЗВОДСТВА В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация: *Муаллиф томонидан ушбу мақолада жамиятнинг рақамли ривожланиш даврида судга қадар иш юритиш органларининг ўзаро ҳамкорлигининг аҳамияти ёритилган. Соҳада мавжуд айрим муаммолар назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Ечими зарур бўлган масалалар қўйилган, уларни бартараф этиш ҳамда соҳани янада такомиллаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар келтирилган. Жиноятларни очиш ва тергов қилиш жараёнида маълумотларни тўплаш, қайд этиш ва тадқиқ қилишда ахборот-коммуникация технологиялар имкониятларини фаол татбиқ этиш зарурати алоҳида белгилаб ўтилган.*

Калит сўзлар: *ўзаро ҳамкорлик, судга қадар иш юритиш органлари, терговчи, рақамли трансформация, жиноятчиликка қарши кураш, "электрон ўзаро ҳамкорлик".*

Abstract: *The article reveals the importance of the interaction of pre-trial proceedings in the fight against crime in the context of the development of digitalization. Some existing problems in the sphere of organization of this interaction are scientifically analyzed. The tasks necessary for solving are set and proposals, recommendations for their elimination and increase in efficiency in this direction are given. Particularly noted is the need for active implementation of the capabilities of modern information and communication technologies in collecting, fixing and researching data in the detection and investigation of crimes.*

Key words: *interaction, pre-trial proceedings, investigator, digital transformation, fight against crime, "electronic interaction".*

Аннотация: *в статье раскрывается значение взаимодействия органов досудебного производства в деятельности по борьбе с преступностью в условиях развития цифровизации общества. Проводится научный анализ некоторых имеющихся проблем в сфере организации данного взаимодействия. Ставятся необходимые для разрешения задачи и даются предложения, рекомендации по их устранению и повышению эффективности в данном направлении. Особо отмечается необходимость активного внедрения возможностей современных информационно-коммуникационных технологий по собиранию, фиксации и исследованию данных в раскрытии и расследовании преступлений.*

Ключевые слова: *взаимодействие, органы досудебного производства, следователь, цифровая трансформация, борьба с преступностью, «электронное взаимодействие».*

Основным драйвером технологической революции практически во всех отраслях социальной сферы выступает перевод проектирования технологических систем, контроля их состояния и управления ими из аналоговой в цифровую форму, а также формирование цифровых платформ, интегрирующих данные, разработка программных приложений для обработки этих данных [1].

В период активной цифровизации общества и государства весьма актуальными являются вопросы обеспечения информационной безопасности государства. Как утверждает Шавкат Мирзиёев, «перед современным обществом стоит важная задача по освоению цифровых знаний и информационных технологий» [2].

За последнее время в деятельности органов досудебного производства существенное развитие получила криминалистическая идентификация личности по видеоизображениям. В качестве объектов криминалистической экспертизы стали выступать изображения, полученные с камер видеонаблюдения улиц, магазинов, банкоматов и прочих. Данные современные фиксаторы могут быть использованы как при раскрытии и расследования преступлений, так и при их предупреждении и профилактике.

Объективно, на наш взгляд, отмечает Г.А. Снетков о том, что использование видеозаписи позволяет достичь большей полноты, всесторонности и объективности при расследовании преступлений в рамках проведения отдельных оперативно-разыскных мероприятий и следственных действий, связанных с установлением личности преступника по признакам внешнего облика [3. С. 17].

Именно, в вышеприведенном случае значимость организации взаимодействия внутриведомственных подразделений актуальна как никогда. Поскольку, основным направлением цифровой трансформации в уголовном процессе должна стать комплексная оптимизация выполнения функций всеми участниками процесса для обеспечения электронного взаимодействия между ними, внедрение в цифровой среде современных механизмов и технологий противодействия преступности.

Однако, на сегодняшний день всё еще преобладает тенденция «бумажной» модели ведения досудебного производства, в частности и в организации взаимодействия между участниками данной стадии уголовного процесса.

Данное положение прослеживается также и в России. Так, некоторые российские ученые отмечают, что «современное досудебное производство основывается на письменном документообороте. При этом ведущую роль играет следователь: он составляет процессуальные документы, которые содержат доказательственную информацию о предмете доказывания; формирует полный пакет уголовного дела – от принятия заявления о преступлении до составления обвинительного заключения. Уголовное дело представляет собой как бы полностью «законченную книгу» от начала и до конца, с выводами о виновности обвиняемого, хотя и предварительными. Содержанием этой книги является описание в протоколах следственных действий доказательственной информации, которая раскрывает механизм преступления».

Правы П.С. Пастухов и М. Лосавио, утверждающие о том, что «в эпоху цифровой трансформации правоохранительным органам следует искать новые информационно-технологические способы правоприменительной деятельности, оптимизировать потенциальные возможности правоотношений в свете цифровых преобразований. Под воздействием постоянной трансформации необходимо находить баланс между законным и обоснованным принуждением личности и обеспечением необходимых гарантий участникам уголовного процесса прав на этапе предварительного расследования» [4. С. 231–236].

Справедливы также мнения О.А. Зайцева и П.С. Пастухова о том, что «если проводить параллели между цифровизацией общества и действующей технологией уголовно-процессуальной деятельности, то становится понятно, что невозможно осуществить цифровую трансформацию в условиях бесконечного потока бумажных документов, в отдельных кабинетах, создавая дублирующие друг друга информационные системы, которые будут ограничены «стенами» ведомств. Должна меняться организация получения криминалистически значимой информации в электронном виде для принятия промежуточных решений. Приоритетом должны стать обретение цифровых навыков и знаний сотрудниками правоохранительных органов и действительное понимание возможностей, которые дают технологии. Такой подход связывает приоритет цифровой

трансформации органов предварительного расследования и научную организацию труда, новые информационные и цифровые компетенции сотрудников органов предварительного расследования» [5. С. 17].

Безусловно, развитие цифрового пространства обуславливает увеличение объемов обмена информацией и прозрачность деятельности органов государства, которые вносят существенный вклад в дальнейшее развитие современного общества. Значимым на данном этапе является определение социальной необходимости организации взаимодействия органов досудебного производства, в частности следственных, оперативно-розыскных и экспертно-криминалистических подразделений.

Если, переложить понятие организации взаимодействия применительно к особенностям деятельности органов досудебного производства в условиях цифровизации общества и государства, то под данным взаимодействием в рамках действующей правовой системы следует понимать слаженную, согласованную по месту и времени, с использованием инновационных информационных систем деятельность дознавателя, следователя и иных органов досудебного производства, направленную на эффективную борьбу с преступностью.

В криминалистике же под взаимодействием обычно понимается совместная деятельность следственных и оперативно-розыскных подразделений при расследовании преступлений. Совокупность же приемов и способов такого взаимодействия составляет один из важных элементов тактического и методического арсенала расследования преступлений [6].

Стоит осознать неизбежность перехода в эпоху современной цифровизации общества «от бумаги к электронным данным». Это подразумевает переход от бумажного документооборота к цифровому обороту данных. Что, в свою очередь позволит открывать интерфейсы межкомпьютерного, или же, «электронного» взаимодействия с предоставлением органам досудебного производства искать, получать, собирать, фиксировать данные, имеющие значение для расследуемого дела.

Наиболее значительные законодательные изменения и практические шаги в плане взаимодействия, сокращения сроков по получению электронных доказательств и оптимизации правоохранительной деятельности в борьбе с транснациональной компьютерной преступностью были сделаны в юрисдикции Европейского Союза. С 17 апреля 2018 года Европейский парламент утвердил новый Регламент [7], который адаптирует механизмы сотрудничества к эпохе цифровых технологий, предоставляет правоохранительным и судебным органам инструменты, позволяющие реагировать на современные способы общения преступников и противостоять современным формам преступности. Это также ускоряет процесс защиты и получения электронных доказательств, которые хранятся поставщиками услуг, учрежденными в другой юрисдикции. Регламент вводит обязательные

европейские ордера на предоставление (European Production Order) и сохранение электронных данных (European Preservation Order). Оба ордера должны быть изданы или утверждены судебным органом государства-члена только в том случае, если аналогичная мера доступна для того же уголовного преступления в сопоставимой внутренней ситуации в государстве выдачи.

Оба ордера, могут быть, вручены поставщикам услуг электронной связи, социальным сетям, онлайн-рынкам, другим поставщикам услуг хостинга и поставщикам инфраструктуры Интернета, таким как реестры IP-адресов и доменных имен или их законным представителям, где они существуют.

Оба европейских ордера адресуются законному представителю за пределами юрисдикции государства-члена выдачи для сохранения данных с учетом последующего запроса на получение. Европейский ордер о сохранении является приказом, изданным или утвержденным судебным органом в рамках конкретной уголовной процедуры после индивидуальной оценки соразмерности и необходимости в каждом конкретном случае.

В случае выдачи ордера в одной стране поставщик услуг или его законный представитель в другом государстве-члене обязаны дать ответ в течение 10 дней и в течение 6 часов в экстренных случаях (по сравнению с 120 днями для действующего европейского приказа о расследовании или в среднем 10 месяцев для взаимного юридического разрешения). Вывод в части формирования новой стратегии заключается в необходимости электронного взаимодействия органов предварительного расследования не только с органами, осуществляющими доследственную проверку или оперативно-розыскную деятельность, но и с негосударственными представителями информационно-технологических систем, аналогичными государственными органами, зарубежными субъектами поставщиков услуг, является залогом быстрого оперативного получения доказательственной информации, формирования на ее основе доказательств [8].

Исходя, из вышеизложенного, необходимым выступает усовершенствование элемента организации взаимодействия органов досудебного производства с использованием инновационных информационных систем; порядка проведения следственных и иных процессуальных действий путем использования режима видеоконференцсвязи; возможностей обеспечения прозрачности результатов следственных и иных процессуальных действий; широкое внедрение применения информационных систем.

Поскольку, на современном этапе решение задач борьбы с преступностью с организацией эффективного взаимодействия досудебных органов возможно лишь путем применения последних достижений естественных наук, а также новейших информационно-коммуникационных технологий.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЕ ССЫЛКИ:

1. Manufacturing: The Third Industrial Revolution // The Economist. 2012. Apr 21st. (https://www.economist.com/leaders/2012/04/21/the-third-industrial-revolution). – Дата обращения: 18.01.2022.

2. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису от 20.02.2020 г. [Электронный ресурс] – Режим доступа: https://uza.uz/ru/ posts/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020 – Дата обращения: 20.12.2021.

3. Снетков В.А. Габитоскопия. – Волгоград, 1999. – С. 189.

4. Пастухов П.С., Лосавио М. Использование информационных технологий для обеспечения безопасности личности, общества и государства // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2017. Вып. 36. – С. 231–236.

5. Зайцев О.А., Пастухов П.С. Формирование новой стратегии расследования преступлений в эпоху цифровой трансформации // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2019. Вып. 46. – С. 75.

6. Кулеева И. Ю., Мазунин Я.М. Правовое регулирование и криминалистическое обеспечение расследования нераскрытых преступлений прошлых лет. – М., 2013. – С. 192.

7. Proposal for a Regulation of the European Parliament and of the Council on European Production and Preservation Orders for electronic evidence in criminal matters. Strasbourg 17.04.2018. URL:https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ TXT / DOC (дата обращения: 12.01.2022).

8. Зайцев О. А., Пастухов П. С. Формирование новой стратегии расследования преступлений в эпоху цифровой трансформации // Вестник Пермского университета. Юридические науки. 2019. Вып. 46. – С. 75. DOI: 10.17072/1995-4190-2019-46-752-777. // https://cyberleninka.ru/article (дата обращения 19.01.2022г.).

ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
HUQUQIY SIYOSAT TADQIQOT INSTITUTI

RESEARCH INSTITUTE OF LEGAL POLICY
UNDER THE MINISTRY OF JUSTICE

REGIONAL DIALOGUE

II-BO‘LIM

RAQAMLI IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL MULK

DIGITAL ECONOMY AND INTELLECTUAL PROPERTY

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ

Канязов Есемурат Султамуратович
Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги директори ўринбосари, ю.ф.н.

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК СОҲАСИДА РАҚАМЛАШТИРИШ

Kanyazov Esemurat Sultamuratovich
Deputy Director of the Agency on Intellectual Property under the Ministry of Justice, Ph.D.

DIGITALIZATION IN THE FIELD OF INTELLECTUAL PROPERTY

Каньязов Есемурат Султамуратович
Заместитель директора Агентства интеллектуальной собственности при Министерстве юстиции, к.ю.н.

ЦИФРОВИЗАЦИЯ В ОБЛАСТИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Ассалому алайкум, хонимлар ва жаноблар, ҳурматли тадбир қатнашчилари!

Барчамизга маълумки, сўнгги йилларда бутун дунёда ҳар бир соҳа ва тармоқни рақамлаштириш бўйича салмоқли ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Бу борадаги ишлар нечоғлик тўғри ва ўз вақтида амалга оширилаётганлигини 2020 йилда жаҳонда авж олган коронавирус пандемияси ва у билан боғлиқ чекловлар кўрсатиб турибди.

Сўнгги икки йилда ахборот технологияларидан фойдаланиш кўрсаткичлари олдинги йилларга қараганда бир неча баробарга ортди. Бу, айниқса, хизматлар кўрсатиш соҳасида сезиларли даражада кузатилди.

Хорижий давлатлар сингари Ўзбекистонда ҳам соҳаларни **рақамлаштириш**, замонавий ахборот-коммуникация воситаларидан фойдаланган ҳолда соҳалардаги **тартиб-таомилларни соддалаштиришга** алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ–6079-сон Фармонига мувофиқ **"Рақамли Ўзбекистон – 2030" стратегиясини** амалга оширишга киришилди.

Мазкур стратегия доирасида давлат органлари ва ташкилотлари фаолиятини имкон қадар **тўлиқ рақамлаштиришга алоҳида урғу берилди.**

Шунга кўра, республикамизда интеллектуал мулк соҳасига илғор ахборот технологияларини кенг қўллаш орқали интеллектуал мулк объектларини **давлат рўйхатидан ўтказиш**, интеллектуал мулк объектларига бўлган **ҳуқуқларни ҳимоя қилиш**, соҳада кузатилаётган

конун бузилишлар ва **контрафакт маҳсулотлар** тўғрисида кенг жамоатчиликни **хабардор қилиш**нинг янги усуллари амалиётга татбиқ этилмоқда.

I. Интеллектуал мулк соҳасидаги давлат ахборот тизимлари

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги томонидан интеллектуал мулк соҳасини **барча учун фойдаланишга қулай соҳага айлантириш мақсадида** бир қатор ахборот тизимлари ишлаб чиқилиб, амалиётга жорий қилинди.

1) Саноат мулки муҳофазаси портали

Интеллектуал мулк объектларини давлат рўйхатидан ўтказиш учун бериладиган талабномаларни **электрон тақдим этиш** ва **қабул қилиш** имкониятини яратувчи **“Саноат мулки муҳофазаси портали”** ишлаб чиқилди ва фойдаланишга киритилди.

Портал интеллектуал мулк объектларини давлат рўйхатидан ўтказиш билан боғлиқ **комплекс давлат хизматларидан фойдаланиш** имконини беради.

Мазкур Портал орқали **ҳар қандай талабнома берувчи** ўзининг давлат рўйхатидан ўтказиш талаб қилинадиган объектларини рўйхатдан ўтказиш учун **электрон ҳукуматнинг ягона идентификация тизимидан (OneID)** фойдаланган ҳолда талабномани **электрон шаклда 24/7 реал вақт режимида тўлдириши** ва **тасдиқлаши**, топширилган талабномалар бўйича амалга оширилаётган жараёнлар ва тартиб-таомиллар ҳамда уларнинг якунлари тўғрисидаги **маълумотларни** ўз шахсий кабинетига кирган ҳолда олиши мумкин.

Шу билан бирга, талабнома берувчилар уларнинг талабномаларини давлат экспертизаси жараёнида уларга юборилган **сўровларга жавоб йўллаши** ҳамда давлат экспертизаси натижасига кўра талабномада ифодаланган объект давлат **рўйхатидан ўтказилганда**, бу тўғрисидаги **муҳофаза ҳужжатини** *(патент ёки гувоҳнома)* **электрон юклаб олишлари мумкин.**

Шунингдек, бошқа кўпчилик давлат органлари ва ташкилотларидан фарқли равишда мазкур портал **Ягона интерактив давлат хизматлари портали (my.gov.uz) тизимига уланган** бўлиб, у орқали топширилган талабномалар **ҳам автоматик равишда қабул қилинади**.

2) Патент платформаси

Давлат рўйхатидан ўтказилган интеллектуал мулк объектлари тўғрисидаги батафсил маълумотларни ўзида акс эттирувчи **“Патент платформаси”** ишлаб чиқилган.

Мазкур платформа ундан фойдаланувчиларга қуйидаги имкониятларни тақдим этади:

– ҳар қандай жисмоний ва юридик шахслар, шу жумладан, олий таълим ва илмий тадқиқот ташкилотлари ҳамда ишлаб чиқарувчилар республикада рўйхатдан ўтказилган интеллектуал мулк объектлари тўғрисидаги **маълумотларни электрон равишда бепул олиши** мумкин;

– интеллектуал мулк объектлари **ҳуқуқ эгалари тўғрисидаги**, шу жумладан, улар билан **боғланиш учун керакли маълумотларни** (манзили, телефон рақамлари ва бошқа) олиши мумкин;

– интеллектуал мулк объектлари ҳуқуқ эгалари ва ишлаб чиқарувчилар ҳамда уларнинг объектларидан фойдаланишни истаган бошқа шахслар ўртасида тегишли шартномалар расмийлаштириш учун **мулоқот майдони яратилишига кўмаклашади**.

Мазкур платформанинг яна бир муҳим аҳамияти интеллектуал мулк объектларини давлат рўйхатидан ўтказиш мақсадида Агентликка топширилган **барча талабномалар тўғрисидаги маълумотлар** унга **мунтазам киритиб борилишидадир**.

Ушбу тартиб талабномалар бўйича давлат экспертизасини ўтказишда **шаффофликни таъминлаш** ва топширилган талабномалар бўйича бошқа шахслар томонидан **ёзма фикр ва эътироз билдириш имкониятини яратади.** Бу эса, ўз навбатида, интеллектуал мулк объектларини **ноҳалол рўйхатдан ўтказилишининг** (**брендрейдинг**) олдини олишда ўзининг **ижобий самарасини кўрсатади**.

Шу билан бирга, топширилган талабномалар бўйича маълумотларнинг жойлаштириб борилиши бошқа талабнома топширувларга уларнинг талабномаларида ифодаланган белгиларни, объектларни учинчи шахсларнинг интеллектуал мулк объектлари билан **солиштириш**, ўзаро **ўхшаш ва фарқли жиҳатларини** аниқлашга ҳам кўмаклашади.

Ҳозирги кунда “Патент платформаси”га **100 минга яқин** интеллектуал мулк объектлари тўғрисидаги **маълумотлар киритилган.**

3) “IP-Protection” ахборот портали

Интеллектуал мулк объектларига бўлган **ҳуқуқлар бузилган ҳолда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар**, уларни **ишлаб чиқарувчилар**, уларга нисбатан қўлланилган **ҳуқуқий таъсир чоралари** тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олувчи **“IP-Protection” ахборот портали** ишлаб чиқилиб, ишга туширилган.

Мазкур портал контрафакт маҳсулотлар тўғрисида **фуқароларнинг хабардорлигини ошириш** ҳамда бундай маҳсулотларни **ишлаб чиқарувчиларни сергакликка ва қонунга риоя қилишга чақириш** вазифасини бажаради.

Шунингдек, порталда контрафакт маҳсулотлар ҳақида хабар бериш учун **махсус алоқа канали** ҳам мавжуд бўлиб, у орқали фуқаролар ўзлари **контрафакт деб гумон қилган маҳсулотлар** тўғрисида маълумот бериши мумкин.

Шу билан бирга, мазкур ахборот порталига Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти, Давлат солиқ, божхона ва Монополияга қарши курашиш қўмиталари, Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат бўйича давлат инспекцияси уланган бўлиб, улар ҳам мазкур ахборот порталига маълумотлар киритиши ҳамда ундаги маълумотлардан фойдаланиши мумкин.

Мазкур давлат органлари Агентлик билан биргаликда интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқларни ҳуқуқий ҳимоя қилишда иштирок этишади. Шу боис **“IP-Protection” ахборот портали** уларни фаолиятида тегишли **маълумотларни тўплаш** учун **ортиқча вақт сарфлашдек муаммодан халос қилади.**

4) Фаол муаллиф маълумотлар реестри

Интеллектуал мулк объектлари сирасига **муаллифлик ҳуқуқи** ва **турдош ҳуқуқлар** ҳам киради.

Муаллифлик ҳуқуқининг юзага келиши ва амалга оширилиши учун асарни **рўйхатдан ўтказиш** ёки бирон-бир бошқа **расмиятчиликка риоя этиш талаб қилинмайди** ҳамда давлат томонидан ҳимоя қилинади.

Шунга кўра, Агентлик томонидан муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар бўйича мулкий ҳуқуқларни ҳимоя қилишга кўмаклашувчи **“Фаол муаллиф” маълумотлар реестри** яратилган.

Мазкур реестрда республикада **сақлашга (депонентлашга) топширилган муаллифлик ҳуқуқи объектлари ва турдош ҳуқуқлар** тўғрисидаги маълумотлар ва мулкий ҳуқуқларни жамоавий асосда бошқарувчи **ташкилотлар ҳақидаги** маълумотлар киритилиши белгиланган.

Исталган шахс мазкур реестрга кириш орқали сақлашга топширилган муаллифлик объектлари, уларнинг муаллифлари ёки бошқа ҳуқуқ эгалари ҳақидаги маълумотни **бепул асосда** олиши мумкин.

Бу муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлардан қонунчиликка мувофиқ фойдаланишга, хусусан, муаллифлар ва бошқа ҳуқуқ эгалари билан шартномалар тузишда қимматли манба бўлиб хизмат қилади.

II. Интеллектуал мулк соҳасини рақамлаштириш бўйича амалга оширилаётган бошқа ислоҳотлар

Интеллектуал мулк объектларини давлат рўйхатидан ўтказиш бўйича профессионал юридик ёрдам кўрсатувчи патент вакиллари бўлиш учун **патент вакиллигига номзод** ва амалдаги **патент вакиллари аттестацияси** билан боғлиқ жараёнларни ҳам **тўлиқ рақамлаштиришга** Агентлик томонидан алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Жумладан, патент вакиллигига номзод ва патент вакиллари томонидан аттестациядан ўтиш бўйича **аризаларни электрон равишда қабул қилиш** ва уларни рўйхатдан ўтказиш бўйича **гувоҳномаларни электрон QR-код воситасида тасдиқланган** ҳолда тақдим қилиш тартиблари жорий қилинмоқда.

Мазкур ўзгаришлар Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарори билан тасдиқланиши белгиланаётган патент вакиллигига номзод ва патент вакилларини аттестациядан ўтказишга доир давлат хизматларини кўрсатиш бўйича **маъмурий регламент лойиҳасида** назарда тутилмоқда.

Шу билан бирга, Агентлик томонидан интеллектуал мулк объектларини давлат рўйхатидан ўтказиш бўйича давлат хизматларини кўрсатишни **халқаро шартномалар талаблари доирасида** имкон қадар **рақамлаштириш бўйича** ҳам ишлар амалга оширилмоқда.

Хусусан, ҳозирда Агентлик томонидан товар белгиси (хизмат кўрсатиш белгиси), электрон ҳисоблаш машиналари учун дастурлар ва маълумотлар базалари ҳамда ихтироларни давлат рўйхатидан ўтказиш учун **талабнома тузиш, топшириш** ва **кўриб чиқиш бўйича маъмурий регламентларни** тасдиқлаш юзасидан Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳалари Ҳукуматга киритилган.

Мазкур регламентларда талабномаларни **давлат ахборот тизимлари орқали электрон топшириш**, талабномалар бўйича амалга оширилаётган **жараёнларни** талабнома берувчининг **шахсий кабинети орқали кузатиб бориш**, муҳофаза ҳужжатларини **электрон юклаб олиш** каби янги тартиблар назарда тутилмоқда.

III. Интеллектуал мулк соҳасини рақамлаштиришда мавжуд муаммолар ва уларнинг ечимлари

Интеллектуал мулк соҳасини рақамлаштириш бўйича бир қатор ишлар амалга оширилаётган бўлса-да, бу жараёнда ҳали ҳамон бир қатор муаммолар ўз ечимини топгани йўқ.

1) Контрафакт маҳсулотларга қарши курашиш жараёнларига **илғор ахборот технологиялар жалб қилинмаган**;

*(республика миқёсида **аниқланаётган контрафакт маҳсулотларнинг**, шу жумладан, **дори воситалари ва тиббий техникаларнинг** барчаси стандартлаштириш ва сертификатлаштириш органлари томонидан белгиланган тартибда сертификатлаштирилиб, мувофиқлик белгилари берилмоқда. Бироқ бу жараёнларда маҳсулотларнинг **қадоқлари, ўрамлари** ва **этикеткаларида** қўлланилаётган **интеллектуал мулк объектлари қонунчиликка мувофиқ қўлланилганлиги** масаласи **ўрганилмасдан қолмоқда**. Шу боис маҳсулотларни, шу жумладан, дори воситалари ва тиббий техникаларни стандартлаштириш ва сертификатлаштириш билан шуғулланувчи органларни Агентликнинг **"Саноат мулки муҳофазаси портали"га улаш** мақсадга мувофиқ).*

2) Давлат божхона чегараси орқали олиб кирилаётган контрафакт маҳсулотларни эркин муомалага чиқарилишининг олдини олиш жараёнларида **ортиқча бюрократия билан боғлиқ тартиб-таомиллардан воз кечилмаган**;

*(божхона чегараси орқали интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқлар бузилганлиги аломатлари мавжуд бўлган маҳсулотларни **эркин муомалага чиқаришни тўхтатиб туриш учун ариза билан мурожаат қилишда** давлат божхона органларига тақдим қилиниши лозим бўлган **маълумот ва ҳужжатлар сони жуда кўп**ни ташкил қилади.*

*Бироқ одатда тақдим этилиши лозим бўлган маълумотлар ва ҳужжатлар **ҳуқуқ эгаларида умуман мавжуд бўлмайди**. Шу боис ўз интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш*

*мақсадида мурожаат қилинганда тақдим этилиши лозим бўлган **маълумотлар ва ҳужжатларни** давлат божхона органлари томонидан **махсус давлат ахборот тизимларидан олиш тартибини** амалиётга татбиқ этилиши тўғри бўлар эди).*

3) Интеллектуал мулк объекти тўғрисидаги маълумотларни “Интеллектуал мулк объектлари божхона реестри”га киритиш жараёнлари **рақамлаштирилмаган**;

*(интеллектуал мулк объекти ҳуқуқ эгаси томонидан интеллектуал мулк объектларини божхона чегараси орқали ҳимоя қилиш мақсадида ўз интеллектуал мулк объекти тўғрисидаги маълумотларни “Интеллектуал мулк объектлари божхона реестри”га киритиш учун **ёзма ариза билан мурожаат қилиши** ва унинг объекти **реестрга киритилиши ёки киритилмаслиги тўғрисидаги қарорни олишни 10 кун кутишига** тўғри келмоқда.*

*Шу боис интеллектуал мулк объекти тўғрисидаги маълумотларни “Интеллектуал мулк объектлари божхона реестри”га киритиш учун аризани **электрон юбориш** ва **ариза бўйича тегишли қарорни электрон юклаб олиш** тартибини киритиш лозим).*

4) интеллектуал мулк соҳасидаги қонунчилик талабларини бузган шахслар тўғрисидаги маълумотларни олиш жараёнларида **электрон идоралараро ҳамкорлик йўлга қўйилмаган.**

*(контрафакт маҳсулотлар ишлаб чиқариш, интернетда ва ижтимоий тармоқларда ўзгаларининг интеллектуал мулк объектларидан **қонунга хилоф равишда фойдаланаётган шахслар тўғрисидаги маълумотларни олишда** соҳа бўйича ҳуқуқий ҳимоя билан шуғулланувчи давлат органлари фаолиятида айрим муаммолар юзага келмоқда.*

*Шу боис тегишли давлат органларининг **махсус давлат ахборот тизими орқали берилган сўровлари** асосида Ички ишлар вазирлиги ва Ахборот технологиялари ва телекоммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги томонидан **ҳуқуқбузарлар шахсига доир маълумотларни махсус ҳимояланган тарзда электрон тақдим этиши** йўлга қўйилиши жоиз ҳисобланади).*

5) мулкий ҳуқуқларни жамоавий асосда бошқарувчи ташкилотлар фаолиятида **самарадорлик сезилмаяпти** ва улар ҳам ўз фаолиятини **рақамлаштиришга лозим даражада эътибор қаратишмаяпти;**

*(ҳозирги кунда республикада **6 та мулкий ҳуқуқларни жамоавий асосда бошқарувчи ташкилотлар** рўйхатдан ўтган бўлсада, амалда **атиги 3 та**си фаолият олиб бормоқда.*

*Шунингдек, бундай нодавлат нотижорат ташкилотларида уларга аъзо бўлган **муаллиф ва бошқа ҳуқуқ эгалари тўғрисида маълумотлар ягона реестр шаклида юритилмайди**. Шу сабабли муаллифлар ва бошқа ҳуқуқ эгаларининг муаллифлик ҳуқуқи объектлари ва турдош ҳуқуқларидан фойдаланувчи **ресторанлар, кафелар, умумий овқатланиш***

шахобчалари кимга ва қандай йўсинда гонорар тўлашни билишмайди. *Бу эса муаллифларни ва ижрочиларни* ***моддий манфаатдорлик кўрмаслигига сабаб бўлмоқда.***

Шу боис мулкий ҳуқуқларни жамоавий асосда бошқарувчи ташкилотларга аъзо бўлган муаллифлар ва бошқа ҳуқуқ эгалари ва уларнинг асарлари ҳамда ижролари тўғрисидаги ***маълумотларни тўплаш*** *ва* ***уларни "Фаол муаллиф" маълумотлар реестрига киритиш*** *мақсад қилинмоқда).*

IV. Интеллектуал мулк соҳасини рақамлаштириш бўйича истиқболдаги режалар

Агентлик томонидан интеллектуал мулк соҳасини рақамлаштириш жараёнини **янада жонлантириш** учун қуйидаги бир қатор **истиқболли режалар**ни амалга оширишни **мақсад қилган:**

1) Бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилоти билан ҳамкорликда **"WIPO Alert"** махсус ҳимояланган онлайн платформага маълумот киритишни йўлга қўйиш;

"WIPO Alert" махсус ҳимояланган онлайн платформасининг асосий вазифаси интернет тармоғида ***муаллифлик ҳуқуқлари бузилишига йўл қўйган веб-сайтлар*** *тўғрисидаги маълумотларни* ***жамлаш*** *ва БИМТга аъзо давлатлар* ***ваколатли органлари*** *ҳамда* ***интернет реклама билан шуғулланувчиларга*** *бундай веб-сайтлар тўғрисида* ***ахборот олиш имкониятини яратиш*** *ҳисобланади.*

Мазкур тизимдан фойдаланиш орқали республикамиздаги тадбиркорлик субъектлари, шу жумладан, реклама агентликлари ўз рекламаларини бундай ***қонун бузилишларни содир қилган веб-сайтларга жойлаштириш*** *каби* ***хавфдан халос бўлишади****.*

2) "IP4Everyone" *(Интеллектуал мулк барча учун)* **махсус интернет-аукцион савдо платформаси**ни ишлаб чиқиш ва ишга тушириш;

Ушбу платформа интеллектуал мулк объектларидан барча томонидан фойдаланилишига ёрдам берувчи ***онлайн савдо майдони*** *саналади. Мазкур платформа орқали жисмоний ва юридик шахслар ўз интеллектуал мулк объектларини* ***эркин савдога таклиф қилиш*** *ҳамда бошқаларнинг интеллектуал мулк объектларини* ***сотиб олиш****лари ёки* ***лицензия шартномаси асосида фойдаланиш****га олишлари мумкин.*

3) "Муаллифлик ва турдош ҳуқуқлар соҳасидаги қонун бузилишлар реестри" ахборот тизимини ишлаб чиқиш ва ишга тушириш;

Мазкур ахборот тизимига интеллектуал мулк ***соҳасидаги қонунчиликни бузган веб-сайтлар*** *тўғрисидаги маълумот* ***киритилади*** *ҳамда веб-сайтлар ушбу* ***қонунбузилишлар бартараф этилмагунига қадар*** *белгиланган тартибда* ***блокланади****.*

4) "IP-Protection" ахборот портали такомиллаштирилиб, унда интеллектуал мулк объектларининг ҳуқуқий ҳимоясини таъминлаш бўйича шуғулланувчи **давлат органлари ўртасида маълумот алмашинуви йўлга қўйилади**;

*Ҳозирги кунда қадар ваколатли органлар ўртасида маълумотларни **электрон равишда** алмашишга хизмат қилувчи **алоҳида тизим мавжуд эмас**. “IP-Protection” ахборот порталида **алоҳида бўлимнинг ташкил этилиши** ва у орқали маълумотларни **электрон тўлдирган холда юбориш** ва **қабул қилиб олиш** имконияти яратилиши бу борадаги ишларни **ортиқча бюрократиядан халос қилиш**га хизмат қилади.*

5) “Advice for business” *(Бизнесга кўмак)* **махсус платформаси**да интеллектуал мулк объектларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва улардан қонуний фойдаланиш тўғрисидаги батафсил маълумотлар жойлаштирилади;

*“Advice for business” (Бизнесга кўмак) тадбиркорлик субъектларини **давлат рўйхатидан ўтказишга кўмаклашувчи** махсус платформа бўлиб, у орқали фуқаролар юридик шахсларни **давлатлар рўйхатидан ўтказиш тартиби**, **муддатлари** ва **тўловлар** тўғрисида маълумот олишлари мумкин.*

Jurabayev Bekzod Latifjon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi. Oliy Majlisi huzuridagi Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti bosh ilmiy xodimi

ELEKTRON TIJORATNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING SAMARALI MEXANIZMLARINI JORIY ETISH O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGINING ASOSIY VAZIFALARIDAN BIRI SIFATIDA

Jurabaev Bekzod Latifjon ugli
Tashkent State University of law, Indepentdent researcher. Institute of Problems of Legislation and Parliamentary Studies under the Oliy Majlis, Chief Scientific Officer

INTRODUCTION OF EFFECTIVE MECHANISMS OF LEGAL REGULATION OF E-COMMERCE AS ONE OF THE MAIN FUNCTIONS OF THE MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Журабаев Бекзод Латифжон угли
Самостоятельный соискатель Ташкентского государственного юридического университета. Главный научный сотрудник Институтапроблем законодательства и парламентских исследований при Олий Мажлисе Республики Узбекистан

ВНЕДРЕНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕХАНИЗМОВ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ КАК ОДНА ИЗ ОСНОВНЫХ ФУНКЦИЙ МИНИСТЕРСТВА ЮСТИЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: *Статья, посвящена анализу совершенствования правовых основ деятельности Министерства юстиции Республики Узбекистан. В частности, автором была проанализирована задача Министерства юстиции по внедрению эффективных механизмов правового регулирования электронной коммерции. Также были раскрыты некоторые аспекты пользования системой эскроу в сфере электронной коммерции.*

Ключевые слова: *электронная коммерция, Министерство юстиции, договорные отношения, система эскроу.*

Как известно, Указ Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2018 года №УП-5415 «О мерах по коренному совершенствованию деятельности органов и учреждений юстиции в реализации государственной правовой политики» и Постановление Президента Республики Узбекистан от 13 апреля 2018 года №ПП-3666

«Об организационных мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Министерства юстиции Республики Узбекистан» заложили прочный правовой фундамент для дальнейшего развития и совершенствования деятельности органов юстиции в нашей стране.

Кроме того, в целях дальнейшего совершенствования деятельности органов и учреждений юстиции по качественной организации единой государственной правовой политики, в том числе нормотворческой деятельности, формированию последовательной и единообразной правоприменительной практики, обеспечению эффективности системы государственного управления, повышению правовой культуры населения, оказанию квалифицированной юридической помощи гражданам, а также в целях широкого внедрения цифровых технологий в сферу 19 мая 2020 года был принят Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5997 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности органов и учреждений юстиции в реализации государственной правовой политики».

В соответствии, с Указом Президента Республики Узбекистан №5997 Министерство юстиции наделено новыми функциями в сфере внедрения и развития эффективных гражданско-правовых механизмов защиты прав и законных интересов физических и юридических лиц. Так, в частности Положение о Министерстве юстиции Республики Узбекистан, утвержденное Постановлением Президента Республики Узбекистан №ПП-3666, дополнено нормой, в соответствии с которой на Министерство юстиции возложена задача по принятию практических мер по внедрению эффективных механизмов правового регулирования электронной коммерции.

В целях дальнейшего совершенствования гражданско-правовых отношений, отмены установленных искусственных ограничений при заключении отдельных договоров, а также создания необходимых условий для использования информационных систем в договорных отношениях 14 сентября 2021 года был принят Указ Президента Республики Узбекистан №УП-6313 «О мерах по коренному совершенствованию договорных отношений». Важно отметить, что данный нормативно-правовой документ послужил основой для изменения или даже отмены завышенных требований и ограничений в законодательстве о договорных отношениях. В частности, Указом Президента Республики Узбекистан № УП-6313 был предусмотрен ряд изменений по внедрению эффективных механизмов правового регулирования электронной коммерции.

Так, во-первых, права победителя электронного аукциона были дополнительно защищены. То есть был введен принцип направления задолженности не на собственность, а на собственника. На практике по результатам электронного аукциона на основании исполнительных документов у победителей возникнут проблемы с оформлением собственности на свое имя. Например, граждане, выигравшие объект

(здание, транспорт и т.д.). По окончании продажи, в процессе оформления права собственности, обнаруживают, что объект находится в залоге в коммерческом банке, или обнаруживаются другие запреты. В результате может пострадать гражданин. Решение этой проблемы было найдено в передовых зарубежных странах. В частности, в Испании, Германии и других странах реализуемый на аукционе объект будет выставлен на аукцион, когда он будет освобожден от всех долгов и запретов. Коммунальные, налоговые и другие виды долгов регистрируются на имя должника-гражданина, а не в отношении имущества. В этом случае имущество передается новому владельцу без долгов [1].

Согласно Указу Президента Республики, Узбекистан № УП-6313 устанавливается порядок, в соответствии с которым начиная с 1 января 2022 года имущество, выставленное для реализации на электронный онлайн-аукцион при исполнении судебных актов и актов иных органов, передается победителю аукциона без задолженностей и со снятыми запретами, за счет денежных средств, поступивших от его реализации. В случае недостаточности денежных средств, поступивших от реализации имущества, обязательство по оплате задолженности остается за его прежним владельцем – должником.

Во-вторых, Указом Президента Республики Узбекистан № УП-6313 фермерским хозяйствам и заготовительным организациям рекомендовано заключать и регистрировать договоры контрактации в электронной форме посредством использования информационных систем.

В-третьих, Указом Президента Республики Узбекистан №УП-6313 было одобрено предложение Министерства юстиции, Министерства по развитию информационных технологий и коммуникаций, Центрального банка и Торгово-промышленной палаты о внедрении системы эскроу при осуществлении купли-продажи продукции через электронные торговые площадки в сфере электронной коммерции и заключении сделок в иных сферах.

Договор счёта эскроу широко распространён в зарубежной практике и появился там в начале XX века. В мире счёт эскроу используется в качестве расчётного инструмента наравне с аккредитивом, инкассо и банковской гарантией.

Договор счёта эскроу – трёхстороннее соглашение, по которому депонент обязуется передать денежные средства или имущество на депонирование эскроу-агенту, которым могут выступать специальные эскроу-компании или банки. Они в свою очередь обеспечивают сохранность предмета или суммы, указанных в соглашении, и после обязуются предоставить его бенефициару, когда будут исполнены основания, прописанные в договоре. Таким образом, договор позволяет минимизировать риски [2].

Термин «эскроу» изначально появился в США, что связано с развитием там института ипотеки и необходимостью разработки механизма защиты сторон [3]. Сделки через систему эскроу счетов стали практически обязательным элементом оформления правоотношений на американском рынке недвижимости. Продавец и покупатель объекта заключают договор счёта, на котором хранятся денежные средства депонента, до момента передачи документов на недвижимость, после чего сумма, находящаяся на эскроу, переводится продавцу.

Указом Президента Республики Узбекистан №УП-6313 на Министерство юстиции возложена задача совместно с Центральным банком в трехмесячный срок внести в Кабинет Министров проект нормативно-правового акта, устанавливающего правила пользования системой эскроу в сфере электронной коммерции.

Тут возникают вполне уместные вопросы. Каковы особенности применения системы эскроу в сфере электронной коммерции? На что следует обратить внимание при установлении правил пользования системой эскроу в сфере электронной коммерции?

Особенность эскроу-отношений заключается в том, что это многоуровневые и осложненные правоотношения, так как они возникают на основании другого существующего правоотношения между кредитором и должником. По мнению А. Елисеенко, договор эскроу может применяться в случаях, связанных с необходимостью дополнительных мер предостарожности при заключении (исполнении) договора (например, банками при ипотечном кредитовании) [4].

На первый взгляд может показаться, что по своей природе система эскроу очень похожа или даже тождественна с договором банковского счета. Однако в юридической литературе чётко различаются эти два понятия.

Во-первых, денежные средства на эскроу-счете блокируются, что исключает дальнейшие операции с ними. Снять части этих средств невозможно до наступления оговоренного в договоре условия или события.

Во-вторых, право на банковскую тайну предоставляется и лицо, открывающему счет (депонент), и выгодополучателю.

В-третьих, трехсторонняя конструкция договора исключает возможность одностороннего расторжения договора с банком со стороны депонента. Эти и другие правовые аспекты системы эскроу наглядно показывают их сложность по своему строению и содержанию. Исходя из этого, можем заключить, что вопрос необходимости урегулирования правила пользования системой эскроу в отдельном нормативно-правовом акте был поставлен в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-6313 очень правильно и своевременно.

Говоря о рынке электронной коммерции, важно отметить, что при переводе денежных средств из одной страны в другую нередко могут наблюдаться технические проблемы. В этой связи, исполнение обязательства через договор эскроу предусматривает возможность возврата средств депоненту без риска их утери.

В эпоху цифровых технологий и информатизации общества очень важно правовое регулирование и обеспечение безопасности сделок в области интеллектуальных прав. Эскроу-агенты, помимо полного исполнения договора, обеспечивают также невозможность утечки информации (которая обладает рядом известных специфических характеристик), являющейся его предметом (например, компьютерный код) [5]. Таким образом, применение системы эскроу в сфере электронной коммерции послужит гарантией обеспечения добросовестного поведения контрагентов, сведя к минимуму риски при заключении и исполнении договоров.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЕ ССЫЛКИ:

1. Каримов А. Изменения в договорных отношениях: какие ограничения были отменены, что было введено, что это нам даст? (Источник: Официальный сайт Министерства юстиции Республики Узбекистан https://minjust.uz/ru/press-center/news/102611/).

2. Князева И.В. Развитие практики применения счетов-эскроу в сферах интернет-торговли и туризма // Финансовые рынки и банки. 2018. – №4.

Ҳозирги кунда Ташқи ишлар вазирлиги учун ходимлар ва элчилар тайёрлайдиган Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университетида 3 та факультет ва 13 та кафедра, Тошкент давлат шарқшунослик университетида 7 та факультет 25 та кафедра, Москва давлат халқаро муносабатлар институти Тошкент филиалида 3 та йўналиш бўлишига қарамасдан Рақамли дипломатия кафедраси ёки фани мавжуд эмас.

Мисол учун, АҚШ ва Буюк Британияда халқаро муносабатлар бўйича 400 дан ортиқ факультет мавжуд. Лондондаги Вестминстер университети халқаро коммуникация масалалари бўйича энг етакчи ҳисобланади. Москва давлат халқаро муносабатлар институтида эса 2 курс 1 семестрдан рақамли дипломатия фани ўқитилади. Бундан ташқари, Ташқи ишлар вазирликлари ва университетлар ҳузурида дипломатик академиялар ташкил этилган. Жумладан, Лондон дипломатик академияси, Вена дипломатик академияси ва Россия ташқи ишлар вазирлиги ҳузуридаги дипломатик академиялар шулар жумласидан.

Ўзбекистондаги рақамли дипломатиянинг бугунги ҳолати ҳамда АҚШ сингари бир қатор хорижий давлатлар тажрибасини ўрганиш мамлакатимизда рақамли дипломатияни янада такомиллаштириш бўйича қуйидаги таклифларни билдиришга имкон беради:

– Ташқи ишлар вазирлиги тизимида рақамли дипломатияни олиб бориш ва улар фаолиятини мувофиқлаштирувчи ***алоҳида бўлим ташкил этиш*** мақсадга мувофиқдир. Жумладан, АҚШ Давлат Департаментида 2003 йилда ташкил этилган *Электрон дипломатия бўлими (Office of Ediplomacy)* бўлиб, рақамли дипломатия фаолиятини мувофиқлаштиради, ривожлантириш бўйича маслаҳатлар кўрсатади ва янги инновацияларни жорий этиш билан шуғулланади. Мазкур бўлимнинг *TechCamps* лойиҳаси Интернет орқали дипломатияни такомиллаштириш бўйича турли семинар ва конференцияларни ташкил этиш ва ўтказиш учун яратилган. Лойиҳада дипломатлар, олимлар ва хорижий давлатлардан оддий интернет фойдаланувчилари иштирок этади. Бундан ташқари АҚШ Давлат Департаментида яна 24 та бўлим (уларда 150 дан ортиқ киши фаолият юритади) айнан рақамли дипломатия билан шуғулланади;

– Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги ва Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан ҳамкорликда хориждаги консуллик муассасаларининг фаолиятида ***замонавий ахборот-коммуникация технологияларни*** кенг жорий этиш ҳамда ***рақамли хизмат кўрсатиш*** турларини кўпайтириш бугунги замон талабларидан биридир. Мисол учун, консуллик бошқармаси ҳамда хориждаги консуллик муассасалари томонидан жисмоний шахсларга 13 турдаги, юридик шахсларга эса 4 турдаги хизматлар кўрсатилади. Дунёнинг турли ҳудудларида вақтинча яшаётган (меҳнат қилаётган)

фуқароларимиз сони йилдан-йилга ошиб бораётганига қарамай бундай ҳудудларнинг барчасида ҳам дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасаларини ташкил этиш имконияти мавжуд эмас. Масалан, Россия Федерациясининг деярли барча минтақаларида мамлакатимиз фуқаролари меҳнат қилишига қарамасдан бу давлат ҳудудда Ўзбекистоннинг 6 та консуллик муассасаси фаолият юритади. Мазкур вазиятдан келиб чиққан ҳолда ортиқча иқтисодий харажатлар талаб этмайдиган ***рақамли дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасаларини*** ташкил этиш, хориждаги фуқароларга кўрсатиладиган электрон хизматлар улушини кўпайтириш чора-тадбирларини кўриш мақсадга мувофиқдир. Масалан, бугунги кунда Эстония ўзининг рақамли дипломатик ваколатхонасини Люксембург, АҚШ Эрон, Исроил Форс кўрфази давлатлари учун ташкил этган;

– рақамли дипломатиянинг асосий вазифаларидан бири мамлакат ***ижобий имиджини*** шакллантириш, ***туризмни ривожлантириш*** ва ***хорижий инвестицияларни*** жалб этишга хизмат қилиши лозим. Мисол учун, АҚШда қабул қилинган *“дипломатия ва ривожланиш бўйича тўрт йиллик режа”*сида: 1) мамлакатнинг айни пайтда амалга ошираётган сиёсатини тушунтириш ва тарқатиш бўйича тегишли лойиҳалар ишлаб чиқиш; 2) ташқи ва ички ижобий сиёсат бўйича хорижий оммавий ахборот манбаларига тарқатиш; 3) хорижий аудиторияларга ахборот бериш ва таъсир кўрсатиш учун минтақавий медиа-марказларни кенгайтириш каби вазифалар белгиланган;

– Ташқи ишлар вазирлиги, хорижий дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасаларининг ўзаро ахборот алмашинуви тезкорлиги ва хавфсизлигини таъминлайдиган ***махсус ички дастурларни жорий этиш*** зарур. Жумладан, АҚШ Давлат Департаментида қўйидаги дастурлар айнан шу вазифаларни бажаришга қаратилган. *Corridor* қидирув дастури (2011 йилда ташкил этилган) Давлат Департаменти ходимлари ўртасида фикр алмашиш ва ахборот қидириш имкониятини беради. *Diplodepia тармоғи* (2006 йилда ташкил этилган) Давлат Департаментининг ички электрон энциклопедияси бўлиб, ушбу тизимга фақат Давлат Департаменти, Миллий хавфсизлик агентлиги (National Security Agency) ва Марказий разведка бошқармаси (Central Intelligence Agency) ходимлари кириш ҳуқуқига эгадир;

– Ташқи ишлар вазирлиги, дипломатик ваколатхоналар ва консуллик муассасалари ходимлари учун рақамли дипломатия бўйича ***махсус малака ошириш курслари*** ташкил этилиши керак. Бундан ташқари Ташқи ишлар вазирлиги учун асосий кадрлар тайёрлайдиган маҳаллий олий таълим муассасалари Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, Тошкент давлат шарқшунослик университети ва Тошкентдаги Москва давлат халқаро муносабатлар институти филиалида ***рақамли дипломатия кафедраси ва ўқув фанларини*** жорий этиш самарали натижа беради.

O'ktayeva Yulduz
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

RAQAMLI O'ZBEKISTON – RAQAMLI KELAJAK

Uktayeva Yulduz
Student of the University of world economy and diplomacy.

DIGITAL UZBEKISTAN – DIGITAL FUTURE

Уктаева Юлдуз
Студент Университета мировой экономики и дипломатии

ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН – ЦИФРОВОЕ БУДУЩЕЕ

Kalit so'zlar: *elektron hukumat, e-sud, e-ekspertiza, identifikatsiya, forensics, genom baza, Raqamli O'zbekiston, elektron platforma.*

Barcha davrlarda davlat yangiliklar yaratish, ilm-fanga homiylik qilish ortidan rivojlanishga yetgan. Bugungi texnologiyalar rivojlangan asrda yashar ekanmiz, davlat boshqaruvida ham raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda, shunday ekan, ushbu sohani yanada jadallashtirish davlat siyosatini bir qismiga aylanib ulgurgan deyish mumkin. Xususan, hukumatni raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. "Elektron hukumat" loyihasi esa shunday ishlardan biriga misoldir. Ushbu loyihalar nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida ham kun mavzusi bo'lib kelmoqda. Misol uchun, Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti "Regional Dialogue" xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti vakolatxonasi bilan hamkorlikda 14-dekabr kuni xorijiy va mahalliy ekspertlar ishtirokida o'tkazilgan "Adliya sohasida raqamlashtirishni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyada hukumatni elektronlashtirishda yangi loyihalar, shuningdek, ularning afzal taraflari muhokama qilindi.

Raqamlashtirish siyosati haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo, raqamlashtirish fuqarolarga istalgan joyda, istalgan vaqtda hamda istalgan qurilmada davlat xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarga vaqtni va xarajatlarni tejashda, ortiqcha ovoragarchilikni keltirib chiqarmaslikka xizmat qiladi.

Raqamlashtirish siyosati ancha ilgari rejalashtirilgan bo'lsa-da, harakatlar sust borayotgan bir vaqtda, butun dunyoda pandemiya keng tarqalishi ushbu siyosat jadal rivojlanishga turtki bo'ldi. Xususan, barcha qatori davlat xizmati ham onlayn ish faoliyatiga o'tdi, shu sababdan davlat xizmatlarni ko'rsatuvchi platformalar ishga tushirila boshladi. Bundan tashqari, ko'plab Yevropa

davlatlarida sud jarayonlari optimallashtirildi. Shu qatori, O‘zbekistonda ham e-sud platformasi ishga tushib, bu orqali fuqarolarga sudga onlayn murojaat qilish imkoniyati yaratildi.

Raqamlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan loyihalardan eng yirigi sifatida “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini e’tirof etish mumkin. Ushbu dastur orqali 2030-yilga qadar ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa barcha sohalarni elektronlashtirish loyihalari qamrab olingan. Xususan, 2022-yil 1-kvartaliga qadar barcha turdagi to‘lovlar yagona billing tizimi orqali qamrab olinishi, buni nazorat qilishni ham yengilashtiradi deyish mumkin.

Shuningdek, dasturning e’tiborli jihati Elektron hukumat tizimining ma’lumotlarni saqlash va qayta ishlash yagona markazining ishga tushirilishi elektron hukumatning markazlashuvi va faoliyat va davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasi qamrovining kengayishiga xizmat qiladi. Ushbu dasturda attestatsiyalash hamda identifikatsiyalashni ham yo‘lga qo‘yish masalalari keltirib o‘tilgan bo‘lib, buning bir qismi o‘laroq 2021-yil 1-yanvardan boshlab, identifikatsiyalashning yangi tizimi joriy qilib, fuqarolarga shaxsni tasdiqlovchi hujjat sifatida pasport o‘rniga ID kartalari berila boshladi. Bu esa albatta fuqarolarning ma’lumotlarini raqamlashtirishda ancha qulayliklar yaratgan, xususan, fuqarolarning soliq ma’lumotlari ham ID kartalar orqali aniqlanish yo‘lga qo‘yilgan. Bu esa ortiqcha ovoragarchilikni kamaytiradi. Bundan tashqari, attestatsiyalarni, diplomni va ma’lumotni tasdiqlovchi hujjatlarni elektronlashtirish loyihasi ham ilgari surilgan bo‘lib, bunda fuqaro bir vaqtning o‘zida an’anaviy ma’lumot hujjatiga hamda uning elektron shakliga ham ega bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Albatta, bu loyihalarni amalga oshirishda ko‘plab rivojlangan davlatlarning tajribalarini o‘rganib, ular bilan hamkorlikda ishlar olib boriladi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, inson huquqlari asosiy o‘ringa qo‘yilgan bir davrda sud-huquq sohasini ham elektronlashtirish, albatta, bu sohaning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan asosiy tadbirlardan biri hisoblanadi. Xususan, sud-huquq tizimida sud ekspertizani elektronlashtirish uchun qaratilgan e-ekspert loyihasini aytish mumkin. Unda Sulaymonova nomidagi sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada kengaytirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy sayti hisoblangan www.minjust.uz saytida sud eksperti sifatida kasbiy layoqati sertifikatiga ega shaxslarning ro‘yxatini shakllantirish orqali ekspertlarning shaxsini aniqlash imkoniyatini yaratilmoqda. Malakali sud ekspertiza kadrlarini shakllantirish maqsadida Koreya, Isroil kabi davlatlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ekspertlarning malakasini oshirish maqsadida yuborilishi ham ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, 2020-yildan boshlab Respublika genom bazasini shakllantirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu orqali shaxslarning nohaq ayblanishining oldini olish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bilan birga, murakkab masalalarni hal qilishda, shuningdek, bedarak yo‘qolgan yoxud vafot etgan shaxslarga oid ma’lumotlarni aniqlashda imkoniyatlar kengayadi.

Yana bir ahamiyatga molik masalaga to‘xtaladigan bo‘lsak, sud va huquq sohasida raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish imkoniyatiga ega malakali kadrlarni shakllantirish masalasi ham mavjud bo‘lib, buning yechimi o‘laroq, yurist kadrlar uchun Forensics Akademiyasi xalqaro ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan maxsus www.lawandforensics.com sayti orqali raqamli sud ekspertlari, huquqshunoslar, sudyalar, texnologlar, texnik ekspertlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, professorlarni birlashtirib, advokatlarga raqamli sud ekspertizasi va texnik ekspertlarga qonun buzilishlariga oid darslar o‘tilishi aytib o‘tilgan.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va optimallashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlash bugungi zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Shu sababdan ko‘plab davlat o‘rtasida bu borada kelishuvlar, hamkorliklar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, raqamlashtirishni rivojlantirish jarayonida olib borilayotgan samarali ishlarni jadallashtirishda muhim turtki bo‘lib xizmat qiladi. Albatta, raqamlashtirish siyosatida bugun va ertaning asosiy mavzusi bo‘lib qoladi. Texnologiya davrida yashar ekanmiz, faqat birgina texnologiyalar bilan to‘xtab qolmasdan, ularning yangi qirralarini kashf etish va uni davlatning ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy sohalarning ustuvor talabi bo‘lib qoladi. Bu esa, albatta, kelajak uchun ham texnologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
HUQUQIY SIYOSAT TADQIQOT INSTITUTI

RESEARCH INSTITUTE OF LEGAL POLICY
UNDER THE MINISTRY OF JUSTICE

REGIONAL DIALOGUE

III-BO‘LIM

AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH VA KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISH MASALALARI

ISSUES OF ENSURING INFORMATION SECURITY AND COUNTERING CYBERCRIME

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ

Raxmonova Surayyo Maxmudovna
Sudyalar Oliy Kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining jinoyat huquqi kafedrasi mudiri, yu.f.d., professor

SUD-HUQUQ SOHASIDA RAQAMLASHTIRISHNING AHVOLI VA ISTIQBOLLARI

Rakhmonova Surayyo Maxmudovna
Head of the Department of Criminal Law of the High school of judges with the supreme judicial council of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, professor

THE STATE AND PROSPECTS OF DIGITALIZATION IN THE JUDICIAL AND LEGAL SPHERE

Рахмонова Сурайе Махмудовна
Заведующая кафедрой уголовного права Высшей школы судей при Высшем судейском совете, д.ю.н., профессор

СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СУДЕБНО-ПРАВОВОЙ СФЕРЕ

Сегодня, в Республике Узбекистан, реализуются комплексные меры по активному развитию цифровой экономики, а также широкому внедрению современных информационно-коммуникационных технологий в абсолютно всех отраслях государственного управления, социальной сфере, а также в сфере частного сектора.

Так, в рамках стратегии **«Цифровой Узбекистан – 2030»** (утвержденной Указом Президента РУз 5 октября 2020 года № УП-6079) с 1 января 2022 года обозначен запуск проекта «Цифровое ведомство», который призван обеспечить:

– цифровизацию всех административных процедур и операционных процессов с организацией безбумажного электронного документооборота и делопроизводства;

– обеспечение открытости и прозрачности деятельности, гарантированности пользования государственными услугами в населенных пунктах;

– автоматизацию процессов межведомственного электронного взаимодействия;

– внедрение в других государственных органах и организациях практического опыта реализации проекта «Цифровое ведомство» исходя из специфики их деятельности.

В современных реалиях, одним из важнейших условий стабильности любого правопорядка является поддержание доверия общества к государству, и его институтам. В системной связи, с тем фактом, что для любого правового государства характерной особенностью является наличие действенных механизмов восстановления нарушенных прав и предотвращения их нарушения. Доверие общества к судебным и правоохранительным органам является категорически важным, ведь именно эти институты по характеру своей деятельности наиболее часто фактически выступают гарантами прав и свобод человека.

В свете этого, необходимо отметить важную координационную роль органов прокуратуры, как главного субъекта в обеспечении механизмов исполнения законности в государстве.

Цифровизация деятельности органов прокуратуры — это важная составляющая в обеспечении эффективности прокурорского надзора за исполнением законов.

Так, на сегодняшний день функционирует **Единый портал отчетности Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан.** Дата запуска этого цифрового проекта: февраль 2018 года. В рамках данного проекта цифровизирована 81 отчетная форма органов прокуратуры. Портал предназначен для создания единого виртуального пространства сдачи электронной отчетности правоохранительными органами. Система автоматизирует процесс составления отчетных форм правоохранительных органов и обеспечивает контроль за исполнительной дисциплиной.

Основанием, для разработки **информационной системы «Электронное уголовное дело»** является, постановление Президента Республики Узбекистан от 14 мая 2018 года № ПП-3723 **«О мерах по кардинальному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства»**.

В чем заключаются цели создания ИС «Электронное уголовное дело»:

1) полный перевод процесса ведения прокурорского контроля за ходом ведения уголовного дела в электронный вид;

2) обеспечение электронного взаимодействия между всеми участниками уголовного дела;

3) предоставление удаленного доступа к материалам следствия адвокату обвиняемого;

4) обеспечение ввода результатов экспертизы в электронный вид;

5) формирование полного перечня форм процессуальных документов и форм экспертных заключений.

Таким образом, участниками пилотного проекта «Электронное уголовное дело» в Яккасарайском и Мирабадском районах города Ташкента являются:

1. Генеральная прокуратура Республики Узбекистан;
2. Департамент по борьбе с экономическими преступлениями при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан;
3. Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республике Узбекистан;
4. Верховный суд Республики Узбекистан;
5. Министерство внутренних дел Республики Узбекистан;
6. Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан.

Информационная безопасность системы «Электронное уголовное дело» обеспечивает:

– контроль и управление;
– идентификацию и аутентификацию;
– целостность данных;
– журналирование;
– защиту данных;
– защиту от несанкционированного доступа;
– конфиденциальность;
– шифрование.

Аппаратно-технические средства, используемые в ИС «Электронное уголовное дело»:

– панель цифровой подписи;
– сканер отпечатка пальцев;
– WEB камера;
– сканер паспорта и ID card;
– NFC-считыватель *(«коммуникация ближнего поля», «ближняя бесконтактная связь») – технология беспроводной передачи данных, малого радиуса действия, которая даёт возможность обмена данными между устройствами, находящимися на близком расстоянии*).

ИС «Электронное уголовное дело» охватывает все этапы уголовного процесса с момента поступления сообщения о происшествии до вынесения приговора:

1) регистрация – *сообщение о происшествии и правонарушении;*

2) доследственная проверка – *истребование объяснений, задержание лиц, осмотр места происшествия, экспертиза;*

3) предварительное следствие/дознание – *осуществление следственных действий, мер процессуального принуждения;*

4) судебное разбирательство – *осуществление судебного следствия;*

5) приговор – *постановление приговора судом.*

Преимущества системы «Электронное уголовное дело»:

1) Прозрачность уголовного процесса;
2) Минимизация рисков фальсификации;
3) Доступ к уголовному делу в режиме online;
4) Актуальная правовая статистика;
5) Исключение утери уголовных дел;

6) Электронное взаимодействие с базами данных государственных органов;

7) Экономия процессуального времени;

8) Системный ведомственный контроль и прокурорский надзор.

Процедура ведения электронного уголовного дела:

1) следователь:

– готовит процессуальные документы в электронном виде, подписывает и направляет их надзирающему прокурору;

– возбуждает прекращает уголовные дела, отказывает в его возбуждении;

– запрашивает и получает персональные данные участников уголовного процесса путём электронного взаимодействия;

– автоматически получает уведомления о наступлении процессуальных сроков;

– использует специальное оборудование в работе.

2) прокурор:

– контролирует действия следователей, даёт поручения и комментарии к их действиям;

– готовит процессуальные документы в электронном виде, подписывает и направляет их судье;

– возбуждает, прекращает уголовные дела, отказывает в их возбуждении;

– запрашивает и получает персональные данные участников уголовного процесса путём электронного взаимодействия;

– автоматически получает уведомления о наступлении процессуальных сроков;

– использует специальное оборудование в работе.

3) судья:

– в электронном виде получает ходатайства от прокурора;

– в электронном виде направляет определение суда прокурору;

– готовит процессуальные документы в электронном виде и подписывает их;

– запрашивает и получает персональные данные участников уголовного процесса путём электронного взаимодействия;

– автоматически получает уведомления о наступлении процессуальных сроков;

– использует специальное оборудование в работе.

Электронное правосудие и цифровая экономика – новая экономическая реальность в современном мире. Сегодня одной из концептуальных задач обеспечения **транспарентности и открытости правосудия** является скорейшее внедрение в судебную систему современных информационно-коммуникационных технологий, позволяющих сформировать инновационный подход к их развитию, а также улучшить качество и сроки осуществления правосудия.

Именно, ввиду этого, важно отметить, что **Узбекистан занял 94 место из 126 стран по верховенству закона, поднявшись на две позиции в 2019 году, заняв 92 место из 128 стран, поднявшись на четыре позиции в 2020 году.** Примечательно, что в случае Узбекистана, в отличие от множества других стран, индекс показал положительную тенденцию, обусловленную усилиями страны по улучшению общей ситуации с верховенством закона.

Интегрированная цифровизация в сфере судебной деятельности в первую очередь направлена на искоренение излишней волокиты при обращении в суд, что в последующем станет основным **фактором доверия народа и обеспечения верховенства закона.** Введение электронного оборота документов служит сокращению затрат, времени и усилий, что положительно скажется на эффективности судебной системы в целом и сведет к минимуму излишнюю судебную волокиту.

Для удовлетворения возрастающей потребности общества в информации обо всех аспектах деятельности судебной системы, а также для обеспечения открытости, прозрачности, требуется дальнейшее развитие процесса цифровизации судебной системы, включение в единое информационное пространство всех судов республики. Сейчас в судах страны реализуется большая программа по развитию информационных технологий, направленная на обеспечение эффективного доступа граждан к институтам судебной власти. Несомненно, судебная система должна стать еще более открытой.

Первые значимые шаги по пути цифровизации судебной деятельности были сделаны еще 8 лет назад. В целях разработки и внедрения информационных систем и ресурсов, предоставления интерактивных услуг и внедрения электронного документооборота в судебной системе Верховным судом Республики Узбекистан и ПРООН в Узбекистане в 2013 году была разработана и запущена **Национальная информационная система электронного судопроизводства «E-SUD».**

E-SUD – информационная система, позволяющая физическим и юридическим лицам направить обращение в суды в электронном виде.

Следующий этап процесса цифровизации судебной деятельности обозначен принятой 20 сентября 2020 года Программой цифровизации деятельности судебной власти в 2020–2023 гг., в рамках которой основными **задачами последующей ступени** цифровизации деятельности органов судебной власти определены:

– **расширение видов интерактивных государственных услуг**, оказываемых гражданам и субъектам предпринимательства, **обеспечение наблюдения в режиме онлайн** за процессом рассмотрения каждого обращения, создание возможности свободного пользования интерактивными услугами в зданиях судов;

– **дальнейшее расширение электронного взаимного обмена информацией** с министерствами, ведомствами и другими организациями по обеспечению оперативного принятия информации, необходимой для отправления правосудия в судах;

– расширение возможности **дистанционного участия в судебном заседании, в том числе посредством мобильных устройств** и других форм электронного взаимодействия, а также **получения** сторонами по делу судебных решений **в режиме онлайн**;

Какие же новшества уже внедрены в рамках данной программы в судебную деятельность и что еще предстоит сделать?

– извещение всех участников о дате и месте судебного заседания **путем отправки СМС – сообщений на бесплатной основе** (*с 1 октября 2021 года*);

– **автоматическое распределение дел между судьями** в судах первой, апелляционной и кассационной инстанции (*действует с 1 июля 2021 года*);

– **предоставление судебных решений** сторонам по делу **в режиме онлайн**, по их просьбе – в письменной форме (*с 1 января 2021 года*);

– **фиксация судебных заседаний во всех судах посредством аудиозаписи** на основе ходатайства сторон по делу с согласия председательствующего, а также формирование протоколов судебных заседаний с использованием данной системы (*действует с 1 января 2021 года*);

– внедрено в судебную практику **мобильное приложение**, предоставляющее **возможность участия в судебных заседаниях в режиме видеоконференцсвязи**;

– также специальные комнаты учреждений исполнения наказания оснащены оборудованием, **предоставляющим находящимся там лицам возможность участия** в судебных заседаниях и на приемах руководства судов **в режиме видеоконференцсвязи**.

С 1 января 2022 года в деятельность судов также внедрен Комплекс информационных систем «Адолат», предоставляющий следующие возможности:

– предоставление органами государственной власти и управления, органами государственной власти на местах, органами хозяйственного управления и адвокатами исков, заявлений и жалоб исключительно в электронной форме;

– наблюдение должностными лицами за процессами рассмотрения исков, заявлений и жалоб в режиме онлайн;

– отправка участниками судебного заседания информации и документов в электронной форме;

– автоматическое формирование судебных документов с использованием информационной системы, внедряемой в деятельность судов.

Начиная с июля, 2022 года планируется оказание около **10 интерактивных услуг** с целью создания благоприятных условий для деятельности органов судебной власти, в том числе граждан и субъектов предпринимательства по достижению правосудия.

Таким образом, на сегодняшний день судебная система в Узбекистане перешла от физического слушания в судах к дистанционному слушанию – к оцифровке судебного разбирательства. Однако оцифровка судебных процедур в Узбекистане – это пока еще не полная цифровизация процесса, а система видеоконференцсвязи, введенная в судах.

Предстоит, внедрить сетевые слушания дел и веб-конференции, которью полностью отвечают требованиям оцифровки и потребностям тяжущихся сторон. В процессуальное законодательство страны, необходимо внести изменения, регулирующие процедуру проведения заседаний в режиме веб-конференции.

Международные эксперты отмечают, что цифровая практика судебного заседания получила положительные отзывы от пользователей и судов при нынешнем уровне технологического вмешательства в использование ИКТ в судебных разбирательствах.

Важно отметить, что поэтапная цифровизация судебной деятельности способствовала увеличению рейтинговых оценок Узбекистана, к примеру:

– «**Доступ к гражданскому правосудию**» повысился с **0,38** балла в 2016 году до **0,46** в 2020 году;

– «**Гражданское правосудие не подвержено необоснованным задержкам**», в котором Узбекистан считается одним из региональных лидеров со стабильным баллом выше **0,7**, в то время как средний балл по региону составляет около 0,5.

В целом цифровизация – это процесс, в котором функциональные правила, положения, реализация политики, рабочие процедуры, которые существуют на практике, переносятся на цифровую платформу.

И, для достижения оптимальной цифровизации прежде всего, необходимо укрепить и перенести на цифровую платформу не только, **действующие ресурсы**, а возможности – **среду, институциональную и индивидуальную**.

В заключение, нужно отметить, что озвученная выше информация касается цифровизации, лишь двух, важных сфер судебно-правовой системы – судебной власти и системы органов прокуратуры, и это лишь некоторые штрихи к общей картине масштабного процесса развития цифрового правового пространства всей страны, которая уверенно и верно движется по пути глобальной интеграции в мировое сообщество.

Xo'jayev Shoxjaxon Akmaljon o'g'li
Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk huquqi" kafedrasi mudiri, yu.f.f.d.

AQSHDA IJTIMOIY TARMOQLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Khujaev Shokhjakhon Akmaljon ugli
Head of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Ph.D.

FEATURES OF LEGAL REGULATION OF SOCIAL NETWORKS IN THE USA

Хужаев Шохжахон Акмаль угли
Заведующий кафедры «Право интеллектуальной собственности» Ташкентского государственного юридического университета, Ph.D.

ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В США

На сегодняшний день, социальные сети становятся очень важной и активной платформой для взаимодействия и ведения бизнеса. Коронавирус и пандемия, вызванная этим заболеванием, стали толчком для расширения масштаба использования социальных сетей для работы, продвижения работ и услуг.

По состоянию на октябрь 2021 года в мире насчитывается более 4,5 миллиарда пользователей социальных сетей [1]. Это более чем на 400 миллионов больше, чем было в это время в прошлом году, что соответствует росту в годовом исчислении почти на 10 %.

Только в это время, в прошлом году число пользователей социальных сетей превысило отметку в 4 миллиарда. Увеличение количества пользователей в социальных сетях вызывает необходимость правового регулирования отношений, которые возникают в этой сфере. Поэтому государства предпринимают меры по определению баланса интересов личности, общества и государства в социальных сетях. Одной из таких стран является США, где 82 % населения старше 12 лет активно пользуются социальными сетями [2].

Особенность правового регулирования социальных сетей и деятельности блогеров в США заключается в том, что руководящие нормы законодательства связаны с иными важными законами, регулирующими отношения в целом в сети Интернет, которые обычно применяются к физическим или юридическим лицам. Большинство законов, касающихся Интернета, принимаются

на федеральном уровне, поэтому обязательно следует упомянуть законодательство об Интернете в Соединенных Штатах [3].

Федеральное законодательство США регламентирует несколько важных моментов:

Во-первых, размещение информации в социальных сетях. Возникает закономерный вопрос о том, может ли платформа социальных сетей, такая как Twitter или Facebook, юридически запрещать или подвергать цензуре людей, не будет ли это нарушением первой поправки к Конституции США. Частный (негосударственный) сектор, такой как Twitter, Facebook, Instagram, Google, YouTube и т.д., как правило, не подпадает под действие первой поправки. 1-я поправка, как и большая часть Конституции США, применяется к правительству, а не к частным лицам или предприятиям. Таким образом, они могут запрещать или подвергать цензуре все или кого угодно, если это соответствует их собственной политике (условиям предоставления услуг и т.д.).

Однако, данное обстоятельство не позволяет этим компаниям злоупотреблять своими полномочиями. Правительство имеет право регулировать компании социальных сетей, чтобы ограничить их полномочия по цензуре речи;

Во-вторых, уважение прав и свобод иных субъектов. Как правило, в США запрещается использовать или распространять чужой контент без их разрешения. При этом «поделиться» чужим контентом под публикацией в Facebook или других социальных сетях, как правило, разрешается, так как в большинстве условий предоставления услуг в социальных сетях говорится, что, публикуя что-либо, пользователь предоставляет другим лицензию на то, чтобы поделиться этим. Однако размещение иной информации, не опубликованной в социальных сетях, без разрешения правообладателя не допускается. Аналогично запрещается повторное использование, адаптирование или использование чужого контента без их разрешения, если только это не считается «добросовестным использованием» [4].

Веб-сайт или платформа социальных сетей (например, Facebook), как правило, не несет юридическую ответственность за комментарии или публикации своих пользователей. Однако есть два конкретных исключения. Первое – платформы, которые знают о любом содействии сексуальной торговле детьми на своем сайте, могут быть привлечены к ответственности за это.

Второе исключение, относится к интеллектуальной собственности. В частности, в отношении нарушений пользователями интеллектуальной собственности, таких как авторское право или товарный знак, платформы и веб-сайты должны соответствовать процедурам удаления DMCA, в противном случае они могут быть привлечены к ответственности за нарушение интеллектуальной собственности.

Согласно новому исполнительному приказу от 28 мая 2020 года – если платформа ненадлежащим образом ограничивает контент, она будет считаться участвующей в редакционном поведении. Таким образом, он потеряет свою правовую защиту в соответствии со статьей 230. Однако эксперты-юристы считают, что этот приказ неконституционен, поскольку президент не имеет односторонних полномочий изменять закон, принятый Конгрессом.

В-третьих, четкое разграничение свободы слова и угрозы в социальных сетях. Является преступным использование социальных сетей для создания серьезной угрозы причинения вреда или посягательства на честь и достоинство другого человека.

Во многих штатах, наказание за это предусматривает до 5 лет лишения свободы. Но лицо, угрожающее, должно на самом деле представлять угрозу, а не просто «выражать свое мнение». В противном случае это может быть защищено судом как «свобода слова» согласно первой поправке к Конституции США.

Рассмотрим особенности законодательного регулирования социальных сетей на уровне штатов (на примере штата Калифорния):

1. Защита и обеспечение конфиденциальности в Интернете (включая, в социальных сетях).

В штатах, включая Калифорнию, независимо от того, является ли лицо сотрудником или поступающим на работу, работодатель (также и потенциальный работодатель) не может требовать или просить раскрывать имя пользователя или пароль для любых социальных сетей, электронных писем, текстовых сообщений или других подобных сообщений. Работодатель также, не может просить получить к ним доступ в их присутствии, чтобы они могли это увидеть.

Исключения, может составить, только тот случай, когда работодатель осуществляет подобные действия в рамках расследования неправомерных действий или при необходимости доступа к устройству, предоставленному работодателем.

Как и трудовые отношения, различного рода платформы должны соблюдать эти правила. Так, веб-сайты, которые собирают личную информацию от людей, должны публиковать политику конфиденциальности.

В политике, должно быть указано, какой тип информации собирается, передается ли она другим лицам, и если да, то какие организации видят эту информацию.

В политике, также должно быть описано, как веб-сайт информирует пользователей об изменениях в своей политике конфиденциальности и как веб-сайт отвечает на требования «запрета отслеживания».

Личная информация, позволяющая установить личность, включает любое из следующего: имя и фамилию, адрес, адрес электронной почты,

номер телефона, номер социального страхования, любую другую контактную информацию.

Если веб-сайт будет взломан, и кто-то получит персональную информацию о чужих лицах, компании и веб-сайты должны уведомлять этих лиц об этом. Кража персональных данных является незаконной во всех штатах.

2. Частная жизнь охраняется в социальных сетях. Является противоправным фотографировать кого-либо без согласия этого человека.

Запрещается также приобретение или получение за плату, а также последующее размещение в Интернете чужих фотографий, даже если они были сделаны третьими лицами, если приобретающее или получающее лицо знало, что фотографии были сделаны с нарушением конфиденциальности этого человека.

Законодательство штата Калифорния допускает использование фотографий после того, как они уже были правомерно опубликованы.

3. Взлом и несанкционированный доступ к социальным сетям.

Взлом обычно определяется как «несанкционированный доступ» или превышение разрешенного доступа к компьютеру, серверу или другому устройству, такому как сотовый телефон. Также незаконно угрожать кому-либо взломом. Наказание в штате Калифорния предусматривает до 20 лет тюремного заключения и/или штраф в размере до 15 000 долларов США.

Если у потерпевшего имеются доказательства взлома, и он может определить, кто это сделал (или продолжает делать), закон позволяет потерпевшему обратиться к органам власти с заявлением для немедленного принятия мер в целях пресечения деяния взломщика (хакера). Эти нормы, в основном, содержатся в Федеральном Законе США о компьютерном мошенничестве и злоупотреблениях [5]. Заявления принимаются местными правоохранительными органами или Интернет-Центром рассмотрения уголовных жалоб.

4. Размещение определенного контента в социальных сетях.

Если будет установлено, что какое-либо лицо поощряло или содействовало насилию, публикация подобного характера материалов в социальных сетях может ужесточить наказание. Также правительство может ограничить распространение следующего контента:

- призыв и провокация к неминуемым беззаконным действиям, массовому беспорядку;
- «истинные» угрозы насилия в отношении другого человека, когда размещающее контент лицо действительно намеревается осуществить эту угрозу;
- «непристойные» выражения (определяемые с учетом обстоятельств дела);
- детская порнография;

• ложная реклама товара или услуги;

• сведения, которые наносят ущерб репутации человека (клевета или оскорбление);

• сведения, раскрывающие частную жизнь лица;

• публикация материалов, защищенные авторским правом;

• «утечка» или раскрытие секретной информации.

5. Интернет-провайдеры и сетевой нейтралитет.

Начиная с 1 января 2019 года в Калифорнии действует Закон о соблюдении «сетевого нейтралитета», что означает, что интернет-провайдерам в Калифорнии запрещено блокировать, ограничивать или иным образом препятствовать доступу к онлайн-контенту. Интернет-провайдеры также могут не отдавать предпочтение одним веб-сайтам по сравнению с другими, взимая плату за более высокую скорость.

Это, по сути, привело к изменению правил для штата Калифорнии в отличие от федерального уровня. Федеральная комиссия по связи (FCC) отменила сетевой нейтралитет на федеральном уровне, позволив интернет-провайдерам иметь больший контроль над контентом, к которому могут получить доступ потребители. Но по мере того, как все больше штатов, включая Вашингтон и Орегон, принимают законы, обеспечивающие сетевой нейтралитет, федеральное правительство препятствует им, заявляя, что только оно имеет право принимать законы в этой области.

Таким образом, законодательство США имеет двухуровневую систему правового регулирования социальных сетей. Как упоминалось выше, большинство правил в отношении Интернета и социальных сетей принимаются на федеральном уровне, однако штаты также принимают правила касательно интернет-провайдеров, распространения определенного контента и т.д.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЕ ССЫЛКИ:

1. Communications Decency Act (https://www.eff.org/issues/cda230).

2. Computer Fraud and Abuse Act of 1986 (https://www.law.cornell.edu/ uscode/ text/18/1030).

3. https://blog.hootsuite.com/simon-kemp-social-media/.

4. https://growthbadger.com/content-marketing-statistics/.

5. https://lawsoup.org/legal-guides/free-speech/.

Анорбоев Амириддин Улуғбек ўғли
Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги юридик бўлим бош юрисконсульти

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЁТИГА КИБЕРЖИНОЯТЛАРНИНГ ХАВФ-ХАТАРИ

Anorboev Amiriddin Ulugbek ugli
The Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan, Chief Lawyer Consultant

RISKS OF CYBERCRIME TO THE ECONOMY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Анорбоев Амриддин Улугбек угли
Министерство по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан, главный юрист-консультант

РИСКИ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ ДЛЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Юртимизда олиб борилаётган ислоҳотлар ҳозир иқтисодий барқарорликни, иқтисодиётнинг юқори ўсиш суръатларини таъминлаб, халқимизнинг ижтимоий-иқтисодий шароитларини тубдан яхшилашда асосий замин бўлмоқда.

Айни вақтда тараққиёт йўлимизнинг таҳлили бугунги кунда жаҳон бозорида конъюнктура кескин ўзгариб, рақобат тобора кучайиб бораётганини, албатта, ҳисобга олишни, шу асосда давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун янгича ёндашув ва тамойиллар билан ишлашни тақозо этмоқда [1].

Ушбу ёндашувлар амалга ошиши оқибатида мамлакат иқтисодиёти сезиларли юқори кўрсаткичларга эришади, аммо ушбу кўрсаткичларга зарар етказадиган омиллар мавжуд. Айни вақтда ҳозирги мураккаб замон тинч-осойишта ҳаётимизни асраш ва мустаҳкамлаш, халқимизнинг кафолатланган хавфсизлигини таъминлаш масаласини янада долзарб қилиб қўймоқда. Хусусан, киберҳужумлар оқибатида мамлакат иқтисодиётига етиши мумкин бўлган зарарларни олайлик, ушбу зарарларнинг миқдори айнан қанча бўлишини олдиндан айтиб бера олиш имконсиздир. Зеро, киберҳужум сиз-у бизга номаълум вақтда амалга оширилади.

Киберҳужумлар бўйича хавфсизликни таъминлаш бўйича халқаро Symantec Security ташкилотининг маълумотларига кўра, ҳозир ҳар секундда дунёдаги 12 нафар инсондан биттаси киберҳужум қурбони

бўлмоқда ва дунёда ҳар йили 556 млн. дан кўпроқ киберҳужум уюштирилади ва бунда жабрланувчилар кўрадиган зарар миқдори 100 млрд. АҚШ долларидан кўпроқдир [2].

Ушбу муаммо ҳақиқатан ҳам жиддий муаммо бўлиб, ҳаммамизни у сергак тортишимиз зарурлигини кўрсатади, оддий бир ҳолат McClatchy ахборот хизматининг хабарига кўра, 2017 йил 12 май куни бошланган киберҳужумлар натижасида бир ҳафтага етмаган вақт давомида камида 150 мамлакатда 300 минггача компьютер зарарланган [3].

Маълумки, кибержинотячиликни бартараф қилиш учун юртимизда кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда, жумладан, Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги 841-сон “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори билан 2030 йилгача ноқонуний пул оқимларини жиддий равишда қисқартириш, ўғирланган активларни излаб топиш ва қайтариш бўйича ишларни жонлантириш, уюшган жиноятчиликнинг барча шаклларига қарши кураш олиб бориш ва экстремизм кўламларини уларнинг барча шаклларида жиддий равишда қисқартириш асосий вазифалардан бири сифатида белгилаб қўйилди ва ҳозир айнан кибержиноятчиликка қарши курашиш борасида зарур чоралар амалга оширилмоқда.

Хусусан, UZCERT-Ахборот хавфсизлиги инцидентларига чора кўриш хизматининг маълумотларига кўра, шунингдек, давлат органларининг ахборот тизимларида 2018 йил ва 2019 йил биринчи чорагида ахборот хавфсизлиги ҳодисалари мониторинги ўтказилганида 54.953.759 та ахборот хавфсизлиги бузилиши аниқланган бўлиб, улардан 2.502.353 тасининг хавфи юқори даража бўлган [4], Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг маълумотларига кўра, жорий 2019 йилнинг 1 январь кунидан бошлаб 26 июнь кунига қадар агентлик томонидан ўтказилган мониторингда болаларнинг соғлиғига зарар етказувчи 815 та ҳолат аниқланган ва бу кўрсаткич ўтган 2018 йилда 897 тани ташкил этган [5].

Хўш, ушбу киберҳужумлар натижасида мамлакат иқтисодиётига келтирилаётган зарарни қандай камайтиришнинг жиноий-ҳуқуқий ечимлари мавжуд?

В.С. Харламовнинг фикрича, ушбу муаммонинг ягона ечими кибержиноятчилик тушунчасини мамлакат жиноят қонунчилигига киритиш керак [6]. Ҳақиқатан ҳам, Жиноят қонунчилигимизга ушбу тушунча киритилиши лозим. Биргина мисол, Белоруссия Жиноят кодексининг 24-бобининг 1-изоҳ қисмида компьютер техникасидан фойдаланган ҳолда мулкка зарар келтирганлик [7], Дания Жиноят кодексининг 279-а-моддасида [8], Франция Жиноят кодексининг 263а-моддасида [9], Эстония Жиноят кодексининг 268-моддасида [10] компьютер фирибгарлиги, Италия Жиноят кодексининг 640-ter-моддасида компьютер тизимларига

аралашганлик [11], Хитой Халқ Республикаси Жиноят кодексининг 287-моддасида ўзгалар мулкини компьютер орқали талон-тарож қилганлик [12], Нидерландия Жиноят кодексининг 138ab-моддасининг "а" бандининг учинчи хат бошисида виртуал фирибгарлик [13], Польша Республикаси Жиноят кодексининг 287-моддасида компьютер ахборотини модификация қилганлик, ўзгартирганлик, йўқ қилганлик, фирибгарлик қилганлик [14], Украина Жиноят кодексининг 190-моддаси 3-қисмида электрон ҳисоблаш машинаси ёрдамида ноқонуний операцияларни амалга оширганлик [15], Жанубий Корея Жиноят кодексининг 247-2-моддасида техник воситалар, шунингдек, компьютер орқали маълумотларни ноқонуний равишда эгаллаганлик, уларни сохталаштирганлик, ноқонуний равишда қайта ишлаганлик [16], Испания Жиноят кодексининг 478-моддасида компьютер маълумотлари ва компьютер воситасида савдо сирларини ўз ичига олган маълумотларга рухсатсиз кирганлик [17], Финляндия Жиноят кодексининг 30-боби 4-моддаси 1-бандида компьютер тизимига ноқонуний равишда кирган ҳолда савдо сирларини ўғирлашга оид жосуслик қилганлик [18], Швейцария Жиноят кодексининг 143-моддасида электрон усулда саноат жосуслиги [19], Австрия Жиноят кодексининг 148а-моддасида махсус дастурлардан фойдаланган ҳолда автоматлаштирилган қайта ишлаш жараёнларига таъсир ўтказганлик, маълумотларни киритганлик, уларни ўзгартирганлик, йўқ қилганлик ёки бу жараёнларга ўзгача усулларда таъсир кўрсатиб, ўзи ёки ўзга шахслар учун ноқонуний равишда фойда келтириб жабрланувчига мулкий зарар келтирганлик [20] учун жиноий жавобгарлик аллақачон белгилаб қўйилган бўлса-да, бизнинг қонунчилигимизга ҳали ҳамон кибержиноятнинг киритилмаганлиги ва бунинг учун жавобгарлик белгилаб қўйилмаганлиги ачинарли ҳолатдир.

Олим В.С. Харламовнинг фикрларига қарама-қарши равишда У.Зинина мазкур тушунчанинг ўрнига компьютер ахбороти тушунчасини жиноят қонунчилигига киритиш ва бунинг учун алоҳида жавобгарлик белгилаб қўйиш зарур деб ҳисоблайди [21].

Юқоридаги икки олим фикрларини умумлаштирган ҳолда Я.Попиева иккала тушунча ҳам фанга киритилиши ва бу бўйича жиноят қонунчилигида уларнинг механизми ва бунинг учун жавобгарлик чоралари белгилаб қўйилиши мақсадга мувофиқ деб тушунтириш беради [22].

М.А. Ефремова эса, юқоридаги фикрлардан умуман ўзгача фикрлаган ҳолда, электрон ахборот тушунчасини жиноят қонунчилигига киритиш ва унга оид истаган жиноят қонунчилиги билан қўриқланадиган ахборотнинг бузилиши жиноят деб аталашини ва бу бўйича давлатлар қонунчилигини тўлиқ қайта кўриб чиқиш зарур деб ҳисоблайди [23].

Ҳақиқатан ҳам, айтишимиз жоизки, 1978 йилда Италия, 1979 йилда Австралия, 1981 йилда Буюк Британия, 1980 йилда АҚШ, 1985 йилда Дания ва Канада, 1986 йилда Германия, 1987 йилда Австрия, Япония ва Норвегия, 1988 йилда Франция ва Грециянинг жиноят ва маъмурий

қонунчилигида ушбу тушунча белгиланган [24] бўлса, бизда ушбу тушунчанинг мазмун-моҳиятини тартибга солинмаганлиги орқали айтишимиз зарурки, Ўзбекистон маъмурий ва жиноят қонунчилигида ҳам киберхавфсизлик, кибержиноят, кибермакон каби тушунчаларнинг мазмун-моҳияти ва уларга оид жиноят қонунчилигимиз билан қўриқланадиган ижтимоий муносабатларга зарар келтирганлик учун жавобгарлик чораларини белгилаб қўйиш мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, электрон ахборот бўйича олим М.А. Ефремованинг таклифига тўлиқ қўшилишнинг имкони йўқ, сабаби агар бутун дунёдаги давлатларнинг жиноят қонунчилигига электрон ахборотнинг бузилиши бўйича жавобгарликни белгилаб қўйган билан масала тўлиқ ҳал этилмайди, сабаби кибержиноят электрон бўлмаган, мураккаб кўринишларда ҳам содир этилиши мумкин, оддийгина бир мисол, банкоматдаги ўғирлик учун фақатгина электрон ахборотнинг ўзгартирилганлиги ёки модификация қилинганлиги билан жиноятни тугаллаш доим ҳам имконсиздир.

Юқоридаги фикрларимизни умумлаштирган ҳолда, Россия тарихига назар ташласак, Л.В. Григорьева 1996 йилда, В.С. Карпов 2002 йилда, Т.Л. Тропина 2005 йилда берган таклифи натижасида 2012 йил 29 ноябрь куни Россия Жиноят кодексига 159.6-модда компьютер ахбороти соҳасидаги фирибгарлик (компьютер фирибгарлиги) киритилди.

Шунга асосан, айтишимиз керакки, биз томонидан берилган таклифлар ҳозирги кунда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги ПҚ–3723-сон “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори билан ташкил этилган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш бўйича идоралараро комиссияга тақдим этилган.

Ушбу комиссия томонидан мазкур таклифларнинг қабул қилиниши оқибатида янги таҳрирдаги Жиноят кодексида электрон рақамли имзо ва электрон ҳужжатларни тайёрлаш ва фойдаланиш қоидаларини бузганлик, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларига қарши қаратилган жиноятлар, киберхавфсизлик соҳасидаги жиноятлар, кибержиноятлар, ахборотлаштириш тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик учун жавобгарлик, ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик, телекоммуникациялар, радиочастота спектри ва техник тартибга солиш тўғрисидаги қонунчиликни бузганлик, компьютер ахборотидан қонунга хилоф равишда (рухсатсиз) фойдаланганлик, компьютер ахборотини модификациялаганлик, зарарли дастурлар ва ахборотларни яратганлик, тайёрлаганлик ёки фойдаланганлик ёҳуд тарқатганлик, компьютер саботажи, компьютер орқали ўзгалар мулкини талон-тарож қилганлик, ушбу қилмишни товламачилик, босқинчилик, ўғирлик, фирибгарлик,

талончилик орқали содир этганлик, компьютер орқали ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказганлик ёки ўзини ўзи ўлдиришга ундаганлик, болаларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотни тарқатганлик, порнографик дастурлар, аудио-, видео ва бошқа материалларни тарқатганлик, сақлаганлик, намойиш қилганлик, шундай воситалардан фойдаланганлик, кибертерроризм, киберэкстремизм учун жавобгарлик белгиланган ҳолда, кибержиноятчи, кибержиноят, кибермакон, киберхавфсизлик, киберхавф, киберҳужум каби тушунчаларнинг мазмун-моҳияти ушбу кодексда алоҳида боб ва моддаларда кўрсатиб ўтилади. Мазкур таклифлар Олий Мажлис палаталари томонидан қабул қилинган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси Президентининг тасдиғидан ўтиши натижасида киберҳужум натижасида келиб чиқадиган ижтимоий муносабатлар ҳам жиноят қонунчилигимиз билан қўриқланадиган ва тартибга солинадиган муносабатларга айланади, шунингдек, мавжуд тушунчаларнинг таҳрири такомиллашади.

Олим М.А. Простосердовнинг таъкидлашича, кибержиноятлар сони ва миқдорини камайтириш учун қайси киберҳужумлар учун оғирроқ жазо белгиланиши бўйича рўйхат ишлаб чиқилиши ва у амалиётга татбиқ этилиши зарур деб ҳисоблайди [25].

Ушбу фикрлардан келиб чиққан ҳолда, Ю.М. Батурин кибержиноятчиларни ёлланган кибержиноятчилар, эҳтиётсизлик орқали оқибатини ўйламаган ҳолда кибержиноятни содир этадиганлар, жосуслар, хакерлар, кракер (компьютер безори)лари каби тоифаларга бўлган ва улар томонидан содир этилган жиноятлар учун жавобгарлик ҳам шунга мутаносиб бўлиши керак деб тушунтириш беради [26].

Т.М. Лопатина эса ушбу рўйхатни ўзгача фанат (мухлис)лар, руҳий касаллар ва профи (тарозига солиб қўядиган)ларга тоифалаган ҳолда классификация қилади [27].

Р.И. Дремлюга уларни “Интернет фирибгарлари”, “Интернет-кракер хакер (компьютер безори)лари” ва “Интернет-вирус яратувчилари”га ажратган ҳолда таснифлашни таклиф қилади [28].

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 30-моддасига мувофиқ, ташкилотчи, далолатчи ва ёрдамчилар ҳам ушбу Кодекс махсус қисмининг бажарувчини жавобгарликка тортиш белгиланган моддаси бўйича жавобгарликка тортиладилар.

Шундан келиб чиққан ҳолда, наздимизча, мавжуд кодекснинг 55-56-моддаларидан келиб чиқиб, янги таҳрирда қабул қилинадиган кодекснинг ўзида кибержиноятчилик тоифаси эмас, балки улар томонидан содир этилган жиноятнинг оғир енгиллигига қараб, қилмишни квалификациялаш бўйича алоҳида махсус нормаларни белгилаб кетиш мақсадга мувофиқ. Зеро, юқоридаги олимлар томонидан таъкидланган тоифаларга кирувчи шахслар томонидан содир этилган қилмиш ўзаро мутаносиб бўлса-ю, оғирроқ тоифага кирувчи шахс томонидан содир этилган

енгил қилмиш учун енгилроқ тоифага кирувчи шахс томонидан содир этилган оғир қилмишга нисбатан оғирроқ жазо белгилаш, жиноят қонунчилигидаги адолат тамойилига зиддир. Фақатгина оғирроқ тоифадаги шахслар томонидан содир этиладиган қилмиш миқдорини камайтириш учун улар томонидан амалга ошириладиган қилмиш учун суд оғирроқ жазо тайинлаши мумкинлиги ҳақидаги норма белгилаб кетилиши мақсадга мувофиқ, мисол учун, ўта хавфли рецидивист томонидан ЖКнинг 97, 104-105, 112, 118-119, 135, 137, 164-169, 171, 188, 220-222, 247, 252, 267, 270-271, 273-моддаларидаги кўрсатилган жиноятларни содир этганлигига оид нормалар каби.

М.А. Зубова АҚШ, Канада, Франция, Германия, Англия, Италия, Испания, Австрия, Бельгия, Дания, Финляндия, Греция, Ирландия, Люксембург, Голландия, Португалия, Австралия, Швеция, Польша каби давлатларнинг қонунчилигини тадқиқ қилган ҳолда дунёдаги барча мамлакатларнинг кибержиноятга алоқадор қонунчилигини бир-бири билан унификация қилиш зарурлигини таъкидлайди [29].

Ушбу фикрларга ўхшаш фикрларни Т. Лопатина ҳам таъкидлаган ҳолда, аввало, ушбу жиноятнинг олдини олиш учун трансчегаравий кибержиноятчилик тушунчасини фанга олиб кириш ва унинг механизмини белгилаб қўйиш керак деб ҳисоблайди [30].

Фикримизча, икки олимнинг ҳам фикрларида жон бор, сабаби, трансчегаравий кибержиноятчиликни фанга олиб кирмасдан ва унинг тартиб-таомилини белгиламасдан ҳамда унинг нечоғлик заруриятини қўшни давлатларга тушунтирмасдан туриб, кибержиноятчилик билан ялпи курашиш имконсиздир. Сабаби, иқтисодий секторга жуда катта зарарни келтириб чиқаришни мақсад қилган кибержиноятчи ўз қилмишини ўзга мамлакат ҳудудидан туриб содир этади ва бунда трансчегаравий кибержиноятчиликнинг икки давлат томонидан бирдек эътироф этилганлиги ва бир-бирининг ушбу соҳадаги қонунчилиги ўхшаш эканлиги мавжуд муаммоларнинг тезкор ҳал этилишини таъминлайди.

Юқоридаги фикрларга нисбатан қўшимча сифатида халқаро давлатларнинг жиноят қонунчилигига назар ташлайдиган бўлсак, қуйидаги ҳолатларга гувоҳ бўлишимиз мумкин. Хусусан, Россия Федерацияси жиноят кодексининг жамоат тартиби ва умумий хавфсизликка қарши жиноятлар деб номланган 28-бобида, жумладан, РФ ЖКнинг 272-моддаси компьютер ахборотидан қонунга хилоф равишда фойдаланиш, 273-модда зарарли компьютер дастурларини яратиш, тарқатиш, фойдаланиш, 274-модда ахборот-телекоммуникация ва компьютер ахборотини сақлаш, қайта ишлаш, ўтказиш қоидаларини бузиш ва порнографик маҳсулотларни тарқатиш, 274^1-модда-Россия Федерациясининг ахборот тузилмасига ноқонуний равишда таъсир кўрсатиш деб номланади ва ушбу соҳадаги жиноятлар учун жавобгарлик чоралари белгилаб қўйилган [31].

Германия Федератив Республикаси жиноят кодексида эса ушбу кодекснинг § 202a – электрон ёки магнит ёҳуд бошқа усулда кўпайтирилиши ёки узатилиши мумкин бўлган маълумотни ўзи ёки ўзга шахс томонидан рухсатсиз олинган шахсларнинг ҳаракатлари, § 206 – телекоммуникация воситаларидаги сирларни бузиш, § 268 – қалбаки техник ёзувларни қалбакилаштириш ёки ўзга автоматик қурилмалар томонидан тўлиқ ёки қисман ёзиб олинган ёзувларни қалбакилаштиришга оид ҳаракатлар, § 269 – мавжуд ҳолатни исботловчи маълумотларни қалбакилаштириш, § 274 – техник ёзувларни йўқ қилиш, ўзгартириш, қайта ишлашга оид ҳаракатлар, § 303a – маълумотларни ноқонуний равишда йўқ қилиш, ўзгартириш, ўчиришга оид харакатлар, § 303b – маълумотларни қайта ишлаш ёки сақлаш воситаларини йўқ қилиш, шикастлаш, ўчириб қўйишга оид ҳаракатлар, § 317 – телекоммуникация воситалари орқали ноқонуний равишда таъмагирлик қилиш бўйича жавобгарлик белгиланган [32].

Люксембург жиноят кодексининг 509^1, 509^2, 509^3, 524-моддалари бевосита кибержиноятчилик тўғрисида бўлиб, жумладан, Люксембург жиноят кодексининг 509^1-моддасида қириш тақиқланган тизимга ноқонуний равишда кириш ёки шундай тизим ёки унинг қисмида ноқонуний равишда маълумотларни олганлик, қайта ишлаганлик учун 2 йилгача, 509^2-моддасида автоматик қайта ишланадиган тизим функциясини ўзгартирганлик учун 3 йилгача, 509^3-моддасида ваколати бўлмаган шахс томонидан электрон тизимга ноқонуний кирган ҳолда, ундаги маълумотларни ўзгартирганлик, йўқ қилганлик, ўчириб ташлаганлик учун ҳам 3 йилгача озодликдан маҳрум қилиш жазоси белгиланган [33].

Кўриб турганимиздек, ушбу давлатларнинг жиноят қонунчилиги бир-бирига яқин, мазкур ҳолатда, ҳеч бўлмаганда, ШҲТ, МДҲ га аъзо давлатлар ўзларининг жиноят қонунчилигини ўзаро бирхиллаштириши мақсадга мувофиқ.

Олим М.А. Простосердовнинг таъкидлашича, кибержиноятларнинг янада кўпайишига сабаб сифатида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган ходимларининг ушбу соҳада етарлича билимга эга эмаслиги натижасида латент жиноятчилик кундан-кунга кўпайиб бораётганлигини таъкидлаган ҳолда, бу борада алоҳида кадрлар тайёрлашга эътибор бериш кераклигини, айниқса, иқтисодий жиноятларга оид кибержиноятларни квалификация қилишни ва ушбу жиноятларни очишни бемалол уддалай оладиган кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратиш зарурлигини, шунингдек, ушбу жиноятлар ҳақида тушунтириш берадиган Олий суднинг юқори органи бўлган, мисол учун, Пленум қарорлари қабул қилиниши зарурлигини айтиб ўтади [34].

1996 йилда АҚШ Олий суди кибержиноят ҳақида алоҳида қарор қабул қилган [35] бўлса, ҳали-ҳамон бу хусусда мамлакатимиздаги судларда алоҳида тасаввур йўқ, шу пайтга қадар аслида кибержиноят

бўлган ҳолатни Жиноят кодексининг 4, 10, 14, 16-моддасига хилоф равишда, ЖПКнинг 333-моддаси ёки 83-моддасига кўра, жиноий иш қўзғатишни рад этиш ёки қўзғатилган жиноят ишини тугатиш ўрнига аслида бошқа қилмиш учун айбдор бўлган шахсни шу кунга қадар бошқа модда билан айблаб квалификация қилиб келишмоқда.

Ушбу ҳолат судлар томонидан қилмишни содир этган шахс ижтимоий хавфли қилмишни содир этганидан кейин унга нисбатан жавобгарлик бўлиши керак деб изоҳлашмоқда, аммо ушбу қилмиш Жиноят кодексига киритилмаган ва бу бўйича алоҳида жавобгарликни белгилайдиган нормалар мавжуд бўлмаса, ушбу қилмишни содир этган шахсни жиноятчи ва у томонидан содир этилган қилмишни ижтимоий хавфли қилмиш деб аташимиз мумкинми? Асло йўқ. Шу жиҳатдан ҳам, ҳеч бўлмаса, судларимиз томонидан амалга оширилаётган ишларнинг бирхиллигини таъминлаш мақсадида кибержиноятчилик хусусида алоҳида Олий суд Пленуми қарори қабул қилиниши ва кибержиноятчилик бўйича у тушунтириш бериши мақсадга мувофиқ.

Хулоса сифатида таъкидлаб ўтишимиз зарурки, айнан кибержиноятларнинг иқтисодиётга таъсири натижасида мамлакатнинг кейинги ривожига сунъий тўсиқлар вужудга келади. Ушбу тўсиқларни бартараф қилмас эканмиз, мамлакатимизда иқтисодий тангликлар кучайиб бораверади. Иқтисодий танглик эса инсонларнинг давлат органларига нисбатан ишончсизлигини ва мамлакатда турли хил тартибсизликлар вужудга келтириш хавфини келтириб чиқаради. Шу жиҳатдан юқорида таъкидлаб ўтилган муаммоли ҳолатлар юзасидан берилган таклифларнинг амалда тўғри ижро қилиш, бу борада тўғри сиёсат юритишимиз зарурлигини кўрсатади. Қолаверса, мамлакатимизнинг иқтисодиётини тангликка тушишдан асраш сиз-у бизга боғлиқ, бунинг учун эса талаб этиладиган ягона нарса бу бизнинг огоҳ бўлишимиз ҳамда лоқайдликка йўл қўймаслигимиздир. Зеро, огоҳлик давр талабидир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ш. Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабрь. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 13.

2. А.Т. Тўхтабоев. Миллий иқтисодиёт ривожи етук мутахассис кадрларга боғлиқ. Миллий товарлар рақобатбардошлигини оширишда замонавий маркетинг концепцияларидан фойдаланиш. Республика илмий-амалий анжумани илмий мақола ва тезислари тўплами (2018 йил, 27 ноябрь). – Т.: Фан ва технологиялар, 2018. – Б. 27.

3. Д.Н. Карпова. Киберпреступность: глобальная проблема и ее решение. – М.: Власть. 2014. (№8). – С. 46.

4. Daryo.uz веб сайтидан: https://daryo.uz/k/2017/05/25/wannacry-virusi-yordamida-uyushtirilgan-ommaviy-kiberhujum-keltirgan-zarar-miqdori-1-mlrd-dollardan-oshdi/.

5. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 20 октябрдаги 841-сон "2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.10.2018 й., 09/18/841/2081-сон, 04.06.2019 й., 09/19/457/3235-сон, 28.06.2019 й., 09/19/532/3344-сон.

6. С. Садиков. Кибербезопасность Узбекистана в цифрах: итоги 2018 года. // https://uzcert.uz/blog/saidakbar/kiberbezopasnost-uzbekistana-v-tsifrakh-itogi-2018-goda/.

7. Муаллифнинг сўровига жавобан юборилган Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясининг ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги 2019 йил 2 июлдаги 14/2-2187-сон хати.

8. В.С. Харламов. Теория и практика противодействия преступному насилию в семье (системное криминологическое и уголовно-правовое исследование). Специальность 12.00.08 – уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Санкт- Петербург. 2019. – 721 с.

9. Белоруссия жиноят кодекси. Интернет сайтдан: https://xn----ctbcgfviccvibf9bq8k.xn--90ais/.

10. Уголовный кодекс Дании. Интернет сайтдан: https://www.retsinformation.dk/ Forms/R0710.aspx?id=152827#Kap28.

11. Уголовный кодекс Германии с изменениями от 28 декабря 2003 года. Интернет сайтдан: https://lexetius.com/StGB/263a.

12. Уголовный кодекс Эстонии. Интернет сайтдан: https://www.hot.ee/almanach/ kriminaalseadustik.html.

13. Уголовный кодекс Италии. Интернет сайтдан: https://www.altalex.com/ ?idnot=36653.

14. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики. Интернет сайтдан: https://constitutions.ru/archives/403.

15. Уголовный кодекс Нидерландов. Интернет сайтдан: https://wetten.overheid.nl/BWBR0001854/TweedeBoek/TitelV/Artikel138ab/geldigheidsdatum_29-09-2013.

16. Польша Республикаси Жиноят кодексидан: https://law.edu.ru/norm/norm.asp?normID=1246817.

17. Уголовный кодекс Украины. Интернет сайтдан: https://zakon1.rada.gov.ua/ cgibin/laws/main.cgi?nreg=2341-14&p=1214905443606898.

18. Уголовный кодекс Республики Корея. Интернет сайтдан: https://www.crime.vl.ru/index.php?p=1324&more=1.

19. Уголовный кодекс Испании. Интернет сайтдан: https://noticias.juridicas.com/ base_datos/Penal/lo10-1995.l2t13.html#a278.

20. Уголовный кодекс Финляндии. Интернет сайтдан: https://www.finlex.fi/ en/laki/ kaannokset/1889/en18890039.pdf.

21. Уголовный кодекс Швейцарии. Интернет сайтдан: https://law.edu.ru/ norm/norm.asp?normID=1241950&subID=100098712,100098714,100098872,100099140,100099172#text.

22. Уголовный кодекс Австрии. Интернет сайтдан: https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/.

23. У.В.Зинина. Преступления в сфере компьютерной информации в российском и зарубежном уголовном праве. Специальность 12.00.08 – уголовное право и криминология: уголовно-исполнительное право. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата юридических наук. – М.: 2007. – 13–14 с.

24. Я.А. Попыева. Криминалистическое исследование средств совершения компьютерных преступлений. Бакалаврская работа. – Томск. 2016. – 40 с.

25. М.А. Ефремова. Уголовно-правовая охрана информационной безопасности. Специальность:

26. 12.00.08 – «Уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право». Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. – М.: 2017. – 365 с.

27. А.Э. Побегайло. Борьба с киберпреступностью: учебное пособие. – М.: Университет прокуратуры Российской Федерации, 2018. – С. 13.

28. М.А. Простосердов. Экономические преступления, совершаемые в киберпространстве, и меры противодействия им Специальность 12.00.08 - уголовное право и криминология; уголовноисполнительное право Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М.: 2016. – с. 36.

29. Ю.М. Батурин. Право и политика в компьютерном круге. – М.: место издания Наука Москва, 1987. – 111 с.

30. Т.М. Лопатина. Криминологические и уголовно-правовые основы противодействия компьютерной преступности: автореф. дис. … докт. юрид.наук: – М.: 2006. – 30–31 с;

31. Р.И. Дремлюга. Интернет-преступность. дис.... канд. юрид. наук. – Владивосток. 2007. – 143 с.

32. М.А. Зубова. Компьютерная информация как объект уголовно-правовой охраны. Специальность:

33. 12.00.08 – уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Казань. 2008. – С. 25.

34. Т. Лопатина. Криминологические и уголовно-правовые основы противодействия компьютерной преступности. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, доктор юридических наук. – М.: 2006. – С. 418.

35. Россия Федерацияси жиноят кодекси. (Уголовный кодекс Российской Федерации) Интернет сайтдан: https://ppt.ru/kodeks.phtml?kodeks=20.

36. Германия Федератив Республикаси жиноят кодекси. (Уголовный кодекс ФРГ) Интернет сайтдан: https://constitutions.ru/?p=5854.

37. Люксембург жиноят кодекси. (Уголовный кодекс Великого Герцогства Люксембурга) Интернет сайтдан: https://legilux.public.lu/eli/etat/leg/code/penal/ 20181101.

38. М.А. Простосердов. Экономические преступления, совершаемые в киберпространстве, и меры противодействия им Специальность 12.00.08 – уголовное право и криминология; уголовноисполнительное право Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – М.: 2016. – С. 190–191.

39. *Информационный ресурс «Ciec.org». Reno vs. ACLU, 117 S.Ct. 2329 (1997) (casebook at 932-53). Электронный ресурс] // URL:http//ciec.org/SC_appeal/ opinion.shtml.*

Эсимбетова Барно Есенгелдиевна
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси докторанти

ҚАСДДАН БАДАНГА ШИКАСТ ЕТКАЗИШ ЖИНОЯТЛАРИНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Esimbetova Barno Yesengeldievna
Doctoral student of Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN INVESTIGATING CRIMES INTENDED FOR INJURY

Эсимбетова Барно Есенгелдиевна
Докторант Академии МВД Республики Узбекистан

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ С ПРИЧИНЕНИЕМ УМЫШЛЕННОГО ТЕЛЕСНОГО ПОВРЕЖДЕНИЯ

Дунёда ҳар йили ўртача бир 1 миллиард 150 мингдан ортиқ жиноят рўйхатга олиниб, 700 миллионга яқин жиноятлар расмий рўйхатга киритилмай қолмоқда. Эътиборли томони шундаки, суд-тергов амалиётида ушбу жиноятларнинг салкам ярми фош этилмаслиги кузатилмоқда. Халқаро норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда қасддан баданга шикаст етказиш жиноятларига қарши курашиш ва тергов қилиш самарали механизмини яратиш жуда долзарб аҳамиятга эгалиги ва бу масалага алоҳида ёндашиш зарурлигидан далолат беради.

Жаҳонда қасддан баданга шикаст етказиш жиноятларини тергов қилишни такомиллаштириш, жумладан, терговга қадар текширув ўтказиш, далилларни аниқлаш ва тўплашда замонавий технологиялар, исботлашнинг янги тактик усул ва имкониятларидан самарали фойдаланиш, қасддан баданга шикаст етказиш билан боғлиқ жиноят ишларини тергов қилиш усулларини янада ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Қасддан баданга шикаст етказиш жиноятларни тергов қилишда тергов ҳаракатларини ўтказиш тактикаси жиноий фаолиятнинг содир этилиши механизми ва жиноятни аниқланиши ҳамда жиноят ишини қўзғатишнинг хусусиятлари билан бевосита боғлиқ. Шу билан бирга, ҳар қандай ҳолатда алоҳида тергов ҳаракатини ўтказиш тактикаси тергов гуруҳининг жиноят ишини тергов қилиш режаси ва жиноятнинг барча тафсилотларини аниқлаштирилишига бевосита боғлиқ.

Қасддан баданга шикаст етказиш билан боғлиқ жиноят ишларининг асосий мақсади жиноят содир этилиши билан боғлиқ барча ҳолатларни аниқлаш ҳамда жиноятга алоқадор барча шахсларни фош этиш ҳамда гумон қилинувчиларнинг жиноий фаолиятининг янги эпизодларини аниқлаш ва бартараф этишдан иборат.

Методик жиҳатдан тергов қилиш жараёнида асосий эътибор жабрланувчиларнинг хавфсизлигини таъминлашга қаратилиши керак, чунки уларнинг кўрсатувлари исботлашда асосий ўринни эгаллайди.

Мазкур тоифадаги жиноят ишларини тергов қилишнинг яна бир ўзига хос хусусияти бўлиб, қасддан баданга шикаст етказиш жиноятларни тергов қилиш амалга оширилишида мамлакатнинг ҳуқуқни муҳофаза этувчи органлари орасида ҳалқаро ҳамкорлик амалга оширишнинг зарурияти ҳисобланади. Бу эса ҳар бир қасддан баданга шикаст етказиш жинояти аниқланган ҳолатда айбдор шахсларни қонунда белгиланган (жиноий, маъмурий, фуқаролик) жавобгарликка тортилиши ва айб учун жавобгарликнинг муқаррарлигини таъминланишига хизмат қилади.

Жиноят ишлари бўйича тергов ҳаракатларини ўтказишда видео ва аудиоёзув воситаларини қўллаган ҳолда ўтказиш тавсия этилади, бу, ўз навбатида, илгари олинган далилий ахборотларни яна бир тасдиқлашга ҳамда фоноскопик экспертизалар учун намуналар олинишга ёрдам беради. Фоноскопик экспертизалар ўтказиш эса тергов органлари ихтиёрида гумон қилинувчи, айбланувчи ва жабрланувчиларнинг телефон сўзлашувлари мавжуд бўлган ҳолларда тайинланади. Тергов ҳаракатлари давомида видео ва аудиоёзувнинг қўлланилиши зарурлиги шундан иборатки, баъзи ҳолларда гумон қилинувчилар овоз намуналари олинишига қаршилик қиладилар ва розилик бермайдилар.

Умуман тергов ҳаракатлари ўтказишнинг тактик жиҳатларига тўхталмасдан қасддан баданга шикаст етказиш жиноят ишлари бўйича ўтказиладиган муайян тергов ҳаракатларининг хусусиятларини ёритиш мақсадга мувофиқ деб ўйлаймиз.

Қасддан баданга шикаст етказиш жиноятларни тергов қилишда теварак-атроф ва биноларни кўздан кечиришнинг хусусиятлари қуйидагиларда намоён бўлади:

теварак-атроф ва биноларни кўздан кечириш ЖПКнинг 139-моддасига мувофиқ ўтказилади, унга кўра фуқаронинг уйи ёки хизмат жойини кўздан кечириш зарурати бўлса, суриштирувчи ёки терговчи бу ҳақда қарор чиқариши, тураржойи кўздан кечирилаётган шахс ёки тегишли корхона, муассаса, ташкилотнинг вакили чиқарилган қарор билан таништирилиб, бу ҳақда имзо чектирилиши керак. Кўздан кечириш корхонада, муассасада, ташкилотда ўтказилса – маъмурият вакилининг, ҳарбий қисмда ёки муассасада ўтказилса – қўмондонлик вакилининг, зарур ҳолларда эса моддий жавобгар шахснинг қатнашиши шарт. Биноларни кўздан кечиришда ЖПКнинг 160- ва 161-моддаларида назарда тутилган қоидаларга риоя қилиниши лозим.

Қасддан баданга шикаст етказиш жиноят ишлари бўйича кўздан кечиришнинг объекти бўладиган бинолар ва теварак-атроф қаторига жиноятни содир этган жойларни киритиш мумкин.

Ушбу тергов ҳаракати терговнинг ҳам дастлабки, ҳам кейинги босқичларида ўтказилиши мумкин. Терговнинг қайси босқичида ўтказилиши кўздан кечиришнинг асосий ва факультатив мақсадига ҳамда тергов қилиш жараёнида юзага келган тактик вазиятга бевосита боғлиқ.

Ушбу тоифадаги жиноят ишлари бўйича теварак-атрофни ва биноларни кўздан кечиришнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, уни ўтказиш натижасида қасддан баданга шикаст етказиш содир этилган жойида изларини аниқлашга ва мустаҳкамлашга имкон беради. Бунда қўл бармоқ излари, организм ажратмалари қолдиқлари, жабрланувчи томонидан кўрсатувларда айтиб ўтилган предметлар, ёзувлар, белгиларни аниқлаш ва қайд этилиши ҳақида бормоқда.

Кўздан кечириш самарали натижалар бериши учун жабрланувчиларни олдиндан барча ҳолатлар ҳақида батафсил сўроқ қилиш лозим. Чунки шундагина терговчи кўздан кечириш давомида жабрланувчи томонидан айтилган излар, белгиларни аниқлашга диққат билан эътибор қаратади. Кўздан кечиришнинг асосий мақсади қасддан баданга шикаст етказиш вазиятини, ҳолатини, шу жумладан, жиноятни содир этган жойда қолган излар, далилий ашёлар, жиноят қуроллари излаб топиш ва ишга қўшиш ва ҳоказолар.

Қасддан баданга шикаст етказиш жойларини кўздан кечириш ҳажмнинг катталигидан келиб чиқиб, бир нечта ходимларни жалб қилишни талаб этиши мумкин. Теварак-атрофни ва биноларни кўздан кечириш жараёнида аниқланган барча қасддан баданга шикаст етказилган шахслар дарҳол суд-тиббиёт экспертиза ва гувоҳлантиришга жўнатилиши ва аудио-видеоёзув воситаларини қўллаган ҳолда сўроқ қилиниши керак. Шунингдек? кўздан кечириш давомида аниқланган бошқа шахслар ҳам ишга тааллуқли барча ҳолатлар юзасидан батафсил сўроқ қилиниши мақсадга мувофиқ. Кейинчалик уларни ишда гумон қилинувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилиш ва ушлаб туриш масаласи ҳал этилиши даркор.

Қасддан баданга шикаст етказиш ишлар бўйича теварак-атрофни ва биноларни кўздан кечириш видеоёзув ва фотосуратга олиш усуллари ёрдамида амалга оширилиши керак. Кўздан кечиришнинг вазияти ва ҳолатини айнан акс эттирувчи фото жадваллар кўздан кечириш баённомасига тасвирий илова сифатида бириктирилиб, кейинчалик гумон қилинувчилар, жабрланувчилар, гувоҳларни сўроқ қилишда ишлатилиши, кўрсатувларни ҳодиса содир бўлган жойда текширишни режалаштиришда фойдаланилиши мумкин.

Теварак-атрофни ва биноларни кўздан кечириш жараёнида аниқланган барча объектлар терговчининг хизмат хонасида қайтадан кўздан кечирилиши ва тегишли турдаги экспертизалар ўтказиш учун юборилиши мумкин.

Бу тоифадаги жиноят ишлари бўйича суд-тиббиёт экспертиза ўтказишнинг хусусиятлари қуйидагиларда намоён бўлади.

Қасддан баданга шикаст етказиш натижасида жабр кўрган шахслар, албатта, суд-тиббиёт экспертизасига юборилиши керак. Ушбу тергов ҳаракати улар бевосита ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органга ариза билан мурожаат қилганидан сўнг ёки уларни бошқа шароитларда аниқлагандан кейин ўтказилиши керак. Қасддан баданга шикаст етказиш бўйича суд-тиббиёт экспертизани орқали жабрланган шахсларнинг умумий ҳолати, тан жароҳати даражасини аниқланиши мумкин.

Қасддан баданга шикаст етказиш натижасида жабрланувчиларни ўриш, дўппослаш ва қийнаш каби ҳаракатлар билан содир этилиши ҳисобга олинадиган бўлса, суд-тиббиёт экспертизасини ўтказиш натижасида олинган маълумотлар жабрланувчига нисбатан ўтказилган жисмоний тазйиқнинг яққол изларини кўрсатиб беради ва далилий базанинг муҳим элементини ташкил қилади.

Шуни ҳисобга олиш лозимки, жабрланувчининг соғлиғига зарар етказиш бир қатор давлатларнинг қонунчилигига биноан қасддан баданга шикаст етказиш жиноятларини тергов қилиш жиноятининг квалификацион белгиси бўлиб ҳисобланади.

Суд-тиббиёт экспертизасини ўтказиш жараёнида имкони борича видеоёзув ва фотосуратга олиш усулларини қўллаш мақсадга мувофиқ. Бунда жабрланувчининг баданида ёки кийимида қолган изларни деталли фотосуратга олиш муҳим аҳамият касб этади. Фотосуратга олиш рангли фотографияни қўллаш орқали амалга оширилиши жабрланувчининг баданидаги изларнинг яққол кўриниши ва аниқ белгиланишига хизмат қилиб исботлашда катта аҳамиятга эга бўлади.

Қасддан баданга шикаст етказиш жиноятлари бўйича гувоҳ, жабрланувчи ва гумон қилинувчиларни сўроқ қилиш тергов ҳаракати батафсил ўтказилиши шарт. Сўроқ қилиш тергов ҳаракатининг аҳамияти катта ҳажмдаги маълумотларни олиш, кўп сонли гувоҳлар ва гумон қилинувчилар билан ишлашни тақозо этилишидан келиб чиқади. Ушбу тергов ҳаракатини тезкорлик билан ва ўз вақтида ўтказилиши муҳим маълумотларни олиш имконини яратади. Шунинг учун жиноят иши қўзғатилиши биланоқ суриштирувчи ва терговчи сўроқни аниқ режа асосида ўтказиши, терговнинг самарадорлиги ва ижобий натижага эришишининг муҳим омили бўлиб хизмат қилади.

Юқоридагиларни хулоса қилган ҳолда қасддан баданга шикаст етказиш жиноятлари тўғрисидаги ишлар бўйича дастлабки ва кейинги тергов ҳаракатларини ўтказиш, суд-тиббиёт экспертизаларини тайинлаш ва уларнинг хулосаларини олиш бу турдаги жиноятларни содир қилган шахсларнинг айбларини фош этиш ва уларнинг қонунда белгиланган жавобгарликка тортилишини таъминлашнинг асосини яратилишига хизмат қилади.

Примов Бахтиёр Олим ўғли,
Тошкент давлат юридик университет докторанти

ДАСТЛАБКИ ТЕРГОВДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШ ЖАРАЁНИНИ ҚОНУНИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ МЕХАНИЗМИ

Primov Baxtiyor Olim ugli
Doctoral student of Tashkent State University of Law

THE MECHANISM OF LEGISLATIVE REGULATION OF THE PROCESS OF APPLICATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN THE PRELIMINARY INVESTIGATION

Примов Бахтиёр Олим угли
Докторант Ташкентского государственного юридического университета

МЕХАНИЗМ ЗАКОНОДАТЕЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕДВАРИТЕЛЬНОМ РАССЛЕДОВАНИИ

Маълумки, XXI асрни ахборот жамияти деб аташ одат тусига кирган бўлиб, унинг ўзига хос хусусияти ахборот ва телекоммуникация технологияларининг жамият ҳаётининг барча жабҳаларига, шу жумладан, жиноий одил судлов соҳасига жорий этилиши ҳисобланади. Бугунги глобаллашув шароитида IT ривожланиши мамлакатларнинг иқтисодий ўсиш суръатларига кескин таъсир ўтказмоқда. Ҳозирги кунда "Digital Economy" (рақамли иқтисодиёт), "Blockchain" (блокчейн), "Internet of things" (автоматлаштирилган интернет тизим) "Artificial intelligence" (сунъий интеллект), "Big Data" (катта маълумотлар) каби кўплаб иборалар замонавий инсон ҳаётининг ажралмас бўлагига айланди. IT кундалик ҳаётимизнинг барча соҳасини қамраб олмоқда[1].

Тарихда қоғоз жиноят ишида асосий ахборот ташувчиси ҳисобланади. Турли тергов ҳаракатлари, терговчи ва суднинг қарорлари ёзма процессуал ҳужжатларда у ёки бу тарзда акс эттирилади. Ҳатто ҳодиса жойини кўздан кечириш ва бошқа тергов ва процессуал ҳаракатлар натижасида олинган фотосуратлар ҳам қоғозда тузилган фото жадваллар сифатида жиноят ишига илова қилинади. Жиноят ишининг мураккаблиги ва кўп эпизодлилиги, ўнлаб турли хил суд-тиббий экспертизалари, айбланувчилар, гувоҳлар ва жабрланувчиларнинг кўплиги муқаррар

равишда жуда кўп миқдордаги тергов материалларига олиб келади, бу эса, ўз навбатида, катта ва оғир ҳажмдаги жиноят ишлари пайдо бўлишига ёрдам беради. Суд амалиёти жиноят ишининг ҳажми 50 жилддан ортиқ бўлган кўплаб ҳолатларни билади. Бундан ташқари, қоғоз ҳеч қандай тарзда ёнғин таъсиридан ҳимояланмаган, бунинг натижасида жиноят иши осонгина йўқ қилиниши мумкин.

Жиноят ишини юритишнинг янги шаклига ўтиш, қоғоз шаклдаги процессуал ҳужжатларни рад этиш зарурати туғилмоқда, бу эса жиноят процессини модернизация қилиш йўлидаги қадам бўлади. Хусусан, жиноят ишининг электрон шаклини қўллаш таклиф этилмоқда, бу эса муайян жиноятга оид далилларни тўплаш ва процессуал ҳужжатларни расмийлаштиришнинг бутун тартибини соддалаштиради.

Шу боис жиноят ишини юритишнинг янги шаклига ўтиш ва қоғоз процессуал ҳужжатларни рад этиш жиноят процессини модернизация қилишдаги дастлабки қадамлардан бири бўлди.

Жиноят процессида ахборот-коммуникация воситаларидан фойдаланишнинг ҳуқуқий асоси сифатида қонун ҳужжатларида белгиланган, уларни қўллаш шарт-шароитлари, мазмуни, мақсадлари ва тартибини белгиловчи тамойиллар ва қоидалардан иборат. Умуман олганда, жиноят процессида АКТ воситаларидан фойдаланишни тартибга солувчи норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тизими Жиноят-процессуал кодекси нормалари, Президент фармонлари ва қарорлари, Ҳукумат фармонлари (қарорлари) ҳамда қонун ҳужжатларига мувофиқ чиқарилган айрим идоравий ҳужжатлардан иборат.

Ўзбекистонда жиноий судловни ислоҳ қилишнинг янги даври тизимли равишда олиб борилмоқда. 2019-йил 23-май куни ЎРҚ–542-сонли “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига жиноят процесси иштирокчиларининг ҳуқуқлари ҳимоя қилинишини таъминлаш билан боғлиқ ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонун расман эълон қилинди, у моҳиятан электрон суд жараёнини жорий этади.

Мазкур қонуннинг энг ёрқин янгиликларидан бири ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга рақамли тергов тизими – электрон жиноят иши (Е-жиноят иши) жорий этилишидир. Мазкур қонун билан ЖПКга янги моддалар киритилган бўлиб, бундан буён Ўзбекистон Республикасида жиноят процесси қоғоз шакл билан бир қаторда электрон шаклда ҳам юритилиши назарда тутилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 14-майдаги ПҚ–3723-сонли “Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори билан тасдиқланган Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш концепциясининг “Жиноят процессининг янги шакл ва тартиб-таомилларини жорий этиш” номли 3-бўлими еттинчи бандида илк бор суд-тергов фаолиятида, хусусан, “Электрон жиноят иши” ва “масофадан сўроқ қилиш” тизимларини жорий этишда ахборот-коммуникация технологияларидан самарали фойдаланишни таъминлаш вазифаси белгиланган.

Худди шу қарор билан Тошкент шаҳрининг Яккасарой ва Миробод туманларида “Электрон жиноят иши” пилот лойиҳасини амалга ошириш, лойиҳада ҳужжатларнинг қоғоз ва электрон шаклларидан бир вақтда фойдаланиш, иш жойларини жиҳозлаш, ички локал-компьютер тармоқларини яратиш кўзда тутилган.

Электрон жиноят иши электрон ҳужжат айланишини ривожлантиришнинг энг юқори нуқтасидир. Кўпгина давлатлар ушбу муаммони ҳал қилишнинг турли даражаларида бўлган ҳолда бу йўналишда ҳаракат қилмоқдалар. Электрон адлия тизимлари АҚШ, Канада, Германияда жорий этилмоқда. Бельгияда 2005 йилда “Phenix” лойиҳаси яратилган бўлиб, унинг доирасида электрон ҳужжат айланиши тизимига қўшимча равишда “электрон файл” полиция, адвокат, тарафлар ва бошқа органлар томонидан тўлдирилиши мумкин эди. Аутентификация масаласи электрон паспорт (eID) ёрдамида ҳал қилинди. Саудия Арабистонида кўп жиноят ишлари икки кун ичида тугайди. Бу мамлакатда улар бир неча йил аввал электрон жиноят ишларига ўтиб, тергов вақтини 80 фоизга қисқартирган. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш тизимини ислоҳ қилишнинг ижобий тажрибасини 2011-йилда жиноят ишнинг электрон форматига ўтиш амалга оширилган Грузияда ҳам кузатиш мумкин. Жанубий Корея, Сингапур, Эстония бу борада сезиларли ютуқларга эришди.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон суд амалиётида жисмоний ва юридик шахслар томонидан (ижтимоий тармоқ ёзишмалари, электрон почта, СМС, ММС, флешка, диск, компьютер, интернет, маҳаллий (локал) тармоқ ва бошқа коммуникация воситаларида юборилган) электрон далилларни тақдим этиш ҳолатлари кўп учраши, электрон далилларни текшириш ва баҳолаш, электрон далилларни экспертиза қилиш билан боғлиқ процессуал ҳаракатларни амалга ошириш механизми мавжуд эмаслиги бир қатор муаммоларни келтириб чиқармоқда.

Электрон жиноят ишида унинг қулай, ихчам, мобил ва осон бошқарилиши тергов органлари ва суд учун ижобийдир. Жиноят иши материалларини (юрисдикциясига кўра бир ички ишлар бўлимидан бошқасига; текшириш учун терговчидан прокурорга ёки тергов органи раҳбарига[1]; прокурордан судга кўриб чиқиш учун ва ҳоказо) юбориш учун вақт тежалади; қоғоз харажатларини камайтириш; жиноят процесси иштирокчиларини жиноят иши материаллари билан таништиришда қулайлик; ихчам сақлаш; нусха кўчириш қулайлиги.

Ҳар қандай янги технология сингари, жиноят ишининг электрон шаклини жорий этиш режани тўғри ва тўлиқ амалга оширишга имкон бермайдиган маълум тўсиқлар билан тўсқинлик қилиши мумкин.

Биринчидан, электрон жиноят ишлари ва электрон маълумотлар базаларини зарарли дастурлардан, рухсатсиз кириш ва хакерлик ҳужумларидан ҳимоя қилиш тизимини ишлаб чиқмасдан туриб, ушбу технологияларни жиноят процессига жорий этиш ва улардан хотиржам фойдаланиш мумкин бўлмайди.

Иккинчидан, жиноят процессининг иштирокчиларининг жиноят ишини эркин тергов қилиш, зарур электрон иш материалларини шакллантириш имкониятига эга бўлиши учун барча тергов органлари, суриштирув органлари ва прокурорларни мобил автоматлаштирилган тизимлар ва технологиялар билан жиҳозлаш масаласини ҳал этиш зарур.

Учинчидан, барча ҳудудларда ва тергов, суриштирув, прокуратура ва суднинг барча таркибий бўлинмаларида ягона стандарт (ягона дастурий таъминот) жорий этилиши учун электрон жиноят ишларининг процессуал шаклларини унификация қилиш, ҳужжатларни ҳар қандай ўзгартириш ёки қалбакилаштиришни истисно қилиш билан боғлиқ муаммони ҳал қилиш зарур.

Тўртинчидан, “электрон жиноят иши”дан фойдаланишда жиноят процесси иштирокчилари (айниқса, гумон қилинувчи, айбланувчи ёки жабрланувчи) ҳуқуқларининг ҳар қандай бузилиши ёки камситилишининг олдини олиш жуда муҳим.

Бешинчидан, электрон жиноят иши технологиясидан муваффақиятли фойдаланиш учун жамиятда ҳар бир киши компьютер технологияларидан бемалол фойдалана олиши зарур.

Олтинчидан, жиноят ишининг электрон материалларига тергов, эксперт, суд ва бошқа органларнинг муҳрларини босиш билан боғлиқ масалани уларни тасдиқлаш учун ҳал қилиш зарур, чунки электрон ҳужжатда муҳрнинг рақамли шакллари мавжуд эмас.

Еттинчидан, дастлабки босқичда бир мунча вақт жиноят иши юритишнинг иккита шакли параллел равишда мавжуд бўлиши мумкин, чунки бу омил янги технологияга “кўникиш” имкониятини бериш ва жиноят ишининг электрон шаклининг ишлаш жараёнидаги кўплаб хато ва камчиликларни бартараф этиш учун зарурдир.

Саккизинчидан, жиноят ишининг электрон шаклини ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этишда, биринчи навбатда, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан бир қаторда ижро этувчи ҳокимият органлари, хусусан, ҳукумат томонидан ҳам кўмак зарур.

Анорбоев Амириддин Улуғбек ўғли
Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги юридик бўлим бош юрисконсульти

КИБЕРЖИНОЯТЛАРНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ ВА БУГУНГИ КУНДАГИ РИВОЖИ

Anorboev Amiriddin Ulugbek ugli
The Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan, Chief Lawyer Consultant

THE HISTORY OF CYBERCRIME AND ITS DEVELOPMENT

Анорбоев Амриддин Улугбек угли
Министерство по развитию информационных технологий и коммуникаций Республики Узбекистан, главный юрист-консультант

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ И ЕЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация: *Ушбу мақолада кибержиноятлар тарихи, ушбу соҳадаги миллий ва хорижий қонунчилик, шунингдек, статистик маълумотлар асосида кибержиноятларнинг ҳозирги ҳолати муҳокама қилинади.*

Калит сўзлар: *жиноятчилик, ахборот технологиялари, кибержиноятчилик, киберхавфсизлик, зарарли дастурлар, жиноят қонунчилиги, жиноий ҳуқуқ, тарих, криминология.*

Abstract: *The article covers the history computer crime, domestic and foreign legislation in this area, as well, as this is a modern condition cybercrime in the example statistical data.*

Key words: *crime, information technology, cybercrime, cybersecurity, malicious software programs, criminal legislation, criminal law, history, criminology.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается история киберпреступности, отечественного и зарубежного законодательства в данной области, а также, современное состояние киберпреступности на примере статистических данных.*

Ключевые слова: *преступление, информационные технологии, киберпреступность, кибербезопасность, вредоносные программы, уголовное законодательство, уголовное право, история, криминология.*

Олам яратилибдики, ундаги жамики мавжудот бир-бирлари билан ўзаро мулоқот қилади. Айнан ушбу мулоқот қилишда одамзот бошқа жонзотларга нисбатан ўзининг интеллектуал фаолияти ва ушбу фаолият натижасида вужудга келган ўзига хос тараққиёти билан алоҳида ажралиб туради, у томонидан яратилган технологиялар бугунги кунда уларнинг оғирини енгил қилмоқда. Аммо ушбу технологиялардан ҳар ким турлича мақсадларда фойдаланиши бугунги кунга технология ҳам инсониятнинг дўсти, ҳам душмани даражасига айланиб улгурди. Экспертларнинг фикрича, ҳозирги кунда айнан кибержиноят натижасида ҳар йили камида 200 млрд. доллар дунё ҳамжамияти зарар кўрмоқда, оддийгина банк ўғрилари 10 минг долларни олиш учун ўз ҳаётини хавф остига қўйиш орқали 1 млн. доллар миқдоридаги фойда кўришни кўзлаши [1], биргина тўлов карталари фирибгарлиги жинояти амалга оширилиши натижасида 2018-йилда дунё аҳолиси 24,26 млрд. долларга зарар кўрганлиги, мутахассисларнинг таъкидлашича, бу рақамлар 2025-йилга келиб 44 млрд. долларга етишиши [2] тахмин қилинаётганлиги орқали билиш мумкинки, одамзот ўзининг келажаги учун бўладиган хавфларнинг олдини олиши ва шу сабабдан ҳам бу борада жиддий ислотҳотлар ўтказиш жуда муҳим аҳамиятга эга.

Юқоридаги душман турли замонларда турлича номланган, жумладан, “ахборот хуружи”, “электрон ҳисоблаш машиналарининг ҳужуми”, “роботлар таҳдиди”, “компьютер жиноятчилиги”, “ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар”, “киберҳужум”, “кибержиноят”, “киберҳодиса”, “киберҳуқуқбузарлик”, “киберзаравонлик”, “киберкураш”, “кибероруш” ва бошқалар. Бироқ, уларнинг барчаси ахборот технологиялари ва коммуникациялари орқали содир этилиши билан характерланади. Ахборот технологиялари замон зайли билан ривожлангани сайин унинг тарихи ҳам шунга монанд равишда ривож топиб келган.

Умуман олганда, кибержиноятчилик тушунчаси ўтган асрнинг 60 йилларида интернет тармоғининг яратилиши билан боғлиқ бўлиб, 1962 йилда профессор Жон Ликлайдер ўзининг “Galactic Network” компьютер тармоғи орқали Интернет тармоғини яратиш концепциясига асос солган.

Шундай қилиб, интернет тармоғи яратилиши билан биринчи интернет жиноятчиси вужудга келган ва у Жон Драпер (John Draper) исмли шахс бўлиб, Жон Драпер 1970-йилларда шаҳарлараро ва халқаро қўнғироқлар орқали телефон тармоқларини бузиш билан шуғулланиши оқибатида дастлабки кибержиноятлар содир этилган.

СССРда ахборот технологиялари соҳасидаги илк юқори даражадаги жиноят эса 1979-йилда Вильнюс шаҳрида қайд этилган ва бу ҳолат ўша пайтда давлатга 80 минг рубль зарар етказилишига сабабчи бўлган бўлиб, бу ўша пайтда машҳур автомашина бўлган “Volga” русумидаги 8 та автомашинанинг пули деган гап эди [3] ва у Интерпол халқаро ташкилоти томонидан дастлабки рўйхатга олинган кибержиноят сифатида эътироф этилган [4]. Белоруссия Республикасида эса юқори технологиялар орқали

содир этилган илк жиноят 1998-йил 20-ноябрь куни рўйхатга олинган бўлиб, кибержиноятчилар Белоруссиянинг энг йирик метрополитен провайдери мижозлари орасидан интернет фойдаланувчилари тармоқ маълумотларига рухсатсиз киришни амалга оширишган [5].

Интернет тармоғининг ривож топиши оқибатида интернет ҳакерлиги деган ахборот технологиялари соҳасида алоҳида тармоқ вужудга келган. Илк компьютер ҳакерлари 1960-йилларда Массачусетс технология институтида пайдо бўлган, дастлабки интернет ҳакерлиги эса ўзларини “414 гуруҳи” (банда-414) деб номланган вояга етмаган ўспиринлар томонидан содир этилган бўлиб, улар 9 кун ичида 60 дан ортиқ шахсий компьютерларни, АҚШдаги Лос-Аламос Давлат ядро қуролини ўрганиш лабораторияси компьютерларини бузиб ташлашган. 1983 йилда эса ушбу дастлабки кибертеррористлар гуруҳи ушланган. Шу орқали 1983 йилда “Военные игры” (“WarGames”) номли дастлабки ҳакерлар тўғрисидаги фильм яратилган.

1983-йилда Парижда Иқтисодий ҳамкорлик ва ривожланиш ташкилотининг экспертлар гуруҳи компьютерлар жиноятларининг криминологик таърифини беришган ва уларнинг фикрича, компьютерлар жиноятлари автоматлаштирилган ишлов бериш ва (ёки) маълумотларни узатиш билан боғлиқ ҳар қандай ноқонуний, ахлоқий ёки рухсатсиз хатти-ҳаракатлар ҳисобланади [6].

1984-йилдан бошлаб “2600” илк ҳакерлар тўғрисидаги журнал мунтазам равишда чоп этила бошлаган. 1988 йилда Червь Моррис томонидан дастлабки зарарли вирус яратилган, бунинг оқибатида АҚШ Ҳукумати ва университетларидаги 6000 га яқин компьютерлар ушбу зарарли вирус қурбони бўлишган. Натижада, шу каби зарарли фаолиятга қарши курашиш мақсадида АҚШда CERT Интернет хавфсизлигини таъминлаш маркази ташкил қилинган ва у томонидан 1988 йилда 6 та, 1989-йилда 132 та, 1990-йилда эса, 252 та киберходиса аниқланган [7]. 1990-йилда АҚШда “Sundevil” операцияси уюштирилиб, АҚШнинг 14 шаҳридаги ҳакерларга нисбатан мисли кўрилмаган ов уюштирилган. Бунинг оқибатида, 1993-йилда Лас-Вегасда ҳакерларнинг биринчи ҳар йили ўтказиладиган йиғилиши бўлиб ўтган [8].

Кибержиноятчилик турли замонларда турлича номлангани сабабли унинг ривожланиш тарихи ҳам жой ва маконга қисман боғлиқ бўлган, хусусан, АҚШда кибержиноятчилик ва унга қарши курашиш ўзгача ривожланган бўлса, Россияда бошқача ривож топган. Ушбу ҳолатни оддийроқ тушунтиришга харакат қилсак, ихтирочи ёки кашфиётчи бирон-бир ихтиросини ёки кашфиётини яратганидан кейин фойда кўриши мумкин, бунга эса ғаразгўйлик мақсадларда қаровчи шахслар барча замонларда ва жамиятда топилмай қолмаган, натижада, ҳакерлар ушбу кашфиёт ортидан келаётган бойликка кўз олайтириши натижасида кашфиётчи ўзининг маҳсулотини ҳимоя қилиш чораларини кўради,

давлатдан ёрдам кўради, давлат ҳам ҳакерлар ҳужуми ушбу технологияга нисбатан қай тариқа амалга оширишига қараб ўз сиёсатини юритади, бунда кибержиноятчиликка қарши курашувчи технологиялар ҳам турлича бўлади. Оддийгина мисол, “Telegram”, “WhatsApp”, “Одноклассники”, “Facebook” каби ижтимоий тармоқлар аслида ўзаро мулоқот учун зарур бўлса-да, аммо уларнинг қулайлиги ва хавфсизлиги турличадир. Фойдаланувчилар ҳам ушбу қулайликларга қараб мазкур тармоқлардан фойдаланадилар.

Кибержиноятчилик жой ва маконга қараб ривожини ўрганиш мақсадида хориж тажрибасига назар ташласак, қуйидагиларга гувоҳ бўламиз, хусусан, Россияда компьютер технологияларидан фойдаланган дастлабки жиноят 1991-йилда СССР ташқи иқтисодиёт банкидан 125,5 минг доллар миқдоридаги пул маблағларини ўғирлаш билан боғлиқдир. Россияда 1997-йилда бу каби шундай жиноятлардан 7 та, 1999-йилда 294 та, 2000-йилда 800 та, 2003-йилда 1602 та, 2004 йилда 8739 та [9], 2011-йилда 5396 та, 2012-йилда 5725 та, 2013-йилда 6423 та, 2014 йилда 4403 та, 2015 йилда 5329 та, 2016-йилда 3762 та, 2017-йил январь-июнь ойларида 3994 та, 2018-йил январь-июнь ойларида 3207 та [10], 2019-йилда 180 153 та [11] аниқланган.

Шу ўринда Натан Ротшильднинг ахборотга эга бўлган киши дунёга ҳукмронлик қилади [12], деган сўзлари ёдимизга келади, беихтиёр. Сабаби оддий, юқорида кўриб ўтганимиздек, Россия тарихида 1997 йилда 7 та рўйхатга олинган компьпютер соҳасидаги жиноятчилик 2019 йилда 180 153 тага кўпайган бўлиб, бу рақамлар 1997 йилга нисбатан, қарийб 2022 йилда 25736 баробар кўпайгани орқали айтишимиз жоизки, бу соҳадаги зарарлар, айниқса, аҳоли кўрадиган зарарлар миқдори йилдан йилга кўпайиб бормоқда. Айнан ушбу зарарлар ахборот технологияси орқали амалга оширилаётганлигидан ва бу ахборотни тўплаш, сақлаш, излаш, унга ишлов бериш ва уни тарқатиш учун фойдаланиладиган жами услублар, қурилмалар, усуллар ва жараёнлар [13] эканлигидан ҳам билишимиз мумкинки, ахборотга эга бўлган инсон дунёга ҳукмронлик қилади, дунёни бошқаради.

“Ахборот” тушунчаси эса фанга америкалик муҳандис, криптиктаҳлилчи, математик олим Клод Элвуд Шеннон томонидан 1948йилда “бит”-маълумот бирлигини ихтиро қилиш орқали киритилган [14].

Кибержиноят ривож топиши билан унинг тармоқлари ҳам ривож топган. Экспертларнинг фикрича, фишинг орқали маълумотларни ўғирлаш, махфий мақсадга эга мобиль иловалар орқали электрон қурилмаларга кириб бориш ва алоқанинг ҳимоя қилинмаган каналларини томоша қилиш орқали бугун кўпчилик интернет фойдаланувчилари кибер жиноятларнинг қурбонига айланмоқда [15]. Ушбу тармоқ ичида ўзининг салбий оқибатлари улканлиги билан кибертерроризмдан ажралиб туради. Аслида, кибертерроризм 1970 йилларда бошланган бўлиб, уни фанга В. Колин 1980

йилларда олиб кирган [16]. Кибертерроризм ўзининг жуда катта зарарли салбий оқибатларга олиб келиши билан характерланади, хусусан, 1993 йил Лондонда кибертеррористлар брокерлик фирмалари, банклар ва бошқа фирмалардан 10 млн. фунт стерлингдан 12 млн. фунт стерлинггача бўлган пул маблағларини талаб қилишган. 1994 йилда “Владимир Левин иши” бутун дунёда “компьютер жиноятларининг трансмиллий тармоғи мақомини олган. Ушбу жиноят россиялик кибержиноятчилар томонидан 12 кишидан иборат халқаро уюшган гуруҳ томонидан АҚШ, Финландия, Исроил, Швейцария, Германия, Россия, Голландиядаги банклардан 10 млн. 700 минг 952 АҚШ доллари миқдоридаги 40 та пул ўтказмаларига нисбатан амалга оширилган кибержиноят бўлиб, кибержиноятчилар 400 минг АҚШ доллари миқдоридаги пул маблағларини ўзлаштириш вақтида қўлга туширилган иш эди [17].

Кибертерроризм аҳолига ҳам, давлатга ҳам, юридик шахсларга ҳам, ҳатто, алоҳида дахлсизлик ҳуқуқига эга бўлган шахсларга нисбатан ҳам амалга оширилиши билан ўзига хос аҳамиятга эга бўлиб, шундай жиноятлардан бири 1996 йилда “Тамил-Илама йўлбарсларини озод қилиш” террористик уюшма Шри-Ланка дипломатик вакилининг телекоммуникация тармоқларига нисбатан амалга оширилган. 1997-йил сентябр ойида эса, кибертеррористлар НАСА ва “Атлантис” космик кемасига кибертеррористик ҳужум уюштиришган. Натижада, 1998-йилнинг ўзидаёқ АҚШда 30 га яқин террористлар кибертеррорист сифатида рўйхатга олинган. 2004 йилда эса, Жанубий Кореянинг мудофаа вазирлигига нисбатан киберҳужум уюштирилган ва ўнлаб вазирлик компьютерлари ишламай қолган [18].

Энг ачинарлиси, кибержиноят ёки кибертерроризм субъекти ёш танламайди, мисол учун, 1998-йилда 12-ёшли бола АҚШнинг Аризона шаҳридаги тўғонни бошқарадиган компьютер тизимига ноқонуний кириши оқибатида кибертерроризм атамаси бутун дунёга тарқалиб кетган [19].

Кибержиноятчиликнинг кейинги ривожи 1999-йил январь ойида “Хеппи-99” номли Интернет тармоғидаги дастлабки вируснинг ихтиро қилингани бўлди. Натижада, 1999-йил август ойида Хитой ва Тайвандаги компаниялар бир-бирига нисбатан ўзаро жуда кенг миқёсдаги киберҳужумлар уюштиришди. 2000-йил 1-май куни Манила шаҳрида “Мен сени севаман” номли интернет тармоғида компьютер вируси топилди.

Тўғри, давлатлар ҳам кибержиноятчиликка қараб туришмаган, хусусан, давлатда киберхавфсизликни таъминлаш мақсадида совуқ уруш иштирокчиси АҚШда, CERT Интернет хавфсизлигини таъминлаш маркази ташкил қилинган бўлса, 1986-йилдаёқ СССР Ички ишлар вазирлиги тизимида Электрон урушларга қарши курашиш бошқармаси ташкил этилган бўлиб, у “Р” бошқармаси номи билан қисқача аталган. 1997-йилда Россия Федерацияси жиноят кодексига 28-боб компьютер маълумотлари соҳасидаги жиноятлар киритилган ва ушбу соҳадаги жиноятларга

нисбатан суриштирув харакатларини олиб бориш мақсадида “Р” бошқармасига тезкор-қидирув бўлинмаси киритилган. 1998-йил 7 октябрь куни эса “Р” бошқармаси юқори технологиялар соҳасидаги жиноятларга қарши курашиш бошқармаси этиб қайта номланган ва унинг Компьютер маълумотлари соҳасидаги жиноятчиликка қарши курашиш бўлими, Телекоммуникация соҳасидаги жиноятчиликка қарши курашиш бўлими, Радиоэлектрон воситалар ноқонуний савдосига қарши курашиш ва махсус техник воситалар бўлимлари мавжуд бўлган.

1999-йилгача РФнинг 81 та таъсис тузилмаларида Ички ишлар вазирлиги, Ички ишлар бошқармаси ва Ички ишлар бўлимлари даражасига тенглаштирилган махсус таркибий тузилмалар ташкил қилинган. 2000-йилдан бошлаб ушбу бўлимларга юридик мутахассисликдаги ходимларнинг ҳам ишга қабул қилиниши натижасида РФда мазкур соҳадаги жиноятчиликка қарши курашишнинг самарали усуллари яратилди. Шунингдек, юқоридаги бошқарма ҳам Ички ишлар вазирлиги таркибига ўтказилди [20].

Россия Федерацияси ҳукуматининг “Юқори технологиялар соҳасидаги жиноятларга қарши курашиш ва Россия Федерациясининг халқаро шартномалар ва мажбуриятларни бажариш тўғрисида” 1999-йил 22-октябрдаги 1701-Ф-сон Фармойиши билан давлат бюджети маблағлари бўйича смета қайта кўриб чиқилган ва шундан бери сметада компьютер соҳасидаги жиноятларга қарши курашиш бўйича зарур маблағларни кўзда тутиш белгиланган бу борадаги ишларнинг молиялаштирилишига имконият яратиб берди.

Кибержиноятларнинг жой ва маконга, замонга ўзаро боғлиқлиги сабабли ҳам ушбу жиноятларлар турли мамлакатларда турлича номланган ҳамда уларнинг таркибига турли жиноятлар киритилган. Хусусан, Японияда у икки гуруҳга ажратилган бўлиб, 1-гуруҳга компьютерларга кириш билан боғлиқ жиноятлар деб номланиб, ушбу гуруҳга компьютер фирибгарлиги, ёзувларга зарар етказиш ва бизнесга аралашиш, тўлов карталари билан боғлиқ, компьютерга рухсатсиз кириш каби жиноятлар ва 2-гуруҳга интернет тармоғидан фойдаланиш орқали содир этиладиган жиноятлар деб номланиб, ушбу гуруҳга фирибгарлик, муаллифлик ҳуқуқининг бузилиши, ахлоқсиз характердаги одобсиз хабарлар юбориш, болалар порнографияси билан боғлиқ материалларни тарқатиш билан боғлиқ жиноятлар киритилган [21].

Францияда эса ИТ-технологиялари ёрдамида содир этилган, яъни маълумотларни автоматик қайта ишлаш соҳасидаги зарарли сохта банк карталари ва шахсий маълумотларни ҳимоя қилувчи паролларни клонлаш, бузиш имконини берадиган дастурий таъминот, компьютер ёки тармоқлардан фойдаланиш қоидаларини бузиш, иккинчи гуруҳга эса, жиноий ишларни тайёрлаш ва содир этишда рақамли технологиялардан фойдаланишга оид жиноятлар кибержиноятлар тоифасига киритилган [22].

Украинада эса электрон ҳисоблаш машиналари, компьютерлар, автоматлаштирилган тизимлар, компьютер тармоқлари ёки телекоммуникация тармоқларининг ишлашига ўзбошимчалик билан аралашиш, зарарли дастурий ёки аппарат воситаларини ишлатиш, тарқатиш ёки сотиш, шунингдек, маркетинг учун яратиш, рухсат берилмаган маълумотларни электрон ҳисоблаш машиналари, автоматлаштирилган тизимларда, компьютерларда, ахборот воситаларида тарқатиш ва кириш тақиқланган воситаларда сақланадиган маълумотларни тарқатиш, уларга рухсатсиз кириш, улардан фойдаланиш, ҳимоя қилиш қоидаларини бузиш, уларнинг ишлашига тўсқинлик қилиш кибержиноятлар тоифасига киритилган [23].

Кибержиноятчилик турли даврларда турлича ривож топган каби унинг доктринал ва расмий таърифлари турличадир.

Хусусан, Европа Кенгашининг 2001 йилдаги “Кибержиноят ҳақида”ги Конвенциясига асосан кибержиноят кибермуҳитда содир этиладиган ҳар қандай жиноятдир [24].

M. Gurckенинг фикрича, компьютер тизими, тармоғи, уларга уланадиган бошқа воситалар орқали ёки уларнинг ёрдамида компьютер тизими, тармоғи ёки компьютер ахборотига қарши кибермуҳитда содир этиладиган жиноятлар мажмуидир [25].

Наздимизча, ушбу фикрларга қисман қўшилсак бўлади, бироқ кибержиноят ҳар доим ҳам компьютер технологиялари ёрдамида содир этилмайди. Мисол учун, Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 168-моддаси 2-қисми “в”-бандига асосан, компьютер техникаси воситаларидан фойдаланиб фирибгарлик жиноятини содир этганлик учун жиноий жавобгарлик белгиланган. Бироқ, телекоммуникация тармоғи ёки айтайлик “Telegram” тармоғи орқали жиноятчи фойдаланувчини алдаш ёки ишончини суиистеъмол қилиш йўли билан, яна-да аниқроқ айтганда, жиноятчи кимдирнинг ногиронлигидан фойдаланиб, унинг расмини қўйган ҳолда, ўзининг пластик картасини “Telegram” тармоғига жойлаштириб, фойдаланувчилардан инсонийлик юзасидан ногиронлиги бор шахсга ёрдам беришни сўраш орқали уларнинг ёки ногиронлиги бор шахснинг мулкини ёки мулкка бўлган ҳуқуқини қўлга киритиши мумкин. Мазкур қилмишни, компьютер техникаси ёрдамида содир этилган деб бўлмайди. Сабаби, компьютер техникаси тушунчаси ЖКнинг 4, 10, 14, 16-моддаларидан келиб чиқиб, Жиноят кодексининг VIII бўлимида белгилаб қўйилмаган, қолаверса, Ўзбекистон қонунчилигида ушбу тушунчанинг моҳияти кўрсатиб берилмаган, шунингдек, техник томондан компьютер техникаси тушунчаси “Telegram” тармоғига ўхшаш ахборот-коммуникация технологияларини ўзида тўлиқ қамраб ололмайди, ўзининг техник имкониятлари ва фанда қўлланилиши бўйича у бошқа аборот-коммуникация технологиясига ўхшаш функцияларни тўлиқ бажара олмайди. Шунга кўра, фикримизча, юқоридагиларга асосан, кибержиноят тушунчасининг доктринал ҳолати қайта кўриб чиқилиши мақсадга мувофиқ.

Дунё тамаддудининг ривож топиши натижасида ахборот-коммуникация технологиялари орқали содир этиладиган жиноятлар турлича номлангани ҳамда турли давлатларда унга қарши турли йўсинларда кураш олиб борилаётганлиги учун ҳам ҳозирги кунда ахборотни муҳофаза қилиш, ахборотни ошкор қилганлик, компьютер жиноятчилиги юзасидан 500 дан зиёд қонун ҳужжатлари мавжуд [26].

Фикримизни янада соддароқ тушунтирадиган бўлсак, кибержиноятларга бўлган таъриф доимо мазкур таъриф берилаётган пайтдаги давлатдаги мавжуд ахборот технологияларнинг ривожи билан боғлиқ бўлган. Шу сабабдан ҳам К.Е. Зинченко, Л.Ю. Исмаилова, А.Н. Караханьян, Б.В. Киселев, В.В. Крылов, Я.М. Мастинский. Н.С. Полевой, Ю.Н. Соловьев, В.В. Хургин, С.И. Цветков олимларнинг фикрича, бу каби жиноятлар электрон ҳисоблаш машиналари орқали содир этилган жиноятдир [27]. Мазкур тушунча 1994 йилда берилаётганлиги орқали таъкидлашимиз жоизки, Ўзбекистон тарихи нуқтаи назаридан Ўзбекистон Республикасининг “Электрон ҳисоблаш машиналари учун яратилган дастурлар ва маълумотлар базаларининг ҳуқуқий ҳимояси тўғрисида” 1994 йил 6 майдаги 1060–XII-сон Қонуни [28] айнан 1994-йилда қабул қилинганлиги сабабли ҳам мазкур тушунчалар вақт нуқтаи назаридан тўғри талқин қилинган.

Олимлар Н. Салаев ва Р. Рўзиевлар ахборот хавфсизлигига таҳдид солувчи, бевосита компьютер воситалари орқали ёки ахборот технологиялари воситасида содир этиладиган қонунга хилоф ижтимоий хавфли қилмишни ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлардир деб аталиб, унга компьютер жиноятчилиги синоним эканлигини таъкидлашадилар. Шунингдек, компьютер тизими, тармоғи, шунингдек, компьютер тизими, тармоғига уланадиган бошқа воситалар орқали ёки уларнинг ёрдамида ҳамда компьютер тизими, тармоғи ёки компьютер ахборотига қарши кибермуҳитда содир этилган ижтимоий хавфли қилмишни кибержиноят деб баён қилишиб, юқоридаги жиноятларни кибержиноятдан фарқли жиноят деб таъриф беришади [29].

Биз ушбу фикрларга қўшила олмаймиз, сабаби, юқорида таъкидлаганимиздек, кибержиноятчилик ахборот-коммуникация технологиялари орқали содир этиладиган қилмиш бўлиб, у вақт ва макон танлаган ва шунга қараб ўзининг таърифига эга бўлган. Қолаверса, кибермуҳит компьютер жиноятчилигида ҳам бўлади, хатто Европа Кенгашининг 2001-йилдаги “Кибержиноят ҳақида”ги Конвенциясининг рус тилидаги матнига назар ташласак, баъзи ҳолатларда унинг компьютер жиноятчилиги тўғрисидаги Конвенция деган таржимасига ҳам гувоҳ бўламиз [30]. Мазкур ҳолатни янада аниқроқ тушуниш учун битта ҳолатни кўриб ўтайлик, ЖКнинг 169-моддасининг 3-қисми “б”-бандида назарда тутилган компьютер техникаси орқали содир этиладиган ўғрилик учун ҳам кибермуҳит, яъни виртуал муҳит бўлиши керак, яъни ўғрилик содир

қилишдан олдин жиноятчи жабрланувчининг пул маблағлари сақланаётган картасининг паролига эга бўлади ҳамда телекоммуникация ёки интернет тармоғидан фойдаланиб ўзининг қилмишини содир этади. Айнан мана шу жараёндаги муҳитни биз кўз билан кўролмаймиз, қўл билан ушлолмаймиз, аммо жабрланувчининг картасидаги кодни териб, қандай қилиб жиноятчи ушбу маблағларга эга бўлишини англай оламиз. Бу муҳит эса кибермуҳит дейилади. Бундан ташқари, муаллифлар компьютер техникаси доимо ҳам ахборот технология ҳисобланмаслигини, бошқа коммуникациялар орқали ҳам кибержиноятни содир қилиш мумкинлигини, компьютер тармоғи, тизимидан ташқари телекоммункиация тармоғи, интернет тармоғи ва шу каби тармоқлар ҳам мавжудлигини инобатга олишмаган.

Шунингдек, “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонунга асосан, ушбу Қонуннинг мақсади ахборотлаштириш, ахборот ресурслари ва ахборот тизимларидан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Аммо ушбу Қонунда компьютер техникасининг тушунчаси кўрсатиб ўтилмаган ва у техник имкониятлари нуқтаи назаридан ўзида бошқа ахборот технологияларини қамраб ололмайди. ЖКнинг 4, 10, 14, 16-моддаси эса жиноят ва жазо қонунийлик принципига амал қилиши лозимлигини кўрсатади. Юқоридагиларга асосан, мазкур олимларнинг фикри ҳам техник, ҳам доктринал, ҳам ҳуқуқий жиҳатдан фикримизча етарлича асосланмаган.

Кибержиноятлар тушунчасининг вақтга нисбатан ўзаро боғлиқлигини яна 1979-йилда Даллас адвокатлар ассосациясининг конференцияси томонидан дастлаб компьютер жиноятларининг асосий белгилари ўша пайтдаги мавжуд ахборот-коммуникация технологияларининг техник имкониятлари юзасидан белгиланганлиги орқали таъкидлашимиз мумкин [31].

Умуман олганда, кибермуҳит ёки кибермакон тушунчалари биринчи марта 1982 йилда Канадалик фантастик ёзувчи У. Гибсон томонидан “Burning Chrome” новелласида ишлатилган бўлиб, ушбу тушунча “Neuromancer” романи орқали оммалашиб кетган[32]лигидан ҳам айтиб ўтишимиз жоизки, кибермуҳит бўлмас экан, кибержиноят ҳам унинг бошқа синоними бўлган жиноят ҳам содир этилмайди.

Юқоридагилар орқали кибержиноятлар тушунчасининг доктринал ва расмий ҳолати хусусида хулосага келадиган бўлсак, ушбу тушунча биз хоҳлаймизми йўқми макон ва замон танлайди, ижтимоий муносабатлар ривожланган сари уларнинг номи ва уларнинг имкониятлари кенгайиб бораверади.

Шу сабабдан ҳам, наздимизча, ҳозирги кунда ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида содир этиладиган ва ахборот орқали содир этиладиган жиноятларни алоҳида қисмларга бўлиш ҳамда бунда ахборот-коммуникация технологиялари соҳасида содир этиладиган, ўзида техник

имкониятлар орқали содир этиш имконини берадиган жиноятларни кибержиноятлар, ахборот соҳаси (оммавий-ахборот воситалари орқали)даги жиноятларни ахборот хавфсизлиги соҳасидаги жиноятлар деб икки гуруҳга ажратиш, шунингдек, жиноят қонунчилигимизни ушбу тушунчадан келиб чиқиб, қайта кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир.

Миллий қонунчилигимизда кибержиноятчилик ва киберхавфсизлик тушунчаси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ–4947-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид давлат дастурининг 297-бандида илк бора расмий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ишлатилган бўлиб [33], кейинги ривожи қуйидаги кетма-кетлик бўйича ривож топган, яъни тармоқлар, дастурий маҳсулотлар, ахборот тизимлари ва ресурсларининг киберхавфсизлигини таъминлаш ва уларни ҳимоя қилишнинг замонавий технологияларини жорий этиш соҳасида Ўзбекистон Республикаси киберхавфсизлигини таъминлаш, бу борада ягона давлат сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш, Ўзбекистон Республикаси ахборот маконидаги рухсатсиз киришга уринишлар ва компьютер вирус ҳужумлари тўғрисида ўз вақтида хабардор қилиш ва жавоб қайтариш методлари ва воситаларидан фойдаланиб, бутунжаҳон интернет ахборот тармоғининг миллий сегментидаги веб-сайтларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш механизмини амалга ошириш, телекоммуникациялар, электрон ҳукумат, почта алоқаси, ахборотлаштириш ва радиочастоталар спектри соҳасидаги ҳуқуқбузарликларнинг мониторингини ўтказиш, уларни аниқлаш ва тўхтатиш қисмида ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари билан ўзаро ишлаш, ахборот хавфсизлиги ва киберхавфсизлиги таҳдидларини аниқлаш ва уларга қарши курашиш, ахборот-коммуникация технологияларидан жиноий, разведка ва террористик мақсадларда фойдаланиш билан курашишнинг самарали механизмларини шакллантириш ва жорий қилиш йўли билан ушбу мақсадларда фойдаланиш ҳолатларини тўхтатиш, ахборот хавфсизлиги ва киберхавфсизлик таҳдидлари тўғрисидаги ахборотларни йиғиш ва таҳлил қилиш, ахборот хавфсизлиги ва киберхавфсизликни таъминлаш соҳасида илмий-тадқиқот, тажриба-конструкторлик, лойиҳа, қидирув ва технологик ишланмаларни ташкил қилиш ва ўтказиш Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг асосий вазифаларидин бири сифатида белгилаб қўйилди [34], давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал маконда иштирокини фаоллаштириш концепцияси тасдиқланди [35], хўжалик юритувчи субъектлар томонидан ахборот хавфсизлиги ва киберхавфсизлик бўйича техник ва технологик талаблар бажарилишини назорат қилади, ўрганади ва текшириш Ўзбекистон Республикаси Ахборотлаштириш ва

телекоммуникациялар соҳасида назорат бўйича давлат инспекцияси ваколатига берилди [36], ахборот технологиялари ва киберхавфсизлик йўналишларида юқори малакали мутахассисларни халқаро стандартлар даражасида тайёрлашни таъминловчи Ўзбекистонда Шарда университети ташкил этилди [37], киберхавфсизликни тартибга солиш соҳасида ваколатли орган этиб Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати белгилаб қўйилди [38], Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборот мавжуд бўлган интернет тармоғи веб-сайтидан ва (ёки) веб-сайт саҳифаларидан фойдаланишни чеклаш тартиби ишлаб чиқилди [39], жиноят қонунчилигимизда эса 1994 йилда Жиноят кодекси қабул қилинган вақтда ахборотлаштириш қоидаларини бузиш жинояти, яъни ахборот тармоғидан рухсатсиз фойдаланиш ёки фойдаланишга рухсати бўлгани ҳолда тегишли ҳимоя чораларини кўрмаслик ёки ахборотлар тармоғидан қонунга хилоф равишда ахборотлар олиш, шунингдек, ахборотлаштириш тизимидан фойдаланишга рухсати бўлган ҳолда ундаги маълумотларни қасддан ўзгартириш, йўқотиш, олиб ташлаш ёки йўқ қилиб юбориш анча миқдорда зарар етказилишига сабаб бўлгани учун компьютер тизимларида сақланаётган маълумотлар ёки дастурларни ўзгартириш мақсадида тегишли рухсатсиз компьютер вируслари ёки дастурларини ишлаб чиқиш ва тарқатиш, шунингдек, рухсати бўлмагани ҳолда ахборот тизимидан фойдаланиш маълумотларнинг бузилиши, олиб ташланиши, йўқ қилиб юборилиши ёки бу тизимнинг ишдан чиқишига сабаб бўлгани учун жиноий жавобгарлик ЖКнинг 174-моддасида белгилаб қўйилган эди, аммо ахборотлаштириш ва маълумотлар узатиш соҳасида қонунга хилоф ҳаракатлар содир этганлик учун жавобгарлик кучайтирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг мазкур моддаси чиқарилиб, “XX[1] боб. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар” боби Жиноят кодексига киритилди ва ушбу бобда ахборотлаштириш қоидаларини бузиш, компьютер ахборотидан қонунга хилоф равишда (рухсатсиз) фойдаланиш, компьютер тизимидан қонунга хилоф равишда (рухсатсиз) фойдаланиш учун махсус воситаларни ўтказиш мақсадини кўзлаб тайёрлаш ёхуд ўтказиш ва тарқатиш, компьютер ахборотини модификациялаштириш, компьютер саботажи, зарар келтирувчи дастурларни яратиш, ишлатиш ёки тарқатиш учун жиноий жавобгарлик киритилди [40].

Бироқ ушбу жиноятлар умумий ном остида ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар деб номланган ҳолда, 2001-йилда компьютер техникаси воситаларидан фойдаланиб айбдорга ишониб топширилган ёки унинг ихтиёрида бўлган ўзганинг мулкини ўзлаштириш ёки растрата қилиш йўли билан талон-тарож қилганлик учун ЖКнинг 167-моддасининг 3-қисми “г”-банди, фирибгарлик, яъни алдаш ёки ишончни суиистеъмол қилиш йўли билан ўзганинг мулкини ёки ўзганинг мулкига бўлган ҳуқуқни қўлга киритганлик учун ЖКнинг 168-моддаси 2-қисми “г”-банди, ўғрилик, яъни

ўзганинг мол-мулкини яширин равишда талон-тарож қилганлик учун ЖКнинг 168-моддаси 3-қисми “б”-банди [41], 2007-йилда қимор ва таваккалчиликка асосланган бошқа ўйинларни ташкил этиш ёки ўтказиш учун телекоммуникация тармоқларида, шу жумладан, интернет жаҳон ахборот тармоғи провайдерлари томонидан хизматлар кўрсатиш, тегишли дастурий таъминотдан нусха кўпайтириш, уни кўпайтириш, тарқатиш, шундай ҳаракатлар учун маъмурий жазо қўлланилганидан кейин содир этганлик учун, яъни интернет жаҳон ахборот тармоғи провайдерлари орқали қимор ва таваккалчиликка асосланган бошқа ўйинларни ташкил этиш ҳамда ўтказганлик учун ЖКнинг 278-моддаси 2-қисми [42], 2016-йилда мулкий манфаат бериш бўйича зиммага мажбурият олиш йўли билан жисмоний ва юридик шахсларнинг пул маблағларини ва (ёки) бошқа мол-мулкини жалб этишга доир ноқонуний фаолиятни амалга ошириш ва бунда илгари олинган мажбуриятни жисмоний ва юридик шахсларнинг янги жалб этилган пул маблағлари ва (ёки) бошқа мол-мулки ҳисобидан бажариш, шунингдек бундай фаолиятга раҳбарлик қилиш ҳамда шундай фаолият кўрсатилишини таъминлаш, худди шунингдек мазкур фаолиятда иштирок этишга жалб қилиш мақсадида ушбу фаолиятни реклама қилиш, шу жумладан оммавий ахборот воситаларидан ёхуд телекоммуникация тармоқларидан, шунингдек Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланган ҳолда реклама қилиш ҳамда мулкий манфаат бериш бўйича зиммага мажбурият олиш йўли билан жисмоний ва юридик шахсларнинг пул маблағларини ва (ёки) бошқа мол-мулкини жалб этишга доир ноқонуний фаолиятни амалга ошириш ва бунда илгари олинган мажбуриятни жисмоний ва юридик шахсларнинг янги жалб этилган пул маблағлари ва (ёки) бошқа мол-мулки ҳисобидан бажариш, шунингдек, бундай фаолиятга раҳбарлик қилиш ва шундай фаолият кўрсатилишини таъминлаш пул маблағларини ва (ёки) бошқа мол-мулкни жалб этишга доир ноқонуний фаолият деб номланган ҳолда, Жиноят кодекси 188^1-модда [43], телекоммуникация тармоқларидан, шунингдек Интернет жаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиб диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган, қирғин солишга ёки фуқароларни зўрлик билан кўчириб юборишга даъват этадиган ёхуд аҳоли орасида ваҳима чиқаришга қаратилган материалларни тайёрлаш ёки уларни тарқатиш мақсадида сақлаш, шунингдек, диний-экстремистик, террорчилик ташкилотларининг атрибутларини ёки рамзий белгиларини тарқатиш ёхуд намойиш этиш мақсадида тайёрлаш, сақлаш ҳамда диний экстремизм, сепаратизм ва ақидапарастлик ғоялари билан йўғрилган, қирғин солишга ёки фуқароларни зўрлик билан кўчириб юборишга даъват этадиган ёхуд аҳоли орасида ваҳима чиқаришга қаратилган маълумотлар ва материалларни ҳар қандай шаклда тарқатиш, худди шунингдек, фуқаролар тотувлигини бузиш, туҳматона, вазиятни беқарорлаштирувчи уйдирмалар тарқатиш ҳамда жамиятда қарор топган хулқ-атвор қоидаларига ва жамоат хавфсизлигига

қарши қаратилган бошқа қилмишларни содир этиш мақсадида диндан фойдаланиш, шунингдек, диний-экстремистик, террорчилик ташкилотларининг атрибутларини ёки рамзий белгиларини тарқатиш ёхуд намойиш этиш учун, яъни жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибига таҳдид соладиган материалларни тайёрлаш, сақлаш, тарқатиш ёки намойиш этиш учун ЖКнинг 244^1-моддаси 3-қисми “г”-банди [44], 2017-йилда телекоммуникация тармоқларидан, шунингдек, интернет бутунжаҳон ахборот тармоғидан фойдаланиб, ўзини ўзи ўлдириш даражасига етказиш учун ЖКнинг 103-моддаси 2-қисми “г” банди ва ўзини ўзи ўлдиришга ундаш учун ЖКнинг 103^1-модда 2-қисми “в”-банди [45] билан жиноий жавобгарлик белгилаб қўйилди.

Кўриб турганимиздек, қонунчилигимизда “Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятлар” деб аталган алоҳида боб бўлган ҳолда, унга оид жиноятлар Жиноят кодексининг турли моддаларида турлича кўринишларда баён қилинган, бу эса мазмунан жиноят қонунчилигимиз жиддий таҳрирга муҳтож эканлигини кўрсатади. Бироқ бунда жиноят қонунчилигимиздаги моддалар жиноят объектига нисбатан кетма-кетликда баён қилинганини ҳам инобатга олишимиз даркор.

Бундан ташқари, шу кунга қадар жиноят қонунчилигимизда кибержиноятчилик учун жавобгарлик назарда тутилмаганлиги, технологик тараққиёт, жумладан кибержиноят билан боғлиқ жиноят турларининг кенгайганлигини ҳисобга олган ҳолда ахборот технологиялари соҳасида жавобгарликни назарда тутувчи нормаларни қайта кўриб чиқиш зарурлигини кўрсатади [46].

Хулоса ўрнида таъкидлаб ўтишимиз жоизки, кибержиноятлар доктринал тараққиёти, техник ривожи, ҳуқуқий аҳамияти, тарихий тараққиёти жиҳатидан кундан-кунга ўзининг инсониятга келтираётган кулфати билан ривож топиб борар экан, уни қайси даврда қандай номлаш эмас, балки унинг олдини олиш, бу борадаги жиноятларни бартараф қилиш, жиноятчиликка курашишнинг самарали усулларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётга татбиқ қилиш жуда муҳим аҳамиятга эга. Зеро, халқ давлатдан рози бўлиш учун давлат халқнинг келажагига раҳна солувчи кулфатларни олдиндан прогноз қилиши ва бу каби салбий ҳолатларнинг олдини олиш юзасидан зарур чоралар кўрмоғи даркор.

Шундай экан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 14-майдаги ПҚ–3723-сон Қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш концепцияси Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси жиддий қайта кўриб чиқилиши, жиноят қонунчилигида кибержиноятчилик тушунчаси, турлари, уларни аниқлаш мезонлари, жавобгарлик чоралари белгилаб қўйилиши мақсадга мувофиқ. Зеро, қонунийлик таъминланмас экан, бу каби жиноятлар сони кўпаяверади ва Жиноят кодексидаги қонунийлик, одиллик, инсонпарварлик принциплари

бузилаверади. “Telegram” ижтимоий тармоғи орқали 1 000 000 сўм миқдоридаги пул маблағини яширин равишда ўғрилаганлик учун ЖКнинг 169-моддаси 1-қисми билан, борса судланувчи узоғи билан уч йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланса-ю, компьютер тизимига рухсатсиз кириб яширин равишда 100 000 сўм пул маблағини ўғрилаганлик учун ЖКнинг 169-моддасининг 3-қисми “б”-банди билан судланувчига камида 5 йил озодликдан маҳрум қилиш билан жазоси қўланилиши, фикримизча, одиллик ва қонунийлик мезонларига умуман тўғри келмайди. Шу сабабдан ҳам биз жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилиги ва амалдаги “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонунларни ҳамда бошқа шу каби қонун ҳужжатларини жиддий қайта кўриб чиқиш орқали қонунийлик, одиллик, инсонпарварлик принципларини амалда белгилаб қўйишимиз биз учун ҳам фарз, ҳам қарздир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Интернет сайтидан: История появления и развитие преступлений в сфере высоких информационных технологий. https://studwood.ru/1595418/informatika/istoriya_poyavleniya_razvitie_prestupleniy_sfere_vysokih_informatsionnyh_tehnologiy.

2. Интернет сайтидан: https://vc.ru/services/101050-istoriya-odnogo-ogrableniya-ili- kak-zashchitit-startap-ot-kiberprestupnikov.

3. Интернет сайтидан: Россия Федерацияси Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Тергов қўмитасининг Назорат-услубий бошқармаси Иқтисодиёт ва компьютер маълумотлари соҳасидаги жиноятлар тўғрисидаги ишлар бўйича бўлим бошлиғи Г. Егоров хотираларидан. https://sites.google.com/site/ komputernyeprestuplenia/home/istoria-komputernyh-prestuplenij.

4. Интернет сайтидан: https://71.xn--b1aew.xn--p1ai/Dejatelnost/Borba_s_ kiberprestupnostju.

5. Интернет сайтидан: https://www.mvd.gov.by/ru/page/upravlenie-po-raskrytiyu-prestuplenij-v-sfere-vysokih-tehnologij-upravlenie-k/istoriya-urpsvt.

6. А.Г. Волеводз. Противодействие компьютерным преступлениям: правовые основы международного сотрудничества. – М.: Юрлитинформ, 2001. – С. 496.

7. Л.П. Зверянская. Исторический анализ этапов развития киберпреступности и особенности современных киберпреступлений // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 15. – С. 881–885. – URL: https://e-koncept.ru/2016/96090.htm.

8. А. Николаева, М. Тумбинская. Киберпреступность: история развития, проблемы практики расследования. Казанский национальный исследовательский технический университет им. А.Н. Туполева-КАИ Казань, Россия. Материалы международной конференции Sorucom 2014 // 13-17 октября 2014. https://computer-museum.ru/articles/materialy-mezhdunarodnoy-konferentsii-sorucom-2014/629/.

9. Интернет сайтидан: https://sites.google.com/site/komputernyeprestuplenia/home/istoria-komputernyh-prestuplenij.

10. Интернет сайтидан: Е. Зубова. Киберпреступлений становится все больше, однако их раскрываемость уменьшается. https://www.advgazeta.ru/novosti/kiberprestupleniy-stanovitsya-vse-bolshe-odnako-ikh-raskryvaemost-umenshaetsya/.

11. Интернет сайтидан: https://safe.cnews.ru/news/top/2019-09-27_kiberprestupnost_v_rossii.

12. Интернет сайтидан: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A0%D0%BE%D1%82%D1%88%D0%B8%D0%BB%D1%8C%D0%B4,_%D0%9D%D0%B0%D1%82%D0%B0%D0%BD_%D0%9C%D0%B0%D0%B9%D0%B5%D1%80

13. Ўзбекистон Республикасининг 2003 йил 11 декабрда қабул қилинган "Ахборотлаштириш тўғрисида"ги 560-II-сонли Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 йил, № 1-2, 10-модда.

14. Интернет сайтидан: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A8%D0%B5%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%BD,_%D0%9A% D0%BB%D0%BE%D0%B4.

15. Кибер хавфсизлик бўйича халқаро форум (Cyber Security Forum-2017) материалларидан. Энг оммалашган 3 турдаги кибер жиноят маълум бўлди. 07.02.2017 йил. https://sof.uz/post/eng-ommalashgan-3-turdagi-kiber-jinoyat-ma-lum-bo-ldi.

16. Интернет сайтидан: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9A%D0%BE%D0%BC%D0%BF%D1%8C%D1%8E%D1%82%D0%B5%D1%80%D0%BD%D1%8B%D0%B9_%D1%82%D0%B5%D1%80%D1%80%D0%BE%D1%80%D0%B8%D0%B7%D0%BC.

17. МСЭ публикует данные по ИКТ за 2015 год Революция в ИКТ последних 15 лет подтверждается статистическими данными. URL:https://www.itu.int/net/ pressoffice/press_releases/2015/pdf/17-ru.pdf [Дата обращения 12.01.2016].

18. Дремлюга, Р.И. Интернет–преступность: моногр. / Р.И. Дремлюга. –Владивосток, 2008. – 240 с.

19. Интернет сайтидан: https://www.myshared.ru/slide/439133/.

20. Интернет сайтидан: https://71.xn--b1aew.xn--p1ai/Dejatelnost/Borba_s_ kiberprestupnostju.

21. Распоряжение Правительства Российской Федерации № 1701-р от 22.10.99 г. «Об усилении борьбы с преступлениями в сфере высоких технологий и реализации международных договоренностей и обязательств Российской Федерации»» // СЗ РФ. – 1999. – № 44. – ст.5335.

22. Н.А.Морозов. Борьба с компьютерной преступностью в Японии // Обществои право. 2014. № 2(48). – С. 144.

23. А.В.Федоров. Информационная безопасность в мировом политическом процессе: учеб, пособие. М.: 2006. – С. 111.

24. Украина жиноят кодексининг 16-боби, 361-3631-моддаларидан. https://meget.kiev.ua/kodeks/ugolovniy-kodeks/razdel-1-16/.

25. ЕС от 23.11.2001 года «Конвенцию о компьютерных преступлениях». Будапешт, Серии европейских договоров – № 185. https://rm.coe.int/1680081580.

26. M.Gurcke. Understanding Cybercrime: A Guide for Developing Countries. ITU. 2009.

27. M. Kabay. Studies and Surveys of Computer Crime. – Northfield, 2001. – P.2.

28. К.Е. Зинченко, Л.Ю. Исмаилова, А.Н. Караханьян, Б.В. Киселев, В.В. Крылов, Я.М. Мастинский. Н.С. Полевой, Ю.Н. Соловьев, В.В. Хургин, С.И. Цветков. Компьютерные технологии в юридической деятельности. Учебное и практическое пособие. – М.: издательство “БЕК”. 1994 г., – С. 304.

29. Н.С. Салаев, Р.Н. Рўзиев. Кибержиноятчиликка қарши курашишга оид миллий ва халқаро стандартлар. Монография., – Т.: ТДЮУ, 2018, 139-б.

30. Интернет сайтидан: https://www.coe.int/ru/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/185.

31. В.А. Широков, Е.В. Беспалова. Киберпреступность: история уголовно-правового противодействия. – М.: “Информационное право”, 2006, № 4. https://center-bereg.ru/h1846.html.

32. Абдуджалилов Абдуджабар. Теоретические проблемы гражданских правоотношений в Интернете. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. Душанбе – 2015. 2015. https://lawbook.online/kniga-grajdanskoe-pravo-rossii/ponyatie-suschnost-virtualnogo-prostranstva-79174.html.

33. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ–4947-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да амалга оширишга оид давлат дастури. Манба: “Халқ сўзи”, 2017 й., 28 (6722)-сон; ЎР ҚҲТ, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

34. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 1 майдаги 318-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги тўғрисида”ги низом // Ўзбекистон Республикаси ҚТ, 2018 йил, 5-сон, 98-модда.

35. Вазирлар Маҳкамасининг 2018-йил 7-августдаги 622-сон қарори билан тасдиқланган Давлат ва хўжалик бошқаруви органларининг виртуал маконда иштирокини фаоллаштириш концепцияси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.08.2018 й., 09/18/622/1637-сон.

36. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 ноябрдаги ПҚ–4024-сон қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат бўйича давлат инспекцияси тўғрисида”ги Низом // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.11.2018 й., 07/18/4024/2200-сон.

37. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистонда Шарда университетини ташкил этиш тўғрисида” 2019 йил 10 апрелдаги ПҚ–4278-сон қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.04.2019 й., 07/19/4278/2920-сон.

38. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ахборот технологиялари ва коммуникацияларининг жорий этилишини назорат қилиш, уларни ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2019 йил 14 сентябрдаги ПҚ–4452-сон қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.09.2019 й., 07/19/4452/4207-сон.

39. Вазирлар Маҳкамасининг “Бутунжаҳон Интернет тармоғида ахборот хавфсизлигини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 5 сентябрдаги 707-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси ҚТ, 2018 йил, 9-сон, 223-модда.

40. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборотлаштириш ва маълумотлар узатиш соҳасида қонунга хилоф ҳаракатлар содир этганлик учун жавобгарлик кучайтирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 2007 йил 25 декабрдаги ЎРҚ-137-сон Қонуни // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 52-сон, 532-модда.

41. Ўзбекистон Республикасининг “Жиноий жазоларнинг либераллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ҳамда Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартишлар ва қўшимчалар киритиш ҳақида” 2001 йил 29 августдаги 254-II-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2001 й., 9-10-сон, 165-модда.

42. Ўзбекистон Республикасининг “Қимор ва таваккалчиликка асосланган бошқа ўйинларни ташкил этиш ҳамда ўтказишни тартибга солиш муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 2007-йил 14-сентябрдаги ЎРҚ–109-сон // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 37-38-сон, 377-модда, 52-сон, 533-модда.

43. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 2016 йил 23 сентябрдаги ЎРҚ–411-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 39-сон, 457-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.01.2018 й., 03/18/463/0634-сон; 18.01.2019 й., 03/19/517/2497-сон; 08.01.2020 й., 03/20/601/0025-сон.

44. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида” 2016 йил 25 апрелдаги ЎРҚ–405-сон Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 17-сон, 173-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.11.2019 й., 03/19/581/4004-сон; 08.01.2020 й., 03/20/601/0025-сон.

45. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айрим қонун ҳужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида”2017 йил 13 июндаги ЎРҚ-436-сон Қонуни // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 24-сон, 487-модда.

46. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 майдаги ПҚ–3723-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал қонунчилигини такомиллаштириш концепцияси // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.05.2018 й., 07/18/3723/1225-сон, 01.10.2018 й., 06/18/5547/1975-сон.

Эргашев Зафар Сайфулло ўғли
Адлия вазирлиги ҳузуридаги Ҳуқуқий сиёсат тадқиқот институтининг масъул ходими

АХБОРОТ БОРАСИДАГИ ХАВФСИЗЛИК СОҲАСИДАГИ МАВЖУД МУАММОЛАРНИНГ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ

Ergashev Zafar Sayfullo ugli
Senior researcher of the Research Institute of Legal Policy under the Ministry of Justice

LEGAL ANALYSIS OF EXISTING PROBLEMS IN THE SPHERE OF INFORMATION SECURITY

Эргашев Зафар Сайфулло угли
Ответственный сотрудник Исследовательского института правовой политики при Министерстве юстиции

ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ СУЩЕСТВУЮЩИХ ПРОБЛЕМ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: *Ушбу мақолада ахборот борасидаги хавфсизликни таъминлаш борасидаги мавжуд муаммолар ёритилган. Хусусан, давлат органларидаги тизимли камчиликлар, ушбу соҳадаги тартибга солиниши лозим бўлган ҳолатлар таҳлил қилинган. Бу борада ўрганилган илғор хориж тажрибаси баён қилинган. Амалга оширилиши лозим бўлган чора-тадбирлар алоҳида белгилаб ўтилган.*

Калит сўзи: *тақиқланган ахборот, ахборот борасидаги хавфсизлик, интернет тармоғи, мониторинг, интернет тармоғи ахборот ресурслари.*

Abstract: *this article discusses the current issues of information security. In particular, the systematic faults in government agencies, the cases that need to be regulated in this sphere are analyzed. The advanced foreign experience is described. The measures to be taken are stressed.*

Keywords: *prohibited information, information security, internet network, monitoring, internet network information resources.*

Аннотация: *в данной статье, рассматриваются актуальные вопросы информационной безопасности. В частности, анализируются систематические просчеты в государственных органах, случаи, которые необходимо урегулировать в этой сфере. Описан передовой зарубежный опыт. Меры, которые необходимо принять, подчеркнуты.*

Ключевые слова: *запрещенная информация, информационная безопасность, сеть Интернет, мониторинг, информационные ресурсы сети Интернет.*

Ахборот борасидаги хавфсизлик ахборот соҳасида шахс жамият ва давлат манфаатларининг ҳимояланганлик ҳолати ҳисобланади. Бугунги кунда ушбу соҳада қонун устуворлигини таъминлаш юзасидан қатор ислоҳотлар амалга оширилган.

Шунга қарамасдан, Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборотларни (кейинги ўринларда тақиқланган ахборот деб аталади) тарқатишда ижтимоий тармоқлар ва бошқа ахборот ресурсларидан фойдаланиш кўламининг ортиб бораётганлиги давлатимизнинг ахборот борасидаги хавфсизлик сиёсатига салбий таъсир кўрсатмоқда ҳамда қуйидаги ҳолатларнинг юз беришига сабаб бўлмоқда:

– интернет тармоғида тақиқланган ахборот тарқалишини олдини олишнинг тизимли йўлга қўйилмаганлиги ушбу тармоқда ахборот борасидаги хавфсизликнинг таъминланишига ҳамда давлат сиёсати тўғрисида жамоатчилик фикрининг шаклланишига салбий таъсир кўрсатмоқда;

*Бош прокуратуранинг расмий таҳлилларига кўра, 2021 йилда ижтимоий тармоқларда жинсий озчилик тарғиботи сони – **44%**, сепаратизм тарғиботи – **28%**, экстремизм-терроризм тарғиботи – **34%** га кўпайган.*

– Ўзбекистонда ижтимоий тармоқ фойдаланувчилари сонининг ошиб бориши интернет тармоғида ахборот тарқатилишини мониторинг қилиш ишларини тобора мураккаблаштирмоқда;

*“Digital 2021” ҳисоботига кўра, Ўзбекистондаги ижтимоий тармоқ фойдаланувчиларининг сони 2021 йилнинг январь ойи ҳолатига кўра **4,60 млн** нафарни (умумий аҳолининг **13,6%**) ташкил этади. Ўзбекистонда ижтимоий тармоқлардан фойдаланиш даражаси 2020 йилга нисбатан **44%** га (**1,4 млн**) ошган.*

– интернет тармоғида содир этилган жиноятларнинг сони ҳам борган сари ошиб бормоқда.

*Бош прокуратурасининг расмий статистикасига кўра, 2020–2021 йиллар давомида ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда **885 та** жиноят содир этилган.*

Ўзбекистон Республикасида ахборот борасидаги хавфсизликни таъминлаш соҳасида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳолатининг ҳуқуқий таҳлили натижасида ушбу соҳада бир қатор тизимли муаммо ва камчиликлар мавжудлиги аниқланди:

1) тақиқланган ахборотлар рўйхати “Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонуннинг 12^1-моддаси биринчи қисмида назарда тутилган бўлиб, тақиқланган ахборот мавжуд бўлган интернет тармоғи веб-сайтидан ва (ёки) веб-сайт саҳифаларининг (кейинги ўринларда **интернет тармоғи ахборот ресурслари** деб аталади) мониторинги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг Оммавий коммуникациялар масалалари бўйича Маркази (Марказ) томонидан юритилади (24.11.2004 й. ВМҚ–555-сон). Шунингдек, Марказ Ўзбекистон

Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборот мавжуд бўлган Интернет тармоғи ахборот ресурслари Реестрини (Реестр) ҳам юритади (05.09.2018 й. ВМҚ–707-сон). Марказ томонидан мониторинг натижасида аниқланган интернет тармоғи ахборот ресурсидаги тақиқланган ахборот мавжудлиги юзасидан хулоса тайёрланади.

Шу билан бирга, мониторинг натижаларини экспертизадан ўтказиш учун Марказ Вазирлар Маҳкамасининг 2011-йил 5-августдаги 228-сон Қарори билан ташкил этилган Оммавий коммуникациялар соҳасидаги эксперт комиссиясига (Эксперт комиссияси) мурожаат қилиши мумкин. Марказ хулосаси ёки Эксперт комиссиясининг Қарори тақиқланган ахборот мавжуд бўлган интернет тармоғи ахборот ресурси идентификация маълумотларини Реестрга киритиш учун асос бўлади. Бу эса мазкур ахборот ресурсидан фойдаланишни Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги томонидан чекланишига сабаб бўлади.

Таъкидлаш лозимки, интернет тармоғи ахборот ресурслари мониторингини ташкил этишда йўл қўйилган қуйидаги камчиликлар ушбу фаолиятнинг самарали юритилишига тўсқинлик қилмоқда:

– Марказ расмий веб-сайтининг ташкил этилмаганлиги фуқароларнинг Марказга бевосита виртуал мурожаат қила олмасликларига сабаб бўлмоқда;

– Марказ томонидан Реестр ошкора юритилмайди. Фуқаролар Реестрга киритилган интернет тармоғи ахборот ресурслари тўғрисида Марказга расмий мурожаат қилмасдан туриб, билиш имконига эга эмас;

Россияда интернет тармоғидаги қонунчиликда тарқатилиши тақиқланган ахборотлар мавжуд бўлган веб-сайтларни аниқлаштириш имконини берадиган тармоқ манзили ва домен номининг ягона Реестри ошкора юритилади:

– интернет тармоғи ахборот ресурсига жойлаштирилган тақиқланган ахборот тўғрисида Марказга хабар берганлик учун фуқароларни молиявий рағбатлантириш чоралари жорий этилмаган. Бу эса интернет тармоғи ахборот ресурслари мониторингини амалга оширишда кенг жамоатчилик иштирокининг таъминланмаслигига сабаб бўлмоқда;

– Ўзбекистон Республикаси очиқ маълумотлар порталида Марказ томонидан амалга оширилган мониторинг натижалари, шунингдек фойдаланилиши чекланган интернет тармоғи ахборот ресурслари бўйича очиқ статистика маълумотларининг мавжуд эмаслиги Марказ фаолияти тўғрисида кенг жамоатчилик фикрининг шаклланмаслигига сабаб бўлмоқда.

2) Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (Агентлик) болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи ҳисобланади.

Агентлик оммавий ахборот воситалари томонидан ишлаб чиқариш ва нашр қилиш, телеканал, радиоканал, теледастур ва радиодастурлар намойиши, шунингдек, ахборот-телекоммуникация тармоқлари, жумладан, интернет тармоғи орқали ахборот тарқатиш жараёнига болаларни уларнинг соғлиғига салбий таъсир кўрсатувчи маълумотлардан ҳимоя қилиш борасидаги Ўзбекистон қонун ҳужжатларининг талабларига риоя этилишини мониторинг қилади.

Агентлик ахборот маҳсулотини ишлаб чиқарувчиларга ва тарқатувчиларга болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчилик талаблари бузилганлиги ҳолларини, шунингдек, уларга имкон берувчи сабаблар ва шарт-шароитларни бартараф этиш ҳамда уларнинг олдини олиш учун **кўрсатмалар** юборади.

Таъкидлаш жоизки, “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонун ижросини таъминлаш мақсадида қабул қилинган Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 22 октябрдаги 848-сонли Қарори билан тасдиқланган Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилишни таъминлашга доир маъмурий ва ташкилий чора-тадбирлар, дастурий-аппарат ва техника воситаларига доир талабларни белгилаш тўғрисидаги низомда назарда тутилган болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилишни таъминлашнинг дастурий-аппарат ва техник воситаларига қўйилган талабларга риоя этилишини назорат қилишнинг Агентлик томонидан амалга оширилиши унинг вазифа ва функцияларига номувофиқдир.

Юқоридаги низом талаблари ташкилий ва техник аҳамиятга эга бўлганлиги сабабли унга риоя этилишини назорат қилиш Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат бўйича давлат инспекциясининг (Ўзкомназорат) вазифа ва функцияларига мос келади. Чунки Ўзкомназорат алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари, даврий босма нашрларни тарқатиш соҳасида қонун ҳужжатлари, норматив ҳужжатлар ва давлат стандартлари талабларига риоя қилинишини назорат қилади.

*Хорижий давлатлардан **Россияда** телерадиодастурларни эфирга узатишда, ахборот коммуникация тармоқлари орқали ахборот тарқатишда болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилиш тўғрисидаги қонунчилик талабларига риоя этилиши Россиянинг алоқа, ахборот технологиялари ва оммавий коммуникациялар соҳасини назорат қилиш бўйича Федерал хизмати томонидан назорат қилинади.*

3) Ўзбекистон Республикасида фойдаланувчилари **500 минг**дан ортиқ бўлган хорижий ижтимоий тармоқ платформаларидан ушбу платформага жойлаштирилган тақиқланган ахборотни олиб ташлаш бўйича ваколатли орган қарори ижросини таъминловчи механизм жорий этилмаган.

Таъкидлаш лозимки, ушбу турдаги интернет тармоғи ахборот ресурсидан фойдаланишни чеклаш “VPN” иловаси туфайли ўз самарасини йўқотмоқда. Бу эса ахборот борасидаги хавфсизлик бўйича давлат сиёсатини амалга оширишга салбий таъсир кўрсатмоқда.

***Туркияда** кундалик фойдаланувчилари **1 млн**дан ортиқ бўлган хорижий ижтимоий тармоқлар Туркия ҳудудида ўз ваколатхоналарини очиш тартиби мавжуд. Шунингдек, **Германия** ва **Австрияда** хорижий ижтимоий тармоқ эгаси ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ўзаро ҳамкорлик қилиш бўйича ўз вакилини тайинлаши талаб этилади.*

4) кундалик фойдаланувчиларининг сони мингдан ортиқ бўлган интернет тармоғи ахборот ресурсининг мониторингини доимий равишда юритиш мушкул бўлганлиги сабабли ушбу ахборот ресурси эгаси

тақиқланган ахборотни ўз вақтида аниқлаш учун фойдаланувчиларнинг ёрдамига муҳтож бўлади. Бироқ қонунчиликда интернет тармоғи ахборот ресурсида жойлаштирилган тақиқланган ахборот юзасидан ушбу ахборот ресурси эгасига хабар беришга имкон берадиган тизимни жорий этиш назарда тутилмаган. Бу эса фойдаланувчиларнинг интернет тармоғи ахборот ресурси эгасига ушбу ахборот ресурсидаги тақиқланган ахборот тўғрисида қулай тарзда хабар бера олмаслигига сабаб бўлмоқда.

Германия *ва* ***Франция*** *қонунчилигида веб-сайт ёки бошқа ахборот ресурсининг фойдаланувчиси томонидан веб-сайт ёки бошқа ахборот ресурсидаги нотўғри ахборот юзасидан веб-сайт ёки бошқа ахборот ресурси эгасига бевосита мурожаат қилиш имконини берадиган тизим веб-сайт ёки бошқа ахборот ресурсида мавжуд бўлиши лозимлиги назарда тутилган.*

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ҳамда илғор хориж тажрибасидан келиб чиқиб, қўйидаги чора-тадбирларни амалга ошириш таклиф этилади:

– Ўзбекистон Республикасида ахборот борасидаги хавфсизликни таъминлаш бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар базасини “**тартибга солиш гильотинаси**” усулини қўллаш орқали қайта кўриб чиқиш ҳамда ахборот ва коммуникация технологияларининг замонавий тенденцияларига мувофиқлаштириш;

– болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан ҳимоя қилишни амалга оширувчи органлар тизимини ушбу органларнинг вазифа ва функцияларидан келиб чиқиб қайта кўриш;

– Ўзбекистон Республикасида фойдаланувчилари **500 минг**дан ортиқ бўлган хорижий ижтимоий тармоқ платформаларидан ушбу платформага жойлаштирилган тақиқланган ахборотни олиб ташлаш бўйича ваколатли орган қарори ижросини таъминловчи механизмни ишлаб чиқиш;

– Оммавий коммуникациялар масалалари бўйича Марказга бевосита виртуал мурожаат қилиш, интернет тармоғидаги тақиқланган ахборот тўғрисида аноним хабар бериш тартибларини жорий этиш;

– Оммавий коммуникациялар масалалари бўйича Марказ томонидан амалга оширилган мониторинг натижалари, шунингдек фойдаланилиши чекланган интернет тармоғи ахборот ресурслари бўйича статистика маълумотларини Ўзбекистон Республикаси очиқ маълумотлар порталига жойлаштириб бориш тартибини жорий этиш;

– интернет тармоғи ахборот ресурсига жойлаштирилган тақиқланган ахборот юзасидан ушбу ахборот ресурси эгасига виртуал хабар бериш имконини берадиган тизимни интернет тармоғи ахборот ресурсларида жорий этиш;

– Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги билан тарқатилиши тақиқланган ахборот мавжуд бўлган бутунжаҳон интернет тармоғи ахборот ресурслари Реестрини ошкора юритиш тартибини жорий этиш;

– интернет тармоғи ахборот ресурсига жойлаштирилган тақиқланган ахборот тўғрисида Марказга хабар берганлик учун фуқароларни молиявий рағбатлантириш чораларини ишлаб чиқиш.

Sadullayev G'ayrat
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim doktoranti

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TOMONIDAN AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH - DAVR TALABI

Sadullaev Gayrat
Doctoral student of postgraduate education of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

ENSURING INFORMATION SECURITY BY INTERNAL AFFAIRS BODIES: THE REQUIREMENT OF TIME

Саъдуллаев Гайрат
Докторант послевузовского образования Академии Министерство внутренних дел Республики Узбекистан

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ОРГАНАМИ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ: ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Сегодня в мире проблема обеспечения информационной безопасности государства, общества и личности приобретает все более глобальное значение. В настоящее время активно идут процессы накопления международного опыта в сфере обеспечения информационной безопасности, особенно в рамках деятельности таких международных организаций, как ООН, Совет Европы, Европейский Союз, БРИКС, ШОС, ЕАЭС, СНГ, Союзного государства Республики Беларусь и России и др [1]. Генеральной Ассамблеей ООН, ОБСЕ, Советом Европы, ШОС, СНГ и иными организациями были приняты специальные акты, касающиеся обеспечения информационной безопасности, противодействия и профилактики преступного использования информационных технологий, предупреждения преступности в данной сфере на региональном и международном уровне.

Международные акты в общих чертах регламентируют вопросы защиты частной собственности в информационных сетях. **Всеобщая декларация прав человека** гласит, что каждый человек имеет право владеть имуществом как единолично, так и совместно с другими, и никто не должен быть произвольно лишен своего имущества [2].

Дохинская декларация о включении вопросов предупреждения преступности и уголовного правосудия в более широкую повестку дня ООН в целях решения социальных и экономических проблем и содействия

обеспечению верховенства права на национальном и международном уровнях, а также участию общественности предусматривает предупреждение и пресечение преступной деятельности, осуществляемой с помощью Интернета, уделяя особое внимание краже личных данных, вербовке с целью торговли людьми и защите детей от эксплуатации и надругательства через Интернет. **Венская декларация о преступности и правосудии: ответы на вызовы XXI века**, указывает на обязанность работы в направлении укрепления наших возможностей по предупреждению, расследованию и преследованию преступлений, связанных с использованием высоких технологий и компьютеров [3].

Согласно статистическим данным, на сегодняшний день мобильным телефоном пользуются 5,22 миллиарда человек (66,6 % мирового населения). По состоянию на январь 2021 года интернетом пользуются 4,66 миллиарда человек во всём мире, что на 316 миллионов (7,3 %) больше, чем в прошлом году. Уровень распространения интернета сейчас составляет 59,5 % [4].

Рост информационных технологий в различных сферах человеческой деятельности, с одной стороны, позволил обеспечить высокие достижения и результаты, а с другой стороны, стал источником самых непредсказуемых и вредных последствий для человеческого общества. В результате можно говорить о появлении принципиально нового сегмента международного противоборства, затрагивающего как вопросы безопасности отдельных государств, так и общую систему международной безопасности на всех уровнях [5].

В современных условиях «цифровой революции» именно информационные технологии становятся ключевым фактором трансформации и оптимизации деятельности любого государственного органа.

Как справедливо указывает Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, «активное внедрение передовых технологий и развитие глобального информационно-коммуникационного пространства динамично и быстро трансформируют все процессы, способствуют развитию новых форм сотрудничества на уровне континентов, регионов, государств и бизнеса» [6].

В рамках активного внедрения цифровых технологий в системе органов внутренних дел принят Указ Президента Республики Узбекистан от 26 марта 2021 года № УП-6196 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности органов внутренних дел в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью» [7]. В соответствии с данным Указом разработана информационная система «Smart махалла», позволяющая дистанционно направлять обращения инспекторам по профилактике и отслеживать процесс их рассмотрения, вести взаимный оперативный диалог с населением, оценивать деятельность инспекторов по профилактике и руководителей секторов. Пунктом 8 данного Указа

утверждена «Дорожная карта» по дальнейшему совершенствованию системы органов внутренних дел предусматривающая широкое внедрение в деятельность органов внутренних дел цифровых и современных информационных технологий. Целями данного Указа являются решение ряда научно-обоснованных и практических проблем в сфере обеспечения информационной безопасности и совершенствование деятельности органов внутренних дел в данной сфере.

Для реализации этих задач, принято постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15-октября 2021-года № 645 «О мерах по широкому внедрению современных информационных технологий в деятельность органов внутренних дел» [8].

В соответствии, с данным постановлением с 1-марта 2022-года установлен порядок, согласно которому некоторые услуги предоставляются в электронной форме через Единый портал интерактивных государственных услуг Республики Узбекистан:

– приглашение иностранного гражданина в Республику Узбекистан;

– получение соответствующих документов и справок о подтверждении гражданства Республики Узбекистан на территории иностранного государства;

– получение сведений о судимости или ее отсутствии;

– проверка транспортного средства на наличие запрета;

– определение времени свиданий осужденных с близкими родственниками.

В случае, отсутствия у водителя документов, которые должны быть представлены инспектору дорожно-патрульной службы, эти документы проверяются с помощью ID-карты с помощью специального планшетного устройства.

Утверждена программа мероприятий по внедрению информационных технологий в систему органов внутренних дел Республики Узбекистан. По программе до 2023-года запланирован перевод не менее 80 % государственных услуг, оказываемых органами внутренних дел, в электронный вид, взаимная интеграция всех информационных систем и баз данных отраслей в структуре МВД, интеграция информационной системы «Оперативная информация» с платформой «Электронное правительство» и привязка к имеющейся базе данных персонального идентификационного номера физического лица, внедрение услуги автоматического предоставления гражданам информации о судимости (несудимости) в режиме реального времени через Единый портал интерактивных государственных услуг, обеспечение интеграции системы «Автомототранспортный учет» с базой данных идентификационных ID-карт граждан и др.

В сфере обеспечения информационной и кибербезопасности активно внедряется система мониторинга по предотвращению утечки служебной информации из корпоративной сети органов внутренних дел и

осуществлению внутреннего контроля за действиями сотрудников; система мониторинга информационных систем, ресурсов и баз данных органов внутренних дел по требованиям информационной безопасности; обеспечение защиты персональных данных в базах данных органов внутренних дел; средства криптографической защиты информации в сетях передачи данных и информационных системах органов внутренних дел.

Биринчи сабаб: норма ижодкорлиги соҳасидаги ҳукуматга қарамлик. Мустақил назорат қилувчи органлар ўз фаолиятида ҳукуматдан мустақил этиб қайта ташкил этилган тақдирда ҳам, унга бўйсунишга доимо рози. Чунки уларнинг фаолиятига доир аксарият қонуности ҳужжатлари (масалан, Антимонополия тўғрисидаги низом ва ўз соҳасига доир бошқа ҳужжатлар) айнан ҳукумат томонидан қабул қилинади. Мустақил идора сифатида ташкил этилгани билан фаолиятини бошлаш, такомиллаштиришга тааллуқли бошқа қонун ҳужжатларини ҳам (Президент ҳужжатлари ва қонунлар) ҳукумат орқали ўтказишга мажбур.

Иккинчи сабаб: молиявий қарамлик. Ҳар йили тасдиқланадиган йиллик давлат бюджети, ходимлар ойлиги ва бошқа сарф-харажатларни (моддий-техника, бино ва бошқалар) ҳукумат раҳбарлигидаги Молия вазирлиги томонидан ҳал этилади.

Учинчи сабаб: бошқа идоралар билан ўзаро муносабатларда юзага келадиган зиддиятлар (масалан, бирор лойиҳани кўриб чиқишда розилик ололмаслик, бирор идорага йўлланган талабнома, тақдимноманинг бажарилмаслиги) ҳам ҳукумат орқали ҳал этиб келинади.

Хулоса ўрнида:

Токи юқоридаги фаолиятларни ҳукуматсиз ҳал этиш йўли топилмас экан, мустақил идора бўлса-да, ўз ишини тўлиқ амалга ошириши учун Вазирлар Маҳкамасининг кўмагига ҳар томонлама муҳтож бўлаверади. Шундай экан, назорат қилувчи органларнинг мустақил фаолият юрита олишида ҳукумат ёки юқори турувчи орган томонидан кўрсатилиши мумкин бўлган таъсирни камайтириш учун юқоридаги қарамликлардан воз кечиш йўлларини ўйлаш лозим бўлади.

Бунда энг оқилона танлов – кўп йиллардан буён эътибордан четда қолиб келган энг оғриқли масала – базавий маъмурий ислоҳотни амалга оширишдир, яъни:

– давлат бошқаруви органлари (жумладан, назорат қилувчи органлар) ўзи нима, уларнинг турлари, **ташкил этиш тартиби**, мақомига доир аниқ мезонларни белгиловчи асосий ҳужжат “Давлат бошқаруви органларини ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари тўғрисида”ги қонунни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш;

– мустақил назорат қилувчи органларни ташкил этиш ва фаолиятига доир асосий ҳужжатлар **фақат қонун шаклида қабул қилинишига эришиш** орқали уларнинг Ҳукуматдан кўра кўпроқ парламентга ҳисобдорлигига эришиш;

– АҚШ йўл қўйган хатодан тезкорлик билан чиқарган тарихий хулосасига таянган ҳолда, 1) назорат органлари раҳбарлари ва аъзоларини лавозимга тайинлашдаги чекловлар; 2) ички кадр сиёсатидаги мустақиллик; 3) молиявий мустақиллик; 3) назорат тадбирларига доир қарорларни ташқи таъсирни камайтириш учун коллегиал равишда ҳал этиш; 4) сиёсий тазйиқ туфайли лавозимдан озод этилмаслик кафолатини жорий қилиш муҳим кўринади.

Jo'rayeva Shohsanam
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

MA'MURIY SUDLAR INSTITUTI VA ULARNING SUDLOV TIZIMIDAGI O'RNI

Jurayeva Shokhsanam
Student of Tashkent State University of Law

INSTITUTE OF ADMINISTRATIVE COURTS AND THEIR ROLE IN THE JUDICIAL SYSTEM

Жураева Шохсанам
Студент Ташкентского государственного юридического университета

ИНСТИТУТ АДМИНИСТРАТИВНЫХ СУДОВ И ИХ РОЛЬ В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ

So'nggi yillarda yurtimizda sud-huquq tizimini takomillashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Fuqarolar hamda tadbirkorlar huquq, manfaatlarini ishonchli himoyasi kuchaytirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlari himoyasi yangi bosqichga chiqdi.

Sud hokimiyatining mustaqilligi haqidagi konstitutsiyaviy norma hamda sudlar faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Fuqarolarning huquqlari va manfaatlariga tajovuz qilish holatlariga zudlik bilan chora-tadbirlar ko'rilishi belgilandi. 2017–2021-yillarga mo'ljallangan **"Harakatlar strategiyasi"**da sud tizimidagi byurokratik to'siqlarni olib tashlash, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, inson va fuqarolarning, tadbirkorlarning buzilayotgan huquqlari, zarar yetkazilayotgan manfaatlariga zaruriy choralar ko'rilishi belgilandi. Bu borada bir qator qonunlar, Prezident farmonlari qabul qilindi. Xususan, yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda sud tizimidagi yangiliklar umumlashtirilib, sud tizimining yangi shakli qonuniylashtirildi. Sudlarning mustaqilligi, sudlarning vakolatlari, sudyalar faoliyati belgilab qo'yildi. Shuningdek, sud tizimida korrupsiyaning oldini olish, tizimni malakali va halol kadrlar bilan to'ldirish, sud organlari faoliyatida shaffoflikni ta'minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud hokimiyatiga bo'lgan ishonchini oshirish maqsadida sudyalikka kadrlarni tayyorlash, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash mexanizmi yaratildi.

2017-yil 21-fevral kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4966 sonli "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi Farmoniga muvofiq ma'muriy organlar bilan munosabatlarda qonun ustuvorligini, fuqarolar, korxona va tashkilotlarning huquqiy va qonuniy

manfaatlarini ta'minlash, ma'muriy va boshqa ommaviy munosabatlar sohasida yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va huquqlarini himoya qilish, ma'muriy hamda ommaviy huquqiy munosabatlarda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tumanlararo **ma'muriy sudlar** tashkil qilindi. Shu munosabat bilan tuman (shahar) ma'muriy sudlari tugatildi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga asosan ma'muriy sudlar:

1) idoraviy normativ-huquqiy nizolashish to'g'risidagi ishlarni;

2) davlat boshqaruv organlarining, ma'muriy organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining fuqarolar huquq va manfaatlariga zid qarorlari, harakatlari yuzasidan nizolarni;

3) saylov komissiyalarining xatti-harakatlari yuzasidan nizolarni;

4) notarial ishlarni yuritishdagi, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni rad etganlik bo'yicha holatlarni;

5) davlat ro'yxatidan o'tish bo'yicha rad etilganlik holatlarini ko'rib chiqishga **vakolatli** hisoblanadi. Bundan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar, iqtisodiy sudlar hamda harbiy sudlarga taalluqli ishlarni ko'rib chiqish mustasnodir.

Turli hududlarda joylashgan bir nechta javobgarga nisbatan ariza arizachi (ma'muriy protsessual huquq layoqatiga ega bo'lgan fuqaro yoki yuridik shaxs) tanlovi bo'yicha shu yerdagi ma'muriy sudga beriladi. Bugungi kunda sudga beriladigan arizalar elektron shaklda ham taqdim etilishi mumkin.

Ma'muriy sudlar instituti tashkil etilmasdan avval davlat organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaviyligi hamda qonuniyligi qaysi sud instituti tomonidan ko'rib chiqilishi belgilanmagan edi. "Konstitutsiyaviy sud" to'g'risidagi Qonunda ham Konstitutsiyaviy sud vakolatlari qismida davlat organlari tomonidan chiqariladigan qarorlarni ko'rib chiqish ko'rsatilmagan edi. Ammo konstitutsiyaviy sud tarixida faqat bir marta 1998-yilda idoraviy normativ-huquqiy hujjat haqidagi ishni ko'rib chiqqan.Sud Plenumining 19.07.1996-yil 18-son " Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan keltirilgan sudlarda ko'rish amaliyoti" to'g'risidagi Qarorning 6-bandiga muvofiq, ilgari ham fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda umumnormativ turdagi hujjatlar yuzasidan nizolashishga ruxsat berilardi. Ammo aniq mexanizmlarning mavjud emasligi bu amaliyotning kam tatbiq etilishiga olib keldi. Endi barcha noaniqliklar barham topdi. Biroq ma'muriy sudlarning, Oliy sudning vakolatlari faqatgina idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar bilangina cheklanadi. Qolgan barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaviy sudga taalluqli hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudga tegishli NHH lar aynan shu sud institutida ko'rib chiqiladi.

Ma'muriy sud instituti **1863**-yilda Germaniyada paydo bo'lgan bo'lib, O'zbekiston ham shu davlat tajribasiga asoslanmoqda. **Yuridik fanlar nomzodi Serikbek Muratayev** Germaniyadagi ma'muriy sudlar tizimi haqida shunday fikrlarni aytib o'tgan: " Germaniyada ma'muriy sudlarning davlat organlariga ta'siri juda kuchli. Ularda boshqaruv organlarining rahbarlari ma'muriy sudlarga ishimiz tushmasin" deb, xavotirda turadi va muammolarga o'z vaqtida yechim

topishga harakat qiladi”. Olim ma’muriy sudlarning fuqarolar oldida turib davlat organlarining xatosini tuzatadigan tashkilotga aylanishi kerak deb hisoblaydi. Aslida ham, ma’muriy sudlar shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo qonun hujjatlarini amalga oshirish mexanizmini yaratish maqsadida qonunosti hujjatlari ko‘payib ketmoqda. Amaliyotda esa qonunosti hujjatlarining ko‘pi fuqarolarga notanish. Ularning aksariyatini bilaverishmaydi yoxud topilavermaydi. Shu muammolarga yechim sifatida qonun hujjatlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri fuqarolarga yetkazish, ularning huquqiy ongini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kun nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, ma’muriy sudlarga arizalar hamda shikoyatlar tuman hokimlarining fuqarolarga, tadbirkorlik subyektlariga yer uchastkalari ajratishi bilan bog‘liq bo‘lgan qarorlari ustidan tushmoqda. Yoxud mansabdor shaxslarning o‘z xizmat vazifalari paytida chiqaradigan qarorlari ham ma’muriy sudlov jarayonlarining obyektiga aylanmoqda. Bu degani, ma’muriy sudlar tashkil etilgach davlat organlari ustidan jamoatchilik nazorati kuchaydi. Bunga qadar minglab fuqarolar hamda yuridik shaxslar huquqlari poymol etilib, hokimlar noqonuniy harakatlar qilayotgan, jabrlanuvchilar esa qayerga murojaat qilishni bilmay sarson bo‘lardilar. Endi siz hatto uyda o‘tirib ham qonunga xilof bo‘lgan davlat idoralari qarorlari, xatti-harakatlari ustidan ma’muriy sudlarga ariza yuborishingiz, davlat bojini ham to‘lashingiz mumkin. Bizda ma’muriy sudlar tashkil etilganiga juda ko‘p vaqt bo‘lmadi. Ammo shu qisqa muddatda fuqarolar ishtiroki bilan davlat idoralarining noqonuniy qarorlari, xatti-harakatlari aniqlandi. Ularga tegishlicha choralar ko‘rildi. Korrupsiya holatlari aniqlandi. Bu tizimni yanada yaxshi ishlashiga fuqarolar tashabbuskorligi bilan erishishimiz mumkin, deb hisoblayman.

Biz yana bir narsaga e’tibor qaratishimiz kerak. Ma’muriy sudlar ma’muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni, hamda davlat idoralari normativ-huquqiy hujjatlaridan tashqari bo‘lgan NHH larni ko‘rib chiqishdan o‘zini tiyadi. Oliy Majlis qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi nazorat qiladi hamda konstitutsiyaviy norma buzilishi holatlari ustidan Konstitutsiyaviy Sud instituti ish olib boradi.

Agar ma’muriy sudlar tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, davlat idoralari va muassasalari ustidan kuchli jamoat nazorati o‘rnatiladi. Fuqarolarni qiynaydigan byurokratik to‘siqlar olib tashlanadi. Xalqning davlatga ishonchi ortadi. O‘zboshimcha yer uchastkalari ajratilishi, qog‘ozbozlik, korrupsiya holatlari cheklanadi. Ma’muriy sudlar xalq himoyachisiga aylanar ekan, insonlar emin-erkin tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari, davlat xizmatlaridan foydalanishlari kafolatlanadi.

Mansabdor shaxslar ham javobgarlikni o‘ylab o‘z xizmat vazifalariga mas’uliyat bilan yondashadilar. Murojaat qilgan insonlarni rozi qilishga harakat qiladilar.

To‘g‘ri, ma’muriy sudlar tashkil etilganiga ko‘p bo‘lmadi. Ammo bu tizimdan ko‘p natijalar kutilmoqda.

Норбоев Назарали Ибодуллаевич
Адлия вазирлиги ҳузуридаги Ҳуқуқий сиёсат тадқиқот институти
бўлим бошлиғи
Нурматов Равшан Бегмаматович
Адлия вазирлиги ҳузуридаги Ҳуқуқий сиёсат тадқиқот институти ходими

ДУНЁ МАМЛАКАТЛАРИДА КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШИШ БОРАСИДА ҚАНДАЙ АМАЛИЁТЛАР ТАТБИҚ ЭТИЛГАН?

Norboev Nazarali Ibodullaevich
Head of department at the Research Institute of Legal Policy under the Ministry of Justice
Nurmatov Ravshan Begmamatovich
Staff of the Research Institute of Legal Policy under the Ministry of Justice

WHAT ACTIONS HAVE BEEN TAKEN IN THE FIGHT AGAINST CORRUPTION IN THE WORLD?

Норбаев Назарали Ибадуллаевич
Начальник отдела Исследовательского института правовой политики при Министерстве юстиции Республики Узбекистан
Нурматов Равшан Бегмаматович
Сотрудник Исследовательского института правовой политики при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

КАКИЕ ДЕЙСТВИЯ ПРЕДПРИНЯТЫ В ОБЛАСТИ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В МИРЕ?

Коррупция – давлат ва жамиятнинг ривожига, халқнинг адолатга бўлган ишончига жиддий путур етказадиган хавфдир.

Ушбу иллат ҳар қандай давлат ва жамиятнинг турли соҳаларига, хусусан, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маданий ривожланишига жиддий путур етказиш билан бир қаторда инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг поймол бўлишига олиб келади. Шу боис унга қарши кураш халқаро аҳамият касб этиб, жаҳон сиёсатининг муҳим масалалари қаторидан жой олган.

Мамлакатимизда коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш, давлат ва жамият қурилишининг барча соҳаларида коррупциоген омилларга чек қўйишга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар изчил амалга оширилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 июндаги ПФ–6013-сонли Фармони асосида коррупциянинг олдини олиш ва унга қарши курашиш соҳасидаги давлат сиёсатини, шунингдек, коррупцияга оид ҳуқуқбузарликларнинг тизимли сабаб ва шарт-

шароитларини бартараф этиш ҳамда коррупцияга қарши курашиш чораларининг самарадорлигини оширишга қаратилган давлат ва бошқа дастурларни шакллантириш ва амалга ошириш мақсадида Коррупцияга қарши кураш Агентлиги ташкил этилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июлидаги “Коррупцияга қарши муросасиз муносабатда бўлиш муҳитини яратиш, давлат ва жамият бошқарувида коррупциявий омилларни кескин камайтириш ва бунда жамоатчилик иштирокини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармон билан “Коррупцияга оид жиноятларни содир этишда айбдор деб топилган шахсларнинг очиқ электрон реестри” юритилиши ҳамда 2022-йил 1-январдан давлат хизматчилари, уларнинг турмуш ўртоғи ва вояга етмаган фарзандларининг даромадлари ва мол-мулкини декларация қилиш тизими жорий этилши белгиланди.

Шунингдек, жорий йилнинг 4 декабрь куни Қонунчилик палатасида “Жиноят кодексига коррупцияга оид жиноятлар учун жавобгарлик муқаррарлигини таъминлашга қаратилган ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги Қонун лойиҳаси биринчи ўқишда қабул қилинди. Маълум қилинишича, мансабдор шахсларнинг жиноятлари оқибатида давлат ва жамият манфаатларига 2018-йилда 556 млрд, 2019-йилда 1,858 трлн, 2020 йилда 500,1 млрд, 2021-йилнинг 9 ойида 658 млрд сўм моддий зарар етказилган. Ушбу қонун билан 16 турдаги жиноятлар коррупцияга оид жиноятлар сифатида белгилаш назарда тутилмоқда.

Қайд этиш жоизки, мамлакатимизда бу каби коррупцияга қарши курашишга қаратилган бир қатор ташкилий-ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилиши натижасида Transparency International халқаро ноҳукумат ташкилоти томонидан ҳар йили эълон қилиб бориладиган “Коррупцияни қабул қилиш индекси”да мамлакатимиз 180 та давлат орасида 2019 йилда 153-ўринни эгаллаган бўлса, 2020 йилда 146-ўринни эгаллаб, 7 поғонага кўтарилди.

Жаҳон одил судлов лойиҳаси халқаро ноҳукумат ташкилотининг Ҳуқуқ устуворлиги индексидаги “Коррупциядан холилик” индикаторида (Absence of Corruption) мамлакатимиз 2020 йил бўйича 128 давлат орасида 0,40 балл билан 89-ўринни эгаллаган бўлса, 2021 йилда 139 давлат орасида 0,46 балл билан 70-ўринни эгаллади. Бу кўрсаткич билан мамлакатимиз 2020 йилдаги 89-ўриндан 19 поғонага юқорилаган.

Бундан ташқари, 2020 йилнинг декабрь ойида “Open Data Watch” халқаро нотижорат ташкилоти томонидан эълон қилинган очиқ маълумотлар рейтингида Ўзбекистон 63 балл билан жаҳон бўйича 187 мамлакат орасидан 44-ўринни, Марказий Осиёда эса 1-ўринни эгаллади.

Халқаро ташкилотлар рейтингларидаги бундай кўрсаткичлар малакатимизда коррупцияга қарши тизимли олиб борилаётган ислоҳотларнинг самарасидир.

Афсуски, давлат органлари ва ташкилотлари томонидан аҳолининг ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини оширишга, жамиятда коррупцияга қарши муросасиз муносабатни шакиллантиришга қаратилган тарғибот ва ташвиқот ишлари доимий равишда олиб борилишга қарамасдан, коррупция билан боғлиқ жиноятлар содир қилинмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш Агентлиги маълумотларга кўра, судлар томонидан 2020 йил давомида коррупция билан боғлиқ (ЖК 205-214, 243-моддалари) жами 2 270 нафар шахсга нисбатан 1 502 та жиноят иши кўриб чиқилган. Шундан 2 203 нафар шахсга нисбатан 1 457 та жиноят иши бўйича ҳукм чиқарилган.

2021 йилнинг 6 ойи мобайнида 2544 нафар мансабдор шахсга нисбатан коррупция ҳолатлари билан боғлиқ бўлган 1676 та жиноят ишлари тергов қилиниб, судларга юборилган.

Ушбу маълумотлар бу иллатга қарши жиддий ва муросасиз курашни янада кучайтириш зарурлигини кўрсатмоқда.

Айтиш жоизки, коррупцияга қарши курашиш зарурати халқаро миқёсда ҳам устувор йўналиш сифатида белгиланган. Жумладан, ушбу иллатга халқаро миқёсда курашишга доир ҳуқуқий асослар қатор халқаро ҳуқуқий нормаларда ўз ифодасини топган.

Хусусан, 2003 йил 31 октябрда қабул қилинган БМТ нинг Коррупцияга қарши Конвенцияси, 2000 йил 15 ноябрда қабул қилинган БМТ нинг Трансмиллий уюшган жиноятчиликка қарши Конвенцияси, 1999 йил 27 январдаги Европа Кенгашининг “Коррупция учун жиноий жавобгарлик тўғрисида”ги Конвенцияси, 1999 йил 4 ноябрдаги “Коррупцияга учун фуқаролик ҳуқуқий жавобгарлик тўғрисида”ги Конвенциялари ва бошқалар.

Ўзбекистон юқоридаги халқаро ҳужжатлардан 2008 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши Конвенцияси, шунингдек, 2010 йилда Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти доирасида қабул қилинган Коррупцияга қарши кураш бўйича Истанбул Ҳаракат режасини ратификация қилган.

Коррупцияга қарши курашиш бўйича хорижий давлатлар тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, аксарият мамлакатларда давлат органлари ва ташкилотларида юқори даражада шаффофликни ва яхлитликни таъминлаш орқали коррупцияга қарши курашда юқори натижага эришган.

Масалан, Янги Зеландия, Данияда барча давлат муассасалари ва аксарият хусусий компанияларда юқори даражадаги шаффофлик мавжуд. Улар фаолиятлари тўғрисида катта ҳажмдаги маълумотларни тақдим этувчи интернет сайтларининг мунтазам янгиланиши маълумотларнинг жамоатчиликка очиқ бўлишини таъминлайди. Дания Халқаро Тараққиёт Агентлиги фаол равишда коррупцияга қарши муросасизлик, яъни ташкилот доирасида ва ташқи ҳамкорлар билан ҳамкорлик жараёнида коррупциянинг ҳар қандай намоён бўлишига йўл қўймаслик сиёсатини олиб бормоқда.

Муросасизлик сиёсатининг бир қисми сифатида коррупцияга қарши қоидалар барча компаниялар томонидан шартнома ва келишувларга киритилади ва бу талабларга риоя қилмаслик шартномани бекор қилиш ва ҳамкорлик қилишдан бош тортишга олиб келиши мумкин.

Кўпгина битимлар учун биргаликда шарти коррупциядан фойдаланмаслик ҳақидаги декларацияни имзолаш зарурати. Шахс ўз имзоси билан коррупция жараёнларида иштирок этишдан бош тортишини билдиради ва иштирок этган тақдирда эъҳтимолий зарарларни қоплашни кафолатлайди.

Индонезияда ёшларни коррупцияга қарши муросасиз муносабатни шакллантириш мақсадида ихтиёрий равишда коррупцияга қарши кураш курслари мактаблар ва университетларнинг ўқув дастурларига киритилади ва факультатив равишда олиб борилади.

Германияда кўп йиллардан буён давлат органларида коррупцияни олдини олиш учун ротация амалга оширилмоқда. Германия қонунчилигида коррупцияга мойил бўлган лавозимларда ишлайдиган давлат хизматчиларини ротация қилиш назарда тутилган.

Японияда коррупция билан боғлиқ ишларни кенг оммага етказиб бориш мақсадида 2001 йилда ахборотни ошкор қилиш тартибини назарда тутувчи қонун қабул қилинган.

Ушбу ҳужжат фуқароларга давлат органлари томонидан сақланадиган маълумотлардан фойдаланиш ҳуқуқини, шу билан бирга агар ҳукумат муайян маълумотларни ошкор қилмаслик тўғрисида қарор қабул қилган бўлса, у ҳолда маълумотларнинг ошкор этилишини назорат қилиш кенгашига мурожаат қилиш имкониятини кафолатлайди.

Бундан ташқари, Кадрлар сиёсати Японияда коррупцияга қарши кураш борасида амалга оширилаётган кенг кўламли чора-тадбирларнинг асосий йўналишларидан биридир.

Кадрлар сиёсатининг адолатли олиб бориш ва ходимлар манфаатларини ҳимоя қилиш вазифаси парламент палаталари розилиги билан Ҳукумат раҳбари томонидан ташкил этиладиган кадрлар масалалари бўйича кенгаш зиммасига юклатилган.

Мазкур кенгаш ҳар йили парламентга ва ҳукуматга маошнинг миллий тенденциялари тўғрисида ҳисобот беради. Хусусий секторда иш ҳақининг сезиларли даражада ошиши аниқланганда, Кенгаш давлат хизматчиларининг иш ҳақи миқдорига ҳам тегишли ўзгартиришлар киритиш ҳақида тавсияларни ишлаб чиқади ва кўриб чиқиш учун парламентга тақдим этади.

Корея Республикасида коррупцияга қарши курашиш бўйича фақат Президент олдида ҳисобдор бўлган мустақил комиссия (инг. Anti-Corruption and Civil Rights Comission) ташкил этилган бўлиб, ушбу комиссия мамлакатда антикоррупцион сиёсатни мувофиқлаштиради, коррупцияга қарши курашиш соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш, коррупциявий хавф-хатарлардан хабардор этиш

масалалари бўйича халқаро ҳамкорликни амалга ошириш, антикоррупцион дастурларнинг амалга оширилиши юзасидан даврий ҳисоботлар тақдим этиш ва бошқа бир қатор вазифаларни бажаради.

Бундан ташқари, коррупцияга қарши курашишда 1999 йил Сеул шаҳри мэри Гох Кун буйруғи билан коррупцияга қарши кураш бўйича махсус электрон “OPEN” дастури ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу дастур орқали фуқаролар исталган вақтда интернет орқали мурожаатлари бўйича амалдорлар томонидан ҳужжатларини кўриб чиқиш жараёнини кўзатиш мумкин.

Шунингдек, дастурда фуқаролар мурожаатлари, рухсатномалар ва санкциялар масаласида коррупция эҳтимоли юқори бўлган ҳолатларда уларни амалдорлар томонидан қандай ҳал қилинаётганлигини кўзатишга ва агар ушбу жараёниларда қонунбузарликка йўл қўйиладиган бўлса, ўз норозиликларини билдириши мумкин.

Ушбу интернет дастури, коррупцияга қарши ҳокимият органларининг фаолияти, фуқаролар ва мамлакат манфаатларига ҳалол хизмат қилишда ўзига хос йўл бўлди.

Сингапур коррупцияга қарши курашишда қуйдаги йўналишларни қўллаган ҳолда юқори натижаларга эришилган;

– давлат томонидан бюрократик тартиблар сезиларли даражада соддалаштириш;

– давлат ловозимларини эгаллаган шахслар мажбурий равишда ротацияси қилиш;

– давлат органлари фаолияти тартиби соддалаштириш;

– фуқаролар ҳар бир коррупция ҳолати тўғрисида эркин ва ошкора маълумот берадиган оммавий ахборот воситаларининг мустақил равишда ишлаши таъминланлаш.

Юқоридаги келиб чиқиб, мамлакатимизда доимий равишда коррупцияга қарши курашиш борасида чора-тадбирларни такомиллаштириш бориш юзасидан қуйидаги таклифларни илгари сўрилади:

– мамлакатимизда *ўсиб келаётган ёш авлоднинг* коррупцияга қарши муросасизлик руҳида комол топиши учун мактаблар ва университетларнинг ўқув дастурларига қисқа ўқув соатларини киритиш орқали ушбу иллатни жамиятга салбий таъсири ва унга қарши кураш бўйича тушунчалар бериб бориш;

– давлат хизматларини кўрсатишда электрон онлайн хизматлар *турини* янада *кенгайтириш* лозим. Фуқароларнинг ортиқча оворагарчилигини олдини олиш билан бир қаторда, коррупция олдини олишда ижобий натижасини беради;

– коррупциянинг олдини олиш ва қарши курашишда жамоатчилик назоратини кучайтириш. Жамоатчилик назоратини ошириш, сўз эркинлиги, ОАВ мустақиллиги ва фаоллигини ошириш коррупция даражасининг пасайишига *сезиларли* таъсир кўрсатади.

Safarova Adiba Shuxrat qizi
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti bosh maslahatchisi

KOOPERATSIYALARNING HUQUQIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA

Safarova Adiba Shukhrat kizi
Head consultant of Research Institute of Legal Policy under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

THE MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIGITALIZATION OF JUSTICE AUTHORITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AT THE PRESENT STAGE

Сафарова Адиба Шухрат кизи
Главный консультант Исследовательский институт правовой политики при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

УКРЕПЛЕНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ КООПЕРЕАЦИИ – КАК УСЛОВИЯ СОЦИАЛЬНОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Annotatsiya. *Kooperatsiyalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda kooperatsiyalarni rivojlantirish maqsadida 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular, asosan, paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash, meva-sabzavotchilik, sanoat sohasidagi kooperatsiyalarni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari va aholi o'rtasida kooperatsiyalarni kengaytirishga qaratilgan. Biroq mamlakatimiz iqtisodiyotida kooperatsiyalarning o'rnini xorijiy davlatlar bilan qiyoslaganda salbiy baholash mumkin. Bunga kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchiligimiz xalqaro standartlar talablariga javob bermasligi, mazkur sohada davlat aralashuvlarining saqlanib qolganligi, kooperatsiyalarga a'zolikni rag'batlantiradigan mexanizmlar mavjud emasligi kabi omillar sabab bo'lmoqda.*

Maqolada kooperatsiyalarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan bo'lib, mavjud amaliyot va xorijiy davlatlar tajribasi asosida qonunchilikka takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: *kooperatsiya, kooperatsiyaga a'zolik, kooperativ mulk, ixtiyoriylik, boshqaruv, ro'yxatga olish, sanoat kooperatsiyasi, aholi bandligi.*

Abstract: *Cooperatives play an important role in the socio-economic development of the country. In recent years, our country has adopted about 10 normative legal acts for the development of cooperation. They are mainly focused on the cultivation and processing of raw cotton, fruit and vegetables, the development of industrial cooperation, and the expansion of cooperation between businesses and the population. However, the role of cooperation in the economy of our country can be evaluated negatively compared with foreign countries. This is due to the fact that our national legislation regulating the activities of cooperatives is not suitable the requirements of international standards, government intervention in this area is preserved, and there are no mechanisms to encourage membership in cooperatives and so on.*

The article analyzes the factors influencing the development of cooperatives and makes recommendations for legislation based on existing practices and the experience of foreign countries.

Keywords: *cooperative, cooperative membership, cooperative property, volunteerism, management, registration, industrial cooperation, employment.*

Аннотация: *Кооперативы играют важную роль в социально-экономическом развитии страны. За последние годы в нашей стране принято около 10 нормативно-правовых актов по развитию кооператива. В основном они направлены на выращивание и переработку хлопка-сырца, фруктов и овощей, развитие производственной кооперации, расширение сотрудничества предприятий и населения. Однако роль кооперации в экономике нашей страны можно негативно сравнить с зарубежными странами. Это связано с тем, что наше национальное законодательство, регулирующее деятельность кооперативов, не соответствует требованиям международных стандартов, сохраняется вмешательство государства в эту сферу, отсутствуют механизмы поощрения членства в кооперативах.*

В статье анализируются факторы, влияющие на развитие кооперативов, и даются рекомендации по законодательству, основанные на существующей практике и опыте зарубежных стран.

Ключевые слова: *кооператив, кооперативное членство, кооперативная собственность, волонтерство, управление, регистрация, производственная кооперация, трудоустройство.*

Kooperatsiyalar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Ma’lumot uchun: Kooperatsiya *– bu qonuniy umumijtimoiy yoki iqtisodiy maqsadga erishish uchun ixtiyoriy ravishda birlashgan, talab qilinadigan kapitalga teng ulushlarni qo‘shgan va tavakkalchilik va foydalarning adolatli ulushini qabul qilgan, umumiy qabul qilingan kooperatsiya tamoyillariga muvofiq ish olib boruvchi shaxslarning belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tgan birlashmasi.*

Xususan, mutaxassislarning fikriga ko'ra, **kooperatsiyalarning iqtisodiyotga ijobiy ta'siri** quyidagilar bilan baholanadi:

– ishlab chiqarish, marketing, kommunal xizmatlar, transport, kredit, sug'urta, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda tadbirkorlarning mehnat unumdorligini oshiradi;

– muayyan turdagi mahsulotni ishlab chiqarishdan to tayyor mahsulot ko'rinishiga kelgunga qadar bo'lgan bosqich bir kooperatsiya atrofida birlashganligi natijasida chakana narxlarni pasaytiradi;

– tadbirkorlarning o'zaro birlashishi ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni jalb qilish, innovatsion uslublarni qo'llash, tovarlarni xalqaro bozorga olib chiqish imkonini yaratadi;

– kichik va o'rta biznes vakillarining kooperatsiyalarga birlashib, yirik tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro raqobat muhitiga kirishishi monopoliyani oldini oladi, bozor raqobatbardoshligini oshiradi;

– qo'shimcha ish o'rinlari yaratilib, aholi bandligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy jihatdan kooperatsiyalar kam ta'minlangan, ishsiz fuqarolarni qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi.

Shu sababli kooperatsiyalar faoliyati xorijiy davlatlarda ancha keng rivojlangan. Jumladan, Xalqaro kooperativ alyans (International Co-operative Alliance) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab **1 mlrddan** ortiq odam kooperativlarga a'zodirlar. A'zolarining eng ko'p soni 305,6 mln a'zolarga va 30,000 ga yaqin kooperativlarga ega AQSHga to'g'ri keladi. Kanadada har uchinchi fuqaro kooperativ a'zosi hisoblanadi. Fransiyada kooperativlar fuqarolarni **700 ming** ish o'rni bilan ta'minlaydi. Yaponiyada fermerlarning **91%**i kooperativlar asosida tashkil etilgan. Quvaytda chakana savdoning **80%**i iste'mol kooperativlari tomonidan amalga oshiriladi.

Dunyodagi eng yirik kooperativ korxonalarning jami daromadi **1.6 trln** AQSH dollarini tashkil qiladi. Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, moliyaviy kooperativlar **857 mln** kishiga (dunyo aholisining 13 %i) xizmat qiladi, qishloq xo'jaligi kooperativlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarining **50 %**ini ishlab chiqaradi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda kooperatsiyalarni rivojlantirish maqsadida 10 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular, asosan, paxta xomashyosini yetishtirish va qayta ishlash, meva-sabzavotchilik, sanoat sohasidagi kooperatsiyalarni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlari va aholi o'rtasida kooperatsiyalarni kengaytirishga qaratilgan.

Jumladan, tomorqa yer maydonlaridan samarali va oqilona foydalanish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali aholini, ayniqsa, ishsiz va ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlami bandligiga ko'maklashish maqsadida kooperativlar tashkil etishni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yildi.

Ma'lumot o'rnida: *O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan **2020–2021-yillar** davomida jami **697 ta** kooperativlar tashkil etilgan bo'lib, **33 669 nafar** ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlangan.*

Qayd etish kerakki, kooperativlar tashkil etishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishiga, ayniqsa, qishloq xo'jaligi resurslaridan samarali foydalanish orqali aholi daromadini oshirishga sezilarli ta'sir etadi.

Biroq mamlakatimiz iqtisodiyotida kooperatsiyalarning o'rnini xorijiy davlatlar bilan qiyoslaganda salbiy baholash mumkin.

Taqqoslash uchun: *Italiyada – **54 096,** Fransiyada – **62 041**, Germaniyada – **66 900**, Ispaniyada – **58 279 ta kooperativlar** faoliyat yuritadi.*

Ta'kidlash kerakki, tabiiy resurslar, mulkiy munosabatlar, huquqiy mexanizmlar, biznes muhit, investitsiya oqimi, ishlab chiqarish infratuzilmasi, iqtisodiy erkinlik kabilar kooperatsion jarayonlarni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan o'rganish natijalariga ko'ra, respublikamiz iqtisodiyotida kooperatsiyalar faoliyati samaradorligi pastligiga ular faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik xalqaro standartlar talablariga javob bermasligi, mazkur sohada davlat aralashuvlarining saqlanib qolganligi, kooperatsiyalarga a'zolikni rag'batlantiradigan mexanizmlar mavjud emasligi kabi omillar sabab bo'layotganligi aniqlandi. Xususan:

I. Kooperativlar faoliyatini tashkil etishdagi huquqiy va tashkiliy kamchiliklar.

1. Kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik xalqaro standartlar talablariga javob bermaydi.

Ma'lumot o'rnida: *Xorijiy davlatlarda kooperativ qonunlarning 2 turi amal qiladi: barcha turdagi kooperativlar uchun umumiy qonun yoki tarmoq qonunlar.*

*Bunda umumiy qonun mavjud davlatlarda tarmoq qonunlar amal qilmaydi. Masalan, **Janubiy Koreyada** muayyan sohani (qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliq ovlash, kredit) tartibga soluvchi tarmoq qonunlar amal qiladi. **Xitoy, Germaniya, Kanada, Malayziya, Fillipin** kabi davlatlarda kooperativ munosabatlar faqat umumiy qonunlar bilan tartibga solingan.*

Mamlakatimizda kooperatsiyalar faoliyati **umumiy va tarmoq** qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. Ya'ni, 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan **"Kooperatsiya to'g'risida"gi** O'zbekiston Respublikasining Qonuni kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonun hisoblanadi. Bundan tashqari, kooperatsiyalar faoliyatiga doir o'ndan ortiq tarmoq qonunchilik hujjatlari ham mavjud. Jumladan, Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4239-son qarori va boshqa qonunchilik hujjatlarini misol sifatida keltirish mumkin.

Biroq kooperatsiya sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning ko'pligi mavjud normalarni amaliyotda qo'llash jarayonida muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, qonunchilikdagi kamchiliklar sababli qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq aholisining turmush sharoitini yanada yaxshilash, ularning manfaatdorligini ta'minlashning zamonaviy usuli bo'lgan – klasterlarning kooperatsiyalar sifatida faoliyat yuritishi huquqiy jihatdan mustahkamlanmagan.

Shuningdek, kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi umumiy qonun – "Kooperatsiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bugungi kun talablariga, xususan, Xalqaro kooperativ ittifoqi tamoyillari va tavsiyalariga javob bermaydi. Mazkur Qonun **16 moddadangina** iborat bo'lib, uning qoidalari umumiy xarakterga ega, kooperatsiya a'zolarining manfaatlarini ifoda etmaydi hamda davlat nazoratini belgilash bilan chegaralangan.

Ma'lumot o'rnida: *Xitoyning "Kooperatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni (Cooperatives Act) 9 bo'lim, 77 moddadan iborat. Germaniyaning "Kooperatsiyalar to'g'risida"gi Qonuni (Cooperative Law) 10 bo'lim, 174 moddadan iborat.*

Jumladan, mazkur Qonunda **kooperativlar faoliyatinining asosiy prinsiplari** aks etmagan. Shu sababli uning qoidalari ham mazmunan umumqabul qilingan prinsiplarga mos kelmaydi.

Ma'lumot o'rnida: *Xorijiy davlatlar qonunchiligida kooperativlar faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar keltirilgan:*

– ixtiyoriy va ochiq a'zolik;

– a'zolarni demokratik boshqarish;

– foyda yoki zararni qoplashda a'zolarning iqtisodiy ishtiroki va hissasi;

– biznesning mustaqilligi va a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi;

– kooperativlar o'rtasidagi hamkorlik va jamiyat uchun g'amxo'rlik.

Masalan, ushbu Qonunda a'zolarni demokratik boshqarish xususiyatlari va a'zolar to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligiga oid qoidalar mavjud emas. Bu o'z navbatida, a'zolarda o'zaro ishonch va hamkorlik munosabatlari shakllanmasligiga, ularning kooperatsiya faoliyatida ishtiroki cheklanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, Xalqaro kooperativ ittifoqi tavsiyalariga ko'ra, kooperativ qonunchilikda **kooperativ mulk** va **kooperativning zahira fondini** shakllantirish, uni taqsimlash va foydalanish masalalari to'liq tartibga solinishi lozim.

Qayd etish lozimki, "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunda bu masalalar yetarlicha tartibga solinmagan. Ushbu Qonunning 4-moddasi kooperativning mulkdorlari va mol-mulki masalariga bag'ishlangan. Biroq moddada umumiy masalalar, ya'ni kooperativning mustaqil balansida o'z ifodasini topadigan asosiy fondlar, aylanma mablag'lari, pay badallari, shuningdek, boshqa boyliklar kooperativ mulki hisoblanishi kabi qoidalar belgilangan xolos.

Zaxira fondlar haqidagi qoidalar esa mavjud emas.

Xorijiy davlatlar, jumladan, Germaniyada kooperatsiyalarning zaxira fondlaridan investitsiya faoliyatini amalga oshirish, a'zolarga ssudalar berish kabi maqsadlarda foydalanish mumkin.

Qolaversa, qonun hujjatlarida kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, kooperatsiyaga a'zolik va a'zolikdan chiqish, a'zolik badalini to'lash shartlari, dividend ulushini aniqlash va taqsimlash mexanizmlari va umuman, kooperatsiya munosabatlari to'liq tartibga solinmaganligi amaliyotda qator muammolarga sabab bo'layotganligi, kooperatsiyalar faoliyatini yo'lga qo'yilishida tashkiliy-iqtisodiy (moliyaviy) va huquqiy (shartnomaviy) mexanizmlar yetarli darajada yaratilmaganligi ko'zga tashlanmoqda.

Umuman olganda, "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonun kooperatsiyalar faoliyatini rivojlantirishga, ularni iqtisodiyotda rolini oshirishga xizmat qilmaydi.

2. Kooperativlar faoliyatida davlatning nazorat funksiyalari saqlanib qolmoqda.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Osiyo mintaqasining amaldagi kooperativ qonunlari, avvalambor, kooperativlar davlat tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish dasturlari asosida faoliyat yuritishiga qaratilgan. Biroq, ularning fikricha, **hukumatlar kooperativlar ustidan o'z nazoratlarini (kooperativning kundalik ishlariga aralashish) kamaytirishi lozim.**

Ma'lumot uchun: *Xalqaro kooperativ ittifoqining Osiyo mintaqaviy direktori P.E. Weeraman shunday degan edi: "Kooperativ harakatni rivojlantirishga hukumat qo'shishi mumkin bo'lgan eng katta hissa – bu qonuniy asos va zarur kafolatlar va imtiyozlarni yaratadigan qonunchilikni joriy etishdir".*

Mazkur xulosa O'zbekiston uchun ham xos bo'lmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrdagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–4549-son qarorining 1-bandida kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etgan holda 2020-yilda Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining 22 ta tumanida **31 ta**, 2021-yilda respublika bo'yicha **100 ta** qishloq xo'jaligi birlashmalari tashkil etilishi belgilangan.

Ta'kidlash kerakki, mazkur talab kooperativlar faoliyatini tashkil qilish prinsiplariga mos kelmaydi. Sababi, "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasida kooperatsiya jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida umumiy maqsadlarga erishish uchun tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, mulkning shirkat (jamoa) shakliga asoslangan **ixtiyoriy birlashmalaridan (kooperativlaridan)** iborat ekanligi nazarda tutilgan.

3. Amaldagi qonunchilik kooperativ a'zolarning a'zolikdan manfaatdorligini ta'minlamaydi.

Kooperatsiya tashkil etishning asosiy maqsadidan biri bu kooperatsiya a'zolarini daromad bilan ta'minlash va ularning daromadlarini oshirib borishga qaratilgan bo'ladi. Shunga ko'ra, kooperativ qonunchilikda **kooperativlarning faoliyat yuritishini rag'batlantiradigan yoki a'zolarning manfaatdorligini oshiradigan mexanizmlar** nazarda tutilishi lozim.

Jumladan, ushbu imkoniyat va imtiyozlar quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

– zaxira fondlarini o‘z ichiga olgan kooperativ kapital ulushi, hissasi yoki a’zoning ulushi sud tomonidan musodara qilinishi yoki sotilishi mumkin emas (Malayziya);

– kooperativdagi har qanday aksiyalar, jamiyat tomonidan berilgan qarzlar yoki uning foizlari deklaratsiya qilinmaydi (Buyuk Britaniya);

– hukumat ustav kapitaliga xayriya mablag‘lari ajratishi, kreditlar berishi, qarz va foizlarni to‘lashni kafolatlashi va ustav kapitalining dividendlari qaytarilishini kafolatlashi mumkin (Hindiston);

– a’zolar soni kam bo‘lgan yoki keng jamoatchilik bilan muomala qilmaydigan kooperativlar har qanday turdagi davlat soliqlaridan ozod qilinadi (Fillipin);

– kooperativlar shtamp boji, ro‘yxatdan o‘tish boji va boshqa davlat bojlari to‘lashdan ozod qilinadi (Shri-Lanka);

– kooperatsiyalar daromad yoki tadbirkorlik solig‘idan ozod qilinishi mumkin (Xitoy).

Biroq, bundan mexanizmlar qonunchiligimizda nazarda tutilmagan.

Ma’lumot uchun: *O‘rganishlar davomida Norin tumanida tashkil etilgan “XOLIS MADAD CHORVA” ishlab chiqarish kooperativida* ***1 nafar*** *hamda Yangiqo‘rg‘on tumanida tashkil etilgan “O‘ZAK AGRO KLASTER” ishlab chiqarish kooperativida* ***2 nafar*** *a’zolar mavjudligi aniqlangan.*

4. Kooperatsiyalar to‘g‘risida aholi bilim darajasi kam, tadbirkorlarda o‘zaro ishonch munosabatlari shakllanmagan.

Kooperatsiyalar faoliyatining samaradorligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar qatoriga aholining kooperatsiyasi to‘g‘risidagi bilim darajasi yetarli emasligi, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va erkin birlashishga ruhiy (psixologik) jihatdan tayyor emaslik kabilarni ham kiritish mumkin.

Kooperatsiya munosabatlarini tashkil etish, uning afzalligi, erishiladigan yutuqlar, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha xorijiy davlatlarning zamonaviy ilg‘or tajribalari yetarlicha targ‘ibot qilinmaydi. Qonunchilikda ham tadbirkorlarda o‘zaro ishonch munosabatlarini shakllantirish borasida aniq mexanizmlar nazarda tutilmagan.

Xorijiy davlatlar, jumladan, **Xitoyning** “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni 71-moddasida davlat organlari kooperativlarni rivojlantirish uchun kooperativlarni targ‘ib qilish, kooperativ ta’lim va o‘qitishni tashkil qilish, kooperativlarga moliyaviy rag‘batlantirish kabi usullardan foydalanishi belgilangan.

Shuningdek, tadbirkorlarda o‘zaro ishonch munosabatlarini shakllantirish uchun qonuniy mexanizmlar sifatida quyidagilar keltirilgan:

– a’zolarning kooperatsiyaga kirishi va chiqishi uchun asoslar;

– a’zolikdan chiqish haqidagi xabarning uch oy oldin berilishi;

– kooperativ a’zo boshqa a’zolarning firibgarlik yoki insofsiz harakat qilganligini aniqlansa, sud tomonidan yetkazilgan zararni undirib olishi mumkinligi va h.k.

Shu sababli kooperatsiya ishtirokchilari bo‘lgan subyektlar, jumladan, fermer va dehqon xo‘jaligi rahbarlari, tomorqa yer egalari yoki boshqa shu sohadagi tadbirkorlarning huquqiy hamda biznes sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

5. A’zolarda kooperatsiyani boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi mexanizmlar mavjud emas.

Kooperatsiya munosabatlariga asoslangan kooperativ korxonalarni va uning a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni manfaatli tashkil etishda mutaxassislarning kooperativlarni boshqarish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga egaligi muhim ahamiyatga ega. Kooperativ a’zolari o‘z maqsadlariga erishish uchun boshqaruv va buxgalteriya oid ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun kooperatsiya boshqaruvi tizimli va samarali tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

Ammo kooperativlarni boshqarish bilan bog‘liq amaldagi tartib xalqaro standartlarga mos kelmaydi. Jumladan, “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasida kooperativning oliy boshqaruv idorasi umumiy yig‘ilish, konferensiya, syezd bo‘lib, ular kooperativ raisini (boshqaruvini), taftish komissiyasini (taftishchini) saylashi va ularga kooperativni boshqarish bo‘yicha o‘z vakolatlarini topshirishi belgilangan. Boshqaruvning boshqa shakllari nazarda tutilmagan.

Xalqaro amaliyot kooperativ boshqaruv beshta element bo‘yicha tasniflanishi lozimligini ko‘rsatadi. Bular bosh assambleya, **boshqaruv raisi, ijroiya kengashi yoki kuzatuv kengashi, taftish, qo‘mitalardan** iborat. Xorijiy davlatlarning kooperativ qonunchiligida kooperativ boshqaruvning barcha turi mavjud hamda ularning faoliyati, vakolatlari va funksiyalari qonun darajasida belgilab qo‘yilgan. Boshqaruvning mazkur tuzilishi a’zolarda kooperatsiyani boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

6. Kooperativlarni ro‘yxatga olish tizimli tartibga solinmagan. “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning 5-moddasida kooperativning ustavi kooperativ ta’sis etishni istagan fuqarolarning umumiy yig‘ilishida yoki yuridik shaxslar muxtor vakillarining yig‘ilishida qabul qilinishi va kooperativ joylashgan yerdagi hokimlikda ro‘yxatga olinishi belgilangan bo‘lsada, **kooperativlarni ro‘yxatga olishni tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hujjati** mavjud emas. “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi Qonunda ham kooperativlarni ro‘yxatdan o‘tish tartibi belgilab qo‘yilmagan. Mazkur holat ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga ixtiyoriy vakolatlar berishi, bu o‘z navbatida, kooperativlar faoliyatida turli amaliy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

II. Kooperatsiyalarni rivojlantirishda tarmoqlararo kamchiliklar.

1. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida kooperatsiyalar faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar.

Bugungi kun qishloq xo‘jaligi sohasida eng dolzarb masalalardan biri qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtiruvchi xo‘jaliklar bilan ularning mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishlash, sotish, xizmat ko‘rsatish, ta’minot tizimidagi barcha xo‘jalik subyektlari o‘rtasida teng manfaatlar asosida, adolat va oshkora iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish zarur hisoblanadi.

Biroq qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kooperatsiyalari faoliyati tahlili fermer, dehqon, tomorqa xo'jaliklarini kooperatsiya a'zoligiga biriktirishga, klasterlar faoliyatida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirishga ma'muriy-boshqaruv, tashkiliy omillar salbiy ta'sir etayotganligini ko'rsatmoqda.

Birinchidan, qishloq xo'jaligi sohasini boshqaruv tashkilotlari fermer xo'jaligi, agroklasterlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ekinlarni joylashtirish, uning maydoni va boshqa yo'nalishlarda shu jumladan, infratuzilma subyektlari bilan shartnoma tuzish jarayonlarida bevosita ishtirok etadilar (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-sentabrdagi 744-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi PF–14-son Farmoni*).

Qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirish hajmlarini tegishli boshqaruv tashkilotlari va tuzilmalar tomonidan belgilanishi, pirovard natijada, yetishtirilgan mahsulotni sotish jarayonigacha bo'lgan bosqichlarni ham ular tomonidan nazoratga olinishiga, xo'jaliklar faoliyati ustidan mavsum davomida monitoring olib borilishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi korxonalarining umumiy faoliyatlarini birlashtirib, ularni kooperatsiya asosida faoliyat yuritishi afzalligini asoslab beradigan, shuningdek, birlamchi tashkiliy tuzilmalar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam ko'rsatadigan **davlat yoki nodavlat tuzilmalar** faoliyati yo'lga qo'yilmagan.

Shuningdek, kooperatsiya munosabatlari sharoitida xo'jalik subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar, ularning daromadlar va xarajatlari, kooperatsiyalarning yil yakuniy natijalari bo'yicha YIM ulushi va boshqa shu kabi **ma'lumotlar statistikasi** yuritilmaydi.

Uchinchidan, paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati tahlili erishilgan ijobiy natijalar bilan bir qatorda hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

Jumladan, paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyalashtirish, ularga kreditlar ajratishning amaldagi tartibini takomillashtirish va bozor talablariga javob beradigan yangi kreditlash mexanizmini yaratish zarur.

Paxta-to'qimachilik klasterlari rahbarlarining fikricha, paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyalashtirishning amaldagi tizimida, ya'ni ishlab chiqarish va moliyalashtirish muddati o'rtasida **tafovut** mavjud. Xususan, bugungi kunda ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash uchun kreditlar **1–1.2 yil** muddatga berilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2021 yildagi PQ–2-son qarori).

Vaholanki, paxta xomashyosini birlamchi va chuqur qayta ishlash yo'li bilan yerni tayyorlash, ekish, hosilni yig'ishtirib olish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish, ularni ichki va tashqi bozorda sotish **3–3.5 yil** davom etadi.

Xulosa qilganda, qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini davlat tomonidan iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari to'liq emasligi, me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslar yetarli bo'lmaganligi kooperatsiya munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, faoliyatni yo'lga qo'yishdagi muammolar va a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi sababli, hozirgi vaqtda rasmiylashtirilgan **94 ta** kooperatsiyadan **30 tasi** (31 foizi) o'z faoliyatini to'xtatgan.

Ma'lumot uchun: *Ayni paytda qishloq xo'jaligi sohasidagi kooperatsiyalar soni **64 ta** tashkil etib, ularga jami **1003 ta** fermer xo'jaliklari, **18 ta** qayta ishlash korxonalari, **15 ta** eksportyorlar a'zo hisoblanadi hamda jami **23.2 ming ga** yer maydon biriktirilgan.*

*Bugungi kunda faoliyat yurituvchi kooperatsiyalarning jami yillik qayta ishlash quvvati **11,2 ming** tonna, quritish quvvati **2 ming** tonna, muzlatkich omborxonalar quvvati esa **11,3 ming** tonnani tashkil etmoqda.*

2. Kooperatsiyalarning iqtisodiyotning turli tarmoqlarida rivojlanishi uchun yetarli tashkiliy-huquqiy asoslar yaratilmagan.

Yuqorida keltirilganidek, kooperatsiyalar ishlab chiqarish, marketing, kommunal xizmatlar, transport, kredit, sug'urta, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi sohalarda muhim ahamiyatga ega.

Masalan, rivojlangan mamlakatlarda **sanoat kooperatsiyasi** ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va umumiy iqtisodiy o'sishni ta'minlashning iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi.

Yaponiya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Turkiya kabi mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi tarkibiy qismlardan biri bu – sanoat kooperatsiyasi va unga xizmat qiluvchi subpudratchilar hisoblanadi.

Jumladan, Yaponiya tajribasiga ko'ra, 1980-yillarning boshidayoq kooperatsiya faoliyati asosida ish yurituvchi kichik firmalarning ulushi **65%**ni tashkil etgan bo'lsa, elektronika sanoatida bu ko'rsatkich **86%**ga yetgan.

Biroq mamlakatimizda sanoat kooperatsiyasining rivojlanganlik holati qoniqarli darajada emas.

Xususan, bugungi kunga qadar elektron kooperatsiya portalida (cooperation.uz) jami **94 ming** ishtirokchi ro'yxatdan o'tgan. Portalga joylashtirilgan tovarlar soni qariyib **184 ming**tani tashkil etgan.

Mutaxassislarning fikricha, O'zbekistonda sanoat sohasida kooperatsiya faoliyatini rivojlantirishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

- yirik sanoat tarmoqlarida davlat ulushining saqlanib qolganligi;
- xo'jalik subyektlari tomonidan xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlaridan samarali foydalanmaslik;
- kooperatsiyalarga a'zolikni rag'batlantiradigan iqtisodiy mexanizmlarni mavjud emasligi;
- xorijiy mamlakatlar bilan sanoat kooperatsiyalarini tashkil etishdagi muammolarning mavjudligi;
- mahalliylashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishda hududiy nomutanosiblikning mavjudligi;
- ishlab chiqarish korxonalarini mahalliylashtirish dasturiga kiritish jarayonlarining murakkabligi;

- hududlardagi ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanmaganligi;
- qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari kooperatsiyasini bog‘laydigan tizimning mavjud emasligi;
- ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalari o‘rtasida kooperatsiyani kengaytiradigan va rag‘batlantiradigan mexanizmlarning mavjud emasligi.

3. Aholi bandligini ta’minlash sohasida kooperativlar faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar.

Bugungi kunda ishsiz va band bo‘lmagan aholi kooperativlar ustav fondiga ulushdor sifatida kiritilib, ularning bandligigiga ko‘maklashish maqsadida Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyalar berish mexanizmidan ta’sirchan va samarali chora sifatida foydalanilmoqda.

Ya’ni ishsiz va ish qidirayotgan, shuningdek ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamiga mansub bo‘lgan fuqarolarning bandligini ta’minlash maqsadida kooperativ tashkil etmoqchi bo‘lgan muassisga mazkur shaxslarni kooperativ ustav fondiga (jamg‘armasiga) ulush sifatida kiritish uchun – har bir a’zoga bazaviy hisoblash miqdorining **10 baravari** miqdorida subsidiya ajratish tizimi yo‘lga qo‘yilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PQ–4716-son qarori).

Biroq mazkur sohada ham ayrim muammolar ko‘zga tashlanmoqda:

Birinchidan, kooperativlarga a’zo bo‘lgan ishsiz shaxslar ishga qabul qilish to‘g‘risidagi buyruq va mehnat shartnomasisiz a’zo bo‘ladilar. Bu esa mehnat munosabatlariga kirishmaganligi sababli ikki tomonning mehnat huquqlari va majburiyatlarini belgilamasligi natijasida daromadga ega bo‘lishini ta’minlamaydi. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan olib borilgan monitoring natijalariga ko‘ra, aksariyat kooperativlar a’zo bo‘lgan shaxslar uchun Davlat soliq organlari tomonidan yagona ijtimoiy to‘lov to‘lamagan holatlari aniqlangan. Bu esa a’zo bo‘lgan shaxsning ijtimoiy himoyasini, ya’ni pensiya yoshiga yetganda, pensiya ta’minotini kafolatlamaydi. Shuningdek, davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar (vaqtincha mehnatga layoqatsizlik hamda homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha) to‘lanishi ham kafolatlanmaydi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-apreldagi 225-son “Davlat mablag‘lari hisobidan band bo‘lmagan aholiga berilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to‘lovlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida 2021-yil 1-maydan boshlab 28 ta tuman va shaharlarda sinov tariqasida Davlat mablag‘lari hisobidan band bo‘lmagan aholiga berilayotgan subsidiya, grant, nafaqa va boshqa to‘lovlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta’minlash maqsadida **ijtimoiy shartnomalar** tuzish joriy etildi. Mazkur ijtimoiy shartnomaning bandlariga ko‘ra kooperativlar ustav fondiga ulush sifatida kiritish uchun ajratilgan subsidiya hisobiga ishlab chiqarish jarayonlarida kooperativ a’zosi sifatida faol ishtirok etish majburiyati belgilangan. Ishsiz tomonidan uzrsiz sabablarga ko‘ra kontrakt shartlari bajarilmagan taqdirda,

shartnoma bekor qilingan kundan e’tiboran o‘n ikki oygacha ushbu shaxs bilan shartnoma tuzilmasligi belgilangan. Bu esa shartnoma shartlari bajarilmasligi munosabati bilan fuqaro 12 oy davomida Bandlik xizmatlaridan (ishsizlik nafaqasi, subsidiyalar, stipendiyalar va b.) foydalana olmasligini anglatadi.

Uchinchidan, ishsiz sifatida ro‘yxatga olingan shaxslar kooperativlarga a’zo sifatida qabul qilingandan so‘ng, yetakchi tadbirkor tomonidan ko‘p o‘tmay kooperativni tugatish va a’zolarga turli vajlar bilan subsidiya sifatida ajratilgan ulushlarni qaytarib berilmasligi holatlari uchramoqda.

Kooperativlar soni 2020-yilda **469 tani** tashkil etgan bo‘lsa, ularga ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish bo‘yicha olib borilgan nazorat-taftish natijasida 2021-yilda ular soni **228 taga** tushib qolgan.

Yuqorida keltirilgan muammolar va qonunchilikdagi kamchiliklar natijasida jismoniy va yuridik shaxslarning kooperativlarga birlashuvi sezilarli darajada kamayib ketgan, ularning kooperativlarga a’zolikdan manfaatdorligi yo‘qolgan.

Ta’kidlash kerakki, kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunni qabul qilishdan maqsad kooperativlarga huquqiy maqom berish va ularning ishlashiga ko‘maklashish bo‘lishi, shuningdek, qonun kooperativlarning ixtiyoriy birlashmalar sifatida va umumiy qabul qilingan kooperatsiya tamoyillariga muvofiq ishlashini ta’minlashi lozim.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini o‘rganish natijalari.

Kooperatsiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni o‘rganish maqsadida **Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Xitoy, Hindiston, Malayziya, Kanada, Fillipin** kabi dalatlar qonunchiligi o‘rganildi.

Masalan, Xitoyning “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (Cooperatives Act) 9 bo‘lim, 77 moddadan iborat. Germaniyaning “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (Cooperative Law) 10 bo‘lim, 174 moddadan iborat. Mazkur davlatlarda kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunning qoidalari, asosan, quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

– kooperatsiya tushunchasi, predmeti va kooperatsiya tamoyillari;
– kooperatsiyalarni ro‘yxatdan o‘tish tartibi;
– a’zolik, a’zolarning huquq va majburiyatlari;
– kooperatsiyani boshqarish;
– mablag‘lar, kapital masalalari;
– kooperatsiyani qayta tashkil qilish va tugatish;
– kooperatsiyalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
– nizolarni hal qilish;
– jazo masalalari.

Xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilish ushbu davlatlarda kooperatsiya prinsiplaridan tortib jazo masalalarigacha bo‘lgan munosabatlar to‘g‘ridan to‘g‘ri qonunda nazarda tutilganligini ko‘rish mumkin. Xususan, **Kanadaning** “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (Cooperatives Act) 8-moddasida kooperativlar uch kishidan kam bo‘lmagan jismoniy shaxslar yoki

ikkitadan ortiq yuridik shaxslar birlashmasidan iborat bo‘lishi belgilangan. 16 yoshga to‘lmagan, muomala layoqatiga ega bo‘lmagan yoki bankrotlik maqomi mavjud jismoniy va yuridik shaxslar kooperatsiyalarga a’zo bo‘la olmaydi.

Janubiy Koreya qonunchiligida agar a’zo bir yildan ortiq muddat kooperativdan foydalana olmagan bo‘lsa, shuningdek, u sarmoyalarni to‘lash, xarajatlarni taqsimlash yoki kooperativ oldidagi boshqa majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, kooperativdan chiqarib yuborilishi mumkinligi nazarda tutilgan. **Yaponiya** kooperativ qonunchiligida ham muayyan vaqt davomida kooperativ xizmatlaridan foydalanmagan a’zolar Bosh organ tomonidan chiqarilishi mumkinligi belgilangan.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda kooperativlarni ro‘yxatga olishning turli muddatlari o‘rnatilgan. Masalan, bu muddat 15 kun (Kanada), 30 kun (Filippin), 2 oydan (Yaponiya) olti oygacha (Hindiston va Indoneziya) bo‘lgan davrlarni tashkil qiladi.

Xalqaro amaliyot kooperativ boshqaruv beshta element bo‘yicha tasniflanishi lozimligini ko‘rsatadi. Bular bosh assambleya, boshqaruv raisi, ijroiya kengashi yoki kuzatuv kengashi, taftish, qo‘mitalardan iborat. Jumladan, **Xitoyning** “Kooperatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni (Cooperatives Act) 32-moddasida kooperatsiyani boshqarish masalalari yoritilgan. Unga ko‘ra, kooperativda kamida uchta direktor va uchta nazoratchi bo‘lishi kerak va ular a’zolarning qurultoyida a’zolar orasidan saylanadi. Direktorlar va nozirlar uch yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga o‘z lavozimlarini egallaydilar va agar qonun yoki ustavda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, ular qayta saylanish huquqiga ega.

Filippinning Kooperativ kodeksida (Cooperative code of Philippines) kooperativning ichki ishiga xalaqit beradigan davlat amaldorlari ham kooperativ qonunchilikni buzgan huquqbuzarlik subyektlari sifatida keltirilgan. Ushbu qoida kooperativlar ishiga siyosiy va byurokratik aralashuvni oldini olishga qaratilgan bo‘lib, ko‘plab davlatlar uchun namuna bo‘la oladi.

Yuqoridagilarga ko‘ra, kooperativlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. “Kooperatsiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini yangi tahrirda ishlab chiqish, qonunning yangi tahrirdagi loyihasida quyidagilarni nazarda tutish taklif etiladi:

– qonunning maqsadini belgilash, kooperativ tushunchasiga uning xususiyatlaridan kelib chiqib, ta’rif berish;

– barcha turdagi kooperativlar faoliyati uchun mas keluvchi kooperativ faoliyat prinsiplarini (ixtiyoriy va ochiq a’zolik, a’zolarni demokratik boshqarish, foyda yoki zararni qoplashda a’zolarning iqtisodiy ishtiroki va hissasi, biznesning avtonomligi, mustaqilligi va a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning ochiqligi, kooperativlar o‘rtasidagi hamkorlik va jamiyat uchun g‘amxo‘rlik) belgilash;

– kooperativga a’zolik, a’zolarning huquq va majburiyatlarini xalqaro standartlarga moslashtirish;

– kooperativlarni davlat ro‘yxatidan o‘tish tartibi, taqdim qilinadigan hujjatlar ro‘yxati, ro‘yxatdan o‘tish uchun belgilangan muddat, arizani rad etish asoslarini qonun darajasida belgilash;

– xalqaro davlatlar tajribasidan kelib chiqib, kooperativ boshqaruvning umumiy yig‘ilish, boshqaruv raisi, ijroiya kengash (kuzatuv kengashi) va taftishdan iborat ekanligini hamda ularning faoliyati, vakolatlari va funksiyalarini belgilab qo‘yish;

– kooperativ mulk tarkibi, ulardan foydalanish tartibi, kooperativ aksiyalar, a’zolarning mulkiy huquqlari va javobgarligi masalarini aks ettirish;

– amaldagi qonunchilikda mavjud bo‘lmagan kooperativning zahira fondini shakllantirish, uni taqsimlash va foydalanish tartibini nazarda tutish;

– kooperativ va uning a’zolari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish bo‘yicha aniq qoidalarni aniq belgilash, bunda sud rolini imkon qadar kamaytirish;

– kooperativ qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik masalalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilash;

– kooperativning faoliyatini to‘xtatish va uni qaytadan tashkil etish masalalarini takomillashtirish.

2. Kooperativlarni turli sohalarda, jumladan, ishlab chiqarish, marketing, kommunal xizmatlar, transport, kredit, sug‘urta, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda rivojlanishi uchun huquqiy mexanizmlarni yaratish.

3. Kooperativlarning faoliyat yuritishini rag‘batlantiradigan yoki kooperativlardan a’zolarning manfaatdorligini oshiradigan mexanizmlarlarni (soliqlardan, bojxona to‘lovlaridan ozod qilish, hukumat tomonidan imtiyozli kreditlar berish) yaratish.

4. Qonunchilikda a’zolarda o‘zaro ishonch munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni, jumladan quyidagilarni belgilab qo‘yish:

– foyda va zararning a’zolarning shaxsiy mehnati bilan ishtiroki yoki xo‘jalik faoliyatdagi ishtirokini hisobga olgan holda ular o‘rtasida taqsimlanishi;

– faoliyatning oshkoralik asosida boshqarilishi, har bir a’zo, qo‘shgan mulkiy hissasining miqdoridan qat’i nazar, bir ovozga ega bo‘lishi;

– faoliyat to‘g‘risidagi axborotlarni uning barcha a’zolari uchun ochiq bo‘lishi.

5. Kooperatsiyalar faoliyatiga oid statistik ma’lumotlarning ochiqligi, shaffofligini ta’minlash.

6. Kooperatsiyalar va ularning ahamiyati to‘g‘risida aholi, jumladan tadbirkorlar xabardorligini oshirish maqsadida turli targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish, Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlik subyektlarini o‘qitish dasturlarini kooperatsiyalarning ahamiyatiga oid materiallar bilan boyitish.

7. Kooperatsiya ishtirokchilari bo‘lgan subyektlar, jumladan, fermer va dehqon xo‘jaligi rahbarlari, tomorqa yer egalari yoki boshqa shu sohadagi tadbirkorlarning huquqiy hamda biznes sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus elektron platforma faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

8. Qishloq xo‘jaligi sohasini boshqaruv tashkilotlarining kooperatsiyalar faoliyatiga aralashuvlarini cheklash.

9. Tadbirkorlik subyektlarining umumiy faoliyatlarini birlashtirib, ularni kooperatsiya asosida faoliyat yuritishi afzalligini asoslab beradigan, shuningdek, birlamchi tashkiliy tuzilmalar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishga yordam ko‘rsatadigan nodavlat tuzilmalar faoliyatini rag‘batlantirish.

10. Paxta-to‘qimachilik klasterlarini moliyalashtirish, ularga kreditlar ajratishning amaldagi tartibini takomillashtirish.

11. Sanoat kooperatsiyalari faoliyati sohasida:

– yirik sanoat tarmoqlarida xususiylashtirishni 2 barobarga oshirish;

– xo‘jalik subyektlarining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;

– kooperatsiyalarga a’zolikni rag‘batlantiradigan iqtisodiy mexanizmlarni kafolatlash;

– xorijiy mamlakatlar bilan sanoat kooperatsiyalarini tashkil etishning uzoq yillarga mo‘ljallangan strategiyalarini ishlab chiqish;

– mahalliylashtirish dasturlarini ishlab chiqish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik holatidan kelib chiqib yondashish;

– ishlab chiqarish korxonalarini mahalliylashtirish dasturiga kiritishdagi jarayonlarni soddalashtirish;

– hududlarda kooperatsiyalar faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish;

– qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalari kooperatsiyasini bog‘laydigan tizimni ishlab chiqish;

– ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohalari o‘rtasida kooperatsiyalarni kengaytiradigan va rag‘batlantiradigan mexanizmlarni takomillashtirish;

– Elektron kooperatsiya birjasi portali imkoniyatlarini kengaytirish.

12. Aholi bandligini ta’minlash sohasida:

– barcha turdagi kooperativlarga a’zo shaxslar uchun yagona ijtimoiy to‘lovlar to‘lab borilishi talabini belgilash;

– ijtimoiy kontraktlarning bekor qilish asoslarini qayta ko‘rib chiqish;

– davlat mablag‘lari hisobidan band bo‘lmagan aholiga berilayotgan subsidiyalarning yetakchi tadbirkorlar tomonidan o‘zlashtirilishining oldini olish maqsadida kooperatsiyalarni tugatish asoslarini takomillashtirish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, avvalo, iqtisodiyotda kooperatsiyalar ulushini oshadi, kooperatsiyalarning kooperativ tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritishi hamda a’zolarning kooperativga a’zolikdan manfaatdorligi ta’minlanadi, samarali kooperativ boshqaruv joriy etiladi, kooperativ mulkdan maqsadli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Bu esa tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida o‘zaro raqobat muhitini shakllantiradi, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilaydi, har bir sohada (qishloq xo‘jaligi, sug‘urta, xizmatlar ko‘rsatish va h.k) samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshiradi, chakana narxlarni pasaytiradi va mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan kooperatsiyalarning keng ko‘lamli faoliyati orqali aholi bandligi ta’minlanadi, kam ta’minlangan, ishsiz fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanadi.

Нуриддинов Лазизжон Ғиёс ўғли
Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Юридик бошқармаси бош юристконсулти

ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИГА МЎЛЖАЛЛАНГАН ЕР УЧАСТКАЛАРИГА БЎЛГАН ҲУҚУҚЛАРИ, УЛАРНИ АМАЛГА ОШИРИШ ВА ТИЖОРИЙЛАШТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Nuriddinov Lazizjon Giyos ugli
Chief lawyer of Legal department of The Ministry of Agriculture of the Republic of Uzbekistan

RIGHTS TO AGRICULTURAL LAND OF BUSINESS ENTITIES, THE LEGAL BASIS FOR THEIR IMPLEMENTATION AND COMMERCIALIZATION

Нуриддинов Лазизжон Гиес угли
Главный юрисконсульт Юридического управления Министерства сельского хозяйства Республики Узбекистан

ПРАВА НА ЗЕМЛИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО НАЗНАЧЕНИЯ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ, ПРАВОВАЯ ОСНОВА ИХ РЕАЛИЗАЦИИ И КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация: *Мақолада мамлакатимизда қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларини тижорийлаштиришнинг ҳуқуқий асосларини яратиш ҳолати ўрганилган. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларидан фойдаланиш ҳамда уларга нисбатан ҳуқуқларнинг бошқа шахсларга ўтказишга оид Ўзбекистон Республикасининг қонунчилиги ҳамда халқаро тажриба қиёсий таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *ер участкаси, ижара ҳуқуқи, гаров, хусусий мулк, олди-сотди.*

Abstract: *The article explains the state of the creation of a regulatory framework for the commercialization of agricultural land in our country. The article provides a comparative analysis of the legislation of the Republic of Uzbekistan and international experience in the use and transfer of rights to agricultural land.*

Key words: *land plot, rent, bail, private property, sale.*

Аннотация: *В статье, исследуется состояние создания нормативно-правовой базы коммерциализации земель сельскохозяйственного назначения в нашей стране. В статье проводится сравнительный анализ законодательства Республики Узбекистан и международного опыта использования и перехода прав на земли сельскохозяйственного назначения.*

Ключевые слова: *земельный участок, аренда, залог, частная собственность, продажа.*

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 36-моддасига кўра, ҳар бир шахс мулкдор бўлишга ҳақли. Маълум бир соҳада бозор муносабатларини жорий этишнинг асосида бу соҳада мулк ҳуқуқининг таъминланганлиги ётади. Мулк ҳуқуқисиз бозор муносабатларини ривожлантириш, хусусан, ашёни бозор активига айлантириш имконсиз.

Ер участкаларини иқтисодий муносабатларнинг объекти сифатида эркин муомалада бўлиши, шартнома асосида бир шахсдан бошқа шахсга ўтказилиши ҳар бир мамлакат ривожланишида ўзига хос ўринга эга бўлади. Одатда ерга нисбатан мулкий муносабатларнинг тўғри қўлланилганлигига кўра жамиятнинг иқтисодий ривожланиши белгиланган [1].

Биргина ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқини кредитлар олишда гаровга қўйиш билан боғлиқ фермер хўжаликларининг ҳуқуқи бугунги кунга қадар амалда реализация қилинмай келинмоқда. “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 13-моддасида ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқи кредитлар олишда фермер хўжалиги томонидан гаровга қўйилиши мумкинлиги белгиланган.

Бироқ қонунчилик ҳужжатларида ер ижара ҳуқуқидан фойдаланишга қўйилган бир қанча талаблар борки, улар мазкур ҳуқуқдан шартнома бўйича мажбуриятнинг бажарилишини таъминлаш усули сифатида фойдаланишга тўсқинлик қилади.

Қайд этиш лозимки, Ўзбекистон Республикаси Ер кодексига кўра ижарага берилган ер участкалари олди-сотди, ҳадя, айирбошлаш объекти бўлиши мумкин эмас.

Ер участкасини ижарага олиш ҳуқуқини кредитлар олишда гаровга қўйиш билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатга фуқаролик қонунчилик жихатидан баҳо берсак, кредит олиш бўйича тузиладиган мазкур битим мазмунига кўра олди-сотди шартномаси келтириб чиқрадиган ҳуқуқ ва мажбуриятларни келтириб чиқиши ҳам мумкин ва бунда шартноманинг мазкур тури билан айнан бир хил вазифани бажаради.

Бу қуйидагича изоҳланади. Агар қарз (кредит) олувчи шартнома бўйича кредитор томонидан тақдим этилган пул маблағларини қайтаришга қобилиятли бўлмаса ёки уларни атайлаб қайтармаса кредитор қонунчиликда белгиланган тартибда ва шартларда ундирувни гаров нарсасига қаратишга ҳақли бўлади. “Гаров тўғрисида”ги Ўзбекистон

Республикасининг Қонунига кўра ундирув қаратилган, гаровга қўйилган мол-мулкни мажбурий равишда реализация қилиш қонунчиликда назарда тутилган тартибда ва шартлар асосида, электрон онлайн-аукцион шаклидаги очиқ кимошди савдосида сотиш орқали амалга оширилади.

Яъни тарафлар ўртасида тузилган кредит шартномаси бўйича мажбуриятлар қарз олувчи томонидан бажарилмаган ёки лозим даражада бажарилмаган тақдирда кредитор гаровга қўйилган ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини, электрон онлайн-аукцион шаклидаги очиқ кимошди савдосида сотиш ҳуқуқига эга бўлади. Бироқ бу қоида бошқа томондан Ўзбекистон Республикаси Ер кодексига кўра ижарага берилган ер участкалари олди-сотди объекти бўлиши мумкин эмаслиги ҳақидаги нормага зид бўлади. Бу эса амалда ер участкасига бўлган ижара ҳуқуқини бозор активи сифатида гаровга қўйишни ўз-ўзидан ҳақиқий эмаслигига олиб келади.

Бундан ташқари, ундирувни гаров нарсаси бўлган ижара ҳуқуқига қаратишда тегишли тадбиркорлик субъекти билан тузилган ер участкасини ижарага бериш шартномасини бекор қилиш орқали ҳуқуқни бошқа шахсга расмийлаштириш зарурати юзага келади. Бироқ Ўзбекистон Республикаси Ер кодексининг 36-моддасида ижара ҳуқуқни бекор қилиш асослари белгиланган бўлиб, унда ундирувни гаровга қаратиш орқали ижара ҳуқуқини бекор қилиш назарда тутилмаган. Ушбу соҳада мулк ҳуқуқининг мавжуд эмаслиги ва қонунчиликдаги мазкур ўзаро номувофиқликлар ижара ҳуқуқидан мажбуриятларнинг бажарилишини таъминлаш усули сифатида фойдаланишга тўсқинлик қилади.

Таъкидлаш лозимки, ижара ҳуқуқи ер учаскасига нисбатан тўлиқ эгалик қилиш ҳуқуқини бермаслиги ҳамда Ер кодексида белгиланган тартибда мазкур ҳуқуқдан маҳрум бўлиб қолиш эҳтимоллари юқорилиги сабабли, унинг бозордаги аниқ қиймати мажвуд эмас ҳамда унинг тахминий баҳосини ҳам ҳисоблаш имкони мавжуд эмас ва у аксарият ҳолларда олинадиган кредит маблағларининг қоплаш учун етарли бўлмайди.

Маълумки, тадбиркорлик фаолияти субъектларининг қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларига бўлган ҳуқуқлари ва уларнинг кафолатланиши соҳада тадбиркорлик фаолияти олиб боришнинг асоси ва ўзига хос хусусияти ҳисобланади. Шунга қарамасдан, ер участкаларига бўлган ҳуқуқлар, уларнинг турлари ҳамда уларни ҳимоя қилишни тартибга солишда ҳуқуқ ва мажбуриятлар ўртасидаги бир қанча номутаносибликлар, ноаниқ нормалар, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида зиддиятларнинг мавжудлиги айрим ҳолларда тадбиркорлик субъектларининг ер участкаларига бўлган ҳуқуқларининг бузилишига олиб келаётган эди.

Ер участкаларига бўлган ҳуқуқлар, уларни кафолатли ҳимоя қилишнинг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш соҳасида 1998 йилда Ўзбекистон Республикасининг Ер кодекси қабул қилингандан кейинги

даврда аҳамиятга молик ҳуқуқий ислоҳотлар амалга оширилмаган эди. Бироқ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 8 июндаги ПФ–6243-сон “Ер муносабатларида тенглик ва шаффофликни таъминлаш, ерга бўлган ҳуқуқларни ишончли ҳимоя қилиш ва уларни бозор активига айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони асосида ер муносабатларини тартибга солишда туб ислоҳотлар бошлаб берилди.

Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистонда ер қонунчилигида рўй берган ўзгаришларни “мамлакатимизнинг янги тарихидаги энг катта ислоҳотлардан бири” деб атади.

Мазкур Фармонга асосан ер участкалари хусусий секторга – мулк ва ижара ҳуқуқи асосида, давлат органлари, муассасалари, корхоналари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига – доимий фойдаланиш ҳуқуқи асосида ажратилиши белгиланди.

Мерос қилиб қолдириладиган умрбод эгалик, доимий эгалик, вақтинча фойдаланиш ҳуқуқи билан ер ажратиш тартиби бекор қилинди. Айни пайтда илгари ажратилган ер участкаларига бўлган бундай ҳуқуқлар сақлаб қолинди. Бу орқали ер участкаларига нисбатан белгиланадиган ҳуқуқлар сони қисқартирилди ва соддалаштирилди.

Шунингдек, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар барча турдаги қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари иштирок эта оладиган, натижалари Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларининг қарори билан тасдиқланадиган очиқ электрон танлов якунларига кўра, фақат ижара ҳуқуқи асосида ажратилиши белгиланди. Мазкур ҳолат қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари учун шаффофликни таъминлашга ва ер ажратиш тизимида ягона тартибнинг жорий этилишига олиб келади.

Бироқ мазкур норматив-ҳуқуқий ҳужжат қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларига мулк ҳуқуқи асосида эгалик қилиш тартиби жорий этишни ўз ичига олмади.

Г.Ш. Узакова мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги ерларининг хусусийлаштирилмаслигининг объектив сабаби сифатида Ўзбекистон Республикаси, энг аввало, суғорма деҳқончиликка асосланганлигини қайд этади [2].

Қайд этиш жоизки, қишлоқ хўжалигидаги ер муносабатларида мулк ҳуқуқини жорий қилиш айрим салбий оқибатларни вужудга келтириши мумкинлиги ҳақидаги прогнозлар таҳлил қилинган. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер майдонларининг камчиликни ташкил этувчи йирик тадбиркорлик субъектларининг иҳтиёрига ўтиб кетиши ва бунинг натижасида соҳада монополияларнинг вужудга келиши шундай салбий оқибатлардан бири бўлиши мумкин. Мамлакатимизда меҳнатга лаёқатли аҳолининг аксарияти қишлоқ хўжалигида банд эканлиги эса мазкур ўзгариш жамиятнинг ижтимоий аҳволига таъсирининг кўламини анча кенг бўлишини тасдиқлайди. Шунингдек, қишлоқ хўжалиги ерларининг мулк сифатида эркин муомалада бўлиши унинг хорижий фуқароларга сотилиши ҳолатларини ҳам келтириб чиқариши мумкин. Бу эса

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида белгиланган Ўзбекистоннинг давлат чегараси ва ҳудуди дахлсиз ва бўлинмаслиги ҳақидаги принципларга зид ҳолатларни юзага келтириши мумкин.

Қишлоқ хўжалиги ерларини тижорийлаштиришнинг ҳуқуқий тартиби тўғрисида турли фикрлар билдирилган. Г.Ш. Узакова бозор муносабатларига асосланган ҳозирги Ўзбекистон шароитида ерга нисбатан умумий тартибда давлат мулкчилигини сақлаб қолган ҳолда тадбиркорлик мақсадларида ердан хусусий мулкчилик асосида фойдаланиш тартибини жорий қилиш муҳимлиги тўғрисидаги фикрни илгари суради [3].

Бизнинг фикримизча, қишлоқ хўжалиги ерларини бошқа тамойиллар асосида тижорийлаштиришнинг ҳуқуқий асосларини яратиш мақсадга мувофиқ. Бунда Собиқ иттифоқ давлати ҳисобланган Литва Республикасининг қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланиш тажрибисини мамлакатимизда қўллаш истиқболларини ўрганиш ва шу орқали Ўзбекистонда ерларни тижорийлаштиришни йўлга қўйиш мақбул ечим бўлиши мумкин.

Литва қонунчилигига кўра, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар тадбиркорлик субъектларига ижара асосида берилади. Бироқ тадбиркорлар ижара ҳуқуқини айрим талабларни инобатга олган ҳолда сотиши мумкин. Бундай тақиқлардан бири сифатида айтиш мумкинки, қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари фақатгина ўз ерларига ёндош ҳудудда жойлашган ер майдонларга бўлган ижара ҳуқуқини сотиб олиш ҳуқуқига эга.

Масаланинг яна бир аҳамиятли томони шундаки, ижара ҳуқуқининг баҳоси тадбиркор томонидан мустақил белгиланиши керак.

Ўзбекистон Республикаси Ер кодексига юридик ва жисмоний шахсларнинг ер участкасига бўлган ҳуқуқи жойнинг ўзида чегаралар белгиланганидан, ер участкаларининг планлари (чизмалари) ва тавсифлари тузилиб, ер участкаларига бўлган ҳуқуқ давлат рўйхатига олинганидан кейин вужудга келади. Шунга кўра, ижара ҳуқуқи янги ижарага олувчига ўтганда буни давлат рўйхатидан ўтказиш мажбуриятининг мавжудлиги мазкур ҳуқуқий муносабатларда низо келиб чиқишининг олдини олади.

Бундай ҳолда қонунчиликка қуйидагича айрим қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш зарурати юзага келади:

– ижара ҳуқуқини сотиш, гаровга қўйиш ёки бегоналаштириш билан боғлиқ бошқа шартномалар нотариал тасдиқлангандан кейинги юридик кучга эга бўлиши ва шартнома тузишнинг мазкур талаби бажарилмай тузилган шартнома ўз-ўзидан ҳақиқий эмаслиги ҳақида;

– ижара ҳуқуқи фақат Ўзбекистон Республикаси фуқароларига ўтказилиши мумкинлиги ҳақида;

– бир ижарага олувчи эга бўлиши мумкин бўлган ер майдонининг максимал миқдорини белгилаш ҳақида;

– ижара ҳуқуқи ижарага олувчининг хоҳиши билан бошқа шахсга ўтказилганда ижара ҳуқуқи бекор бўлиши ҳақида;

– ижара ҳуқуқи ижарага олувчининг хоҳиши билан бошқа шахсга ўтказилганда, тегишли ҳокимлик ижара шартномасини қайта расмийлаштириши шартлиги ҳақида.

Шу тариқа, Ўзбекистонда қишлоқ хўжалиги ерларини тижорийлаштириш ижобий натижаларга эришилган хорижий тажрибани қўллаш орқали босқичма-босқич амалга оширилиши керак. Бунда қишлоқ хўжалиги ерларига бўлган ижара ҳуқуқини сотиш тартибини жорий этиш соҳадаги кейинги ислоҳотларнинг дастлабки босқичи вазифасини бажариши мақсадга мувофиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Эргашев В.Ё, Имомов Н.Ф “Кўчмас мулк объектлари”. – Тошкент: ТДЮУ, 2015. – Б. 43.

2. Узакова Г.Ш. “Ер участкаларини хусусийлаштириш жараёнини ҳуқуқий тартибга солиш: миллий ва хорижий тажриба” Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. – Тошкент ТДЮУ, 2020. – Б. 36.

3. Узакова Г.Ш. “Ер участкаларини хусусийлаштириш жараёнини ҳуқуқий тартибга солиш: миллий ва хорижий тажриба” Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. – Тошкент ТДЮУ, 2020. – Б. 43.

Sobirova Nozimaxon Muhtorhon qizi
Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash" kafedrasi o'qituvchisi
nozimakhon.sobirova@gmail.com

RAQAMLASHTIRISHNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH VOSITASI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sobirova Nozimakhon Mukhtorkhon qizi
Lecturer at the Department of Crime Prevention and Ensuring Public Safety, Specialized Branch of the Tashkent State Law University
nozimakhon.sobirova@gmail.com

FEATURES OF DIGITALIZATION AS A TOOL IN FIGHTING AGAINST CORRUPTION

Собирова Нозимахон Мухторхон кизи
преподаватель кафедры «Профилактика правонарушений и обеспечение общественной безопасности» Специализированного филиала Ташкентского государственного юридического университета
nozimakhon.sobirova@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ КАК ИНСТРУМЕНТА БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Annotatsiya: *Hozirgi kunda davlat boshqaruvi tuzilmalarini raqamlashtirish va aholiga xizmat ko'rsatish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi bir-birining ajralmas qismiga aylandi. Buning asosiy sababi jahon davlatlari hayotining barcha sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining global tarzda joriy etilishidir. Bu jarayon ancha oldin boshlangan, biroq u to'xtab qolgani yo'q va har kuni har xil turdagi raqamli tizimlar hamda jinoyatlarni sodir etishning yangi usullari ham paydo bo'lmoqda. Har qanday davlat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korrupsiya kabi ommaviy ijtimoiy hodisaga qarshi kurashishning alohida ahamiyatini hisobga olib, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda shuningdek boshqa davlat tarkibiy tuzilmalarida axborot texnologiyalarini korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida joriy etish mantiqan to'g'ri deb hisoblanadi. Bu usul korrupsiyaga qarshi kurashning samarali usullaridan biri hisoblanadi, biroq AKT ni korrupsiyaga qarshi kurashning muhim vositasi sifatida joriy etishda ushbu tadqiqotda muhokama qilinganidek, e'tibor qaratish lozim bo'lgan xususiyatlar mavjud.*

Kalit so'zlar: *raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, davlat xizmatlari, huquqbuzarliklarning oldini olish, korrupsiya, "raqamli" savodxonlik.*

Abstract: *Nowadays the digitalization of public administration structures and the provision of services to the population and crime prevention are an integral part of each other. The main reason for this is the global introduction of information and communication technologies in all areas of life of states around the world. This process began a long time ago, but it does not stand still and every day there are both new systems and new ways of committing various types of crimes. Given the particular importance of combating such a massive social phenomenon as corruption, which has a negative impact on the development of any state, it is considered logical to introduce information technology as an important tool in the fight against it, in the provision of public services to the population, as well as in other state structural formations. This method is one of the effective methods of combating corruption, however, there are points that need to be paid attention to in process of introducing information and communication technologies as an important tool for combating corruption, as discussed in this work.*

Key words: *digitalization, information and communication technologies, public services, crime prevention, corruption, digital literacy.*

Аннотация: *Цифровизация структур государственного управления и оказания услуг населению и предупреждение преступности в настоящее время являются неотъемлемой составной частью друг друга. Основной причиной тому является, глобальное внедрение информационно-коммуникационных технологий во все области жизнедеятельности государств всего мира.*

Этот процесс, начался давно, однако не стоит на месте и с каждым днём появляются как новые системы, так и новые способы совершения различных видов преступлений. Учитывая особую важность борьбы с таким массовым социальным явлением, как коррупция, которая оказывает негативное влияние на развитие любого государства, считается логичным внедрение информационных технологий как важного инструмента в борьбе с ней, в сферу оказания государственных услуг населению, а также в других государственных структурных образованиях.

Такой способ, является одним из эффективных методов борьбы с коррупцией, однако имеет свои особенности, на которые необходимо обратить внимание при внедрении ИКТ как важного инструмента противодействия коррупции, о чём говорится в данном исследовании.

Ключевые слова: *цифровизация, информационно-коммуникационные технологии, государственные услуги, предупреждение преступности, коррупция, «цифровая» грамотность.*

Цифровизация государственного управления, экономики, образования, здравоохранения и других сфер государственной и общественной жизни стала общемировым трендом. Не является исключением, и правовая система Республики Узбекистан, все структурные элементы которой испытывают

влияние цифровых технологий. 22 сентября 2020 года на совещании по вопросам внедрения цифровой экономики и электронного правительства Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев подчеркнул: «Главы регионов и отраслей обязаны осознать, что без цифровизации не будет результата, не будет развития. Руководители всех уровней должны определить этот вопрос как свою повседневную задачу, глубоко изучить сферу цифровизации с самых азов». [1]

В этой связи, можно привести также пример, что одной из серьезных недостатков и проблем в деятельности органов внутренних дел согласно Указу Президента № УП-5005 от 10.04.2017 г. является неудовлетворительный уровень внедрения в их деятельность новейших информационно-коммуникационных технологий, оснащения органов внутренних дел современными средствами и оборудованием. В этом же документе отмечается, что одной из важнейших направлений реформирования системы органов внутренних дел Республики Узбекистан является дальнейшее улучшение материально-технического обеспечения деятельности органов внутренних дел и создание достойных условий для эффективной работы сотрудников. [2]

На современном этапе, использование цифровых технологий во всех сферах общественной жизни является необходимостью, так как нельзя забывать о том, что с развитием и прогрессом в той или иной области развиваются параллельно и преступления, которые совершаются в ней. Отсюда можно сделать вывод о том, что цифровизация необходима не только для того, чтобы идти в ногу со временем, но также и для предупреждения совершения тех или иных преступлений.

Затронув тему предупреждения преступности и деятельности органов внутренних дел, остановим своё внимание на области противодействия коррупции. Учитывая тот факт, что коррупция на сегодняшний день является одной из самых опасных угроз нормальному развитию государственного строя, общества в целом, использование информационно-коммуникационных средств в борьбе с коррупцией стало одной из основных задач государства. В этой связи необходимо отметить, что в Узбекистане по сегодняшний день были внедрены с широким использованием возможностей цифровых технологий эффективные механизмы, направленные на предотвращение коррупции и злоупотреблений во многих сферах, таких как выдача государственных номерных знаков на транспортные средства, оказание нотариальных и других государственных услуг, отвод земельных участков, контроль за соблюдением правил дорожного движения и др.

Процесс цифровизации государственного управления имеет серьезное антикоррупционное значение и измерение. Развитие на основе информационно-коммуникационных технологий принципиально новых механизмов государственного управления позволяет разработать ранее неизвестные и совершенно неожиданные средства противодействия традиционным негативным явлениям государственного управления,

в том числе таким как бюрократичность, низкая эффективность, коррупциогенность. При этом, развитие информационно-коммуникационных технологий может порождать и новые коррупционные и бюрократические схемы, что в своем потенциале может свестись к электронной бюрократизации или даже электронной коррупции. [3] То есть имеется обратная сторона развития – государство может разработать ни одну электронную платформу в целях цифровизации, однако недобросовестные чиновники всегда могут найти лазейку для удовлетворения своей жажды в материальных благах, возможны случаи возникновения конфликта интересов на государственной службе или же при осуществлении государственных закупок.

В этом смысле, формирование антикоррупционной правовой политики с применением цифровых технологий требует серьезного научного анализа, формулирования таких приоритетов правовой политики, принципов и моделей юридических конструкций, которые бы исключали возможность развития вышеуказанных негативных тенденций и последствий цифровизации, и, напротив, легли бы в основу принципиально новых правовых механизмов регулирования государственного управления, публичной власти, правоохранительной деятельности [4].

То есть, в первую очередь, необходимо внедрять новые технологии поэтапно. А также заблаговременно, т.е. до начала функционирования той или иной новой системы, необходимо удостовериться в том, что она разработана с учётом всех нюансов и не оставляет возможности совершения коррупционных действий должностными лицами либо другими заинтересованными лицами.

Необходимо отметить, ещё один важный момент: учитывая процессы развития цифровизации общества считаем целесообразным повышать грамотность населения в сфере информационно-коммуникационных технологий, то есть так называемую «цифровую грамотность», так как это не только требование времени, а способ не оказаться в ситуации, где обслуживаемый в государственной структуре гражданин может стать жертвой коррупционного правонарушения. Владения необходимых знаний в этой области позволит:

– быть в курсе о новых электронных системах, их функциях, о том с какой целью они созданы и какие они оказывают услуги;

– самостоятельно осуществлять действия по получению государственных услуг;

– обладать заранее информацией о том, какие именно документы необходимы при осуществлении той или иной услуги;

– сроки оказания услуги;

– уполномоченных органов и лиц, ответственных за своевременное выполнение услуги;

– размеры государственных пошлин за оказанную услугу.

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЕ ССЫЛКИ:

1. https://president.uz/ru/lists/view/3848

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному повышению эффективности деятельности органов внутренних дел, усилению их ответственности за обеспечение общественного порядка, надежной защиты прав, свобод и законных интересов граждан» от 10.04.2017 г. № УП-5005 // Национальная база данных законодательства, 17.03.2021 г., № 06/21/6188/0216

3. Мухамадиева Д.Н. Цифровизация против коррупции. Возникновение е-коррупции / Д.Н. Мухамадиева // Вестник Самарского государственного экономического университета. – 2019. – № 1 (171). – С. 9-13.

4. Головкин Р.Б. Юридический инжиниринг: сущность и соотношение с юридической техникой / Р. Б. Головкин, А. В. Соколова. //Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России.-2016. № 2. С.36-42.

5. Собирова Н. 2022. Юридическая природа понятия «конфликта интересов» на примере законодательства зарубежных стран. Общество и инновации. 3, 1/S (мар. 2022), 288–294. DOI:https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss1/S-pp288-294.

6. Sobirova Nozimakhon Mukhtorkhon Qizi. (2021). The Concept Of "Conflict of Interest" and the relationship of this term with "Personal Interest". The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(12), 11–16. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue12-03.

“ADLIYA SOHASIDA RAQAMLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”

Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami

“MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIGITALIZATION IN THE FIELD OF JUSTICE”

International conference materials compilation

«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВИЗАЦИИ В СФЕРЕ ЮСТИЦИИ»

Сборник материалов международной конференции

Ответственный редактор: ***Ш. Собиров.***
Редактор: ***Т. Каримов.***
Редактор: ***Т. Мухсинжонова.***
Технический корректор: ***М. Анваржонова.***
Компьютерная верстка: ***М. Ражапова.***

За качество представленных к печати материалов, приведенные в них факты, имена собственные и другие сведения, а также за разглашение сведений, не подлежащих публикации, несут ответственность авторы статей.